

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
AL – XORAZMIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

MADAMIN ESHMURODOV

**“AVESTO” DA TABIAT KUL‘TLARI
TALQINI**

Xorazm – 2024

UO‘K 254.2-24:502-047.48

KBK 86.33+20.1

E 99

Madamin Eshmurodov. [Matn]: Monografiya. “Avesto” da tabiat kul’tlari talqini. M.Eshmurodov.Xorazm: Ogahiy nashriyoti, 2024-yil. 176 b.

2- нaшp

“Avesto” – ezgulik falsafasi, hayotni va uning mohiyatida yotuvchi unsurlar – tuproq, suv, havo va olovni ulug’lovchi g’oyalarning yaxlit tizimidir. Bu kitobda mujassamlashgan g’oyalar, avvalo, tabiatga munosabat va hurmat tuyg’usi, borliq, olamning yaxlitligi, atrof – muhitni asrash odamzotning eng asosiy vazifasi ekani tasvirlab berilgani bilan bugungi kunda ham har qanday kishini hayratda qoldiradi.

Mazkur tadqiqot “Avesto”da o’z ifodasini topgan tabiat kul’tlarining genetik ildizlari,zardushtiylik mifologiyasining yuzaga kelishi va rivoj topishidagi ahamiyati kabi masalalar tahliliga bag’ishlangan.

Monografiya adabiyotshunoslari, adabiyot tarixi bilan qiziquvchilar, oliy o’quv yurtlarining filologiya va tarix fakul’tetlari o’quvchi va talabalariga, shuningdek “Avesto” bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo’ljallangan.

Mas’ul muharrir: Mirsodiq Is’hoqov,

tarix fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Aziz Qayumov,

O’zbekiston FAning akademigi,
filologiya fanlari doktori, akademik.

Hamdam Abdullayev,

Qoraqalpog’iston Respublikasi fan arbobi,
filologiya fanlari doktori, professor.

*Monografiya UrDu O’zbek filologiyasi fakul’teti ilmiy kengashining 2002 - yil
30 – avgust №1 bayonnomasi bilan nashrga tavsiya qilingan.*

ISBN 978-9910-9446-0-4

©M. Eshmurodov, ““Avesto” da tabiat kul’tlari talqini”.

© Ogahiy nashriyoti, 2024 yil.

Vatanimiz hududida juda qadim zamonlarda yuzaga kelgan yuksak madaniyatning shakllanishi va taraqqiy etishida ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilgan ulugʻvor maʼnaviy qadriyatlar muhim rol oʻynaydi. Bobolarimiz hayotining barcha qatlamlarini qamrovchi bu eʼtiqod va tasavvurlar zamirida ezgulikni ulugʻlash, bunyodkorlik va yaratuvchanlik gʻoyasi yotadi. Binobarin, vujudga kelgan zardushtiyluk dinining mohiyati ham tabiatni eʼzozlash insonni maʼnaviy yuksak, ruhan pok boʻlishga undashdan iborat boʻlgan. “Avesto” – ana shu dinga eʼtiqod qilgan ajdodlarimizning turmush tarzi, dunyoqarashi, maʼnaviy va ruhiy olamiga doir maʼlumotlarni oʻzida mujassamlashtirgan buyuk qadriyatdir.

Yurtimiz istiqlolni qoʻlga kiritgach, xalqimiz ajdodlar tomonidan yaratilgan maʼnaviy qadriyatlarning barchasini oʻzining haqiqiy milliy boyligi sifatida keng targʻib va tadqiq etish imkoniyatiga ega boʻldi. “Avesto”ning yurtga qaytishi ham ana shu milliy istiqlol bergan ulugʻvor neʼmatlardan biri hisoblanadi. Bu moʻtabar manbaga bugungi kun-da alohida eʼtibor berilayotgani bejiz emas. Chunki bu yozma obida insoniyatni tabiatni ardoqlashga, yerga va uning barcha neʼmatlariga oqilona munosabatda boʻlishga oʻrgatadi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov yozganlaridek, “Maʼnaviy-ruhiy tiklanish insonning yerga va uning boyliklariga boʻlgan munosabatini ham oʻz ichiga oladi. Sivilizatsiya belgilarini asrab-avaylash qanchalik zarur boʻlsa, qishloq xoʻjaligi ming yillar mobaynida

butunlay sug'oriladigan dehqonchilikka asoslangan mintaqada yer va suvni asrab-avaylash ham shunchalik muhimdir. Yer, havo, suv va olov (quyosh) Markaziy Osiyoda qadimdan e'zozlab kelingan, ajdodlarimizning zardushtiylikdan tortib to islomgacha bo'lgan barcha dinlari tomonidan munosib qadrlab kelingan".¹

Zero "Avesto" mifologiyasida tabiat bilan bog'liq kul't asotirlari asosiy o'rinni egallaydi. Unda suv, olov, tuproq, o'simlik, jonivor va osmonni yoritqichlarini timsollashtirishga asoslangan tabiat kul'tlariga sig'inishga aloqador mifologik tasavvurlarning eng qadimiy ko'rinishlari o'z ifodasini topgan. Bu tasavvurlarning zamiri aslida O'rta Osiyo bo'lib, bu hududda yashagan qadimgi dehqonlarning mifologiyasida tabiatga sig'inish yetakchilik qilgan. Shuning uchun ham "odamlarni, daryolarning musaffoligi va tuproq unumdorligi haqida g'amxo'rlik qilishga da'vat etgan zardushtiylik aynan bizning zaminimizda vujudga kelgan-ligi tasodifiy emas".²

Bu esa "Avesto" mifologiyasini chuqur tadqiq etish orqali ajdodlarimizning tabiatni e'zozlash bilan aloqador qadimiy tasavvurlari mohiyatini ochib berish zarurligini taqozo etadi.

Tabiatni mifologik anglashga asoslangan qadimgi tasavvurlarning "Avesto"dagi talqinlarini monografik tadqiq etish yer, suv, olov va tabiat hodisalarini ulug'lashga

¹Karimov I.A. *O'zbekiston buyuk kelajak sari*. – Toshkent: O'zbekiston, 1998, 530-531-betlar.

²Yuqorida ko'rsatilgan manba, 531-bet.

qaratilgan milliy qadriyatlarimizning negizini belgilash ehtiyoji bugungi kunda ham dolzarbdir.

“Avesto”ning kitobat etilishi, tarjima qilinishi va tadqiqi bilan bog‘liq jarayonlar uzoq tarixga ega. Dastlab “Avesto” matnlari yig‘ilib maxsus kitobat qilingan bo‘lsa, Valaxsh davrida u qayta tiklandi. Ardasher zamonida “Avesto” matnini tiklash, til holatining aslini saqlash yo‘lida jiddiy izlanishlar amalga oshirildi. “Avesto”ning qadimiy fonetik xususiyatlarini aks ettiruvchi harf tovush alifbosi yaratildi. Bu ishlar o‘z-o‘zidan yuzaga kelmagan. Jiddiy tadqiqotlarni olib boruvchi maxsus olimlar (mo‘baddar, mo‘bade, mo‘badonlar) va ularning maktablari tashkil topdi. Natijada VI asr o‘rtalarida “Avesto”ning yangi varianti tugal shakllandi.

“Avesto”ni oddiy dindor jamoalari tushunishi uchun pahlaviy (o‘rta fors) tilidagi tarjimasi tasviriy yo‘lida tahlil etilgan asarlar yaratildi. U “Zend Avesto” deb yuritila boshlandi. Shu bilan bir qatorda zardushtiylikning axloqiy-falsafiy adabiyoti va bunga tegishli bir qancha asarlar paydo bo‘ldi. Bularning nashrlari va talqiniy tadqiqotlari fanda alohida yo‘nalishni tashkil etadi.¹

Milodiy IX asrda esa zardushtiylik dini haqidagi barcha ma‘lumotlarni birlashtiruvchi “Denkard” kitobi yozildi. Bu kitob zardushtiylik tarixini, din rasmiyat-chiligining barcha sohalarini qamrab olgan.

¹ «Дотестони мэноги хирад», «Бундахшин», «Затспрам», «Шайаст-нашойаст» va boshqalar. Qarang: «Зороастрийская литература». О.М.Чумакова nashrga tayyorlagan. М.,1997.

“Avesto”ni tadqiq qilish g’arbda XVIII asrdan e’tiboran boshlangan bo’lib, hozirga qadar asosan A.Dyupperon, Xr.Bartolome, F.Vol’f, G.Rayxel’t, G.Lommel’, E.Benvenist, J.Dyushen-Gyuyimen, X.Nyuberg, E.Rask, I.G.Rod, G.Ritter, G.Xoffman va M.Boys kabi yevropalik olimlarning e’tiborli izlanishlarida o’z mujassamini topadi. Ayniqsa, ingliz olimasi M.Boysning zardushtiylik va uning muqaddas kitobi “Avesto”ga bag’ishlangan qator tadqiqotlari¹ bu yirik ma’naviy yodgorlikning mohiyatini oydinlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rus avestoshunoslari ham bu asarni tarjima qilish va o’rganishga bag’ishlangan qator ishlarni amalga oshirdilar. Jumladan, V.V.Struve, Ye.E.Bertel’s, V.Abaev, K.V.Trever, I.M.D’yakov, I.S.Braginskiy, A.O.Makovel’skiy, I.M.Steblin-Kamenskiy, I.V.Rak kabi olimlarning tadqiqot va tarjimalari²“Avesto” mifologiyasini atroflicha o’rganishda muhim nazariy asos vasifasini bajara oladi.

O’zbekistonda “Avesto”ning o’rganilishi haqida so’z yuritganda avvalo N.Mallayev, A.P.Qayumov va

¹ Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи. – М.; Наука, 1987.

² Струве В.В. Родина зороастризма // Материалы по истории таджиков и Таджикистана. – том I. –М.,1945; Его же. Этюды по истории Северного Причерноморья, Кавказа и Средней Азии. – Л.,1968; Бертельс Е.Э. Отрывки из «Авесты»// Восток, Л 1924; Абаев В. Скифский быт и реформы Зороастра// Архив orientali, XXIV,1. –Praha,1956; Тревер К.В. Гонимух – пастиух-царь // Труды отдела Востока (Государственного Эрмитаж).- Т.11.-Л., 1940; Дьяконов И.М. Истории Мидии.От древнейших времен до конца IV века до н.э.- Л.,1956; Его же. Очерк истории древнего Ирана. –М., 1961; Брагинский И.С. Из истории таджикской народной поэзии. Элементы народного поэтического творчество в памятниках древней и средневековой письменности – М.,1956; Маковельский аковельский А.О. Авеста. Избранные гимны. Пер. С авестийского И.М. Стеблин-Каменского. – Душанбе,1990; Рах И.В.Мифы древнего и раннесредневекового Ирана.- СПб, 1998.

F.Sulaymonovlarning asarlarini¹ tilga olib o'tish lozim. Ular bu yodgorlikning yaratilish tarixi, tarkibi va mohiyati haqida qiziqarli mulohazalarni bayon etishgan.

Keyinchalik H.Homidov, M.Is'hoqov, M.Umarzoda, A.Irisov, T.Maxmudovlarning "Avesto"ga doir bir qator maqolalari chop etildi.²

"Avesto"ning o'zbek folklori, xususan, o'zbek xalq tomosha san'ati rivojidadagi o'rni masalasi san'atshunos M.Qodirov tomonidan tadqiq etilgan. U xalq raqslari va an'anaviy tomoshalarining zardushtiylik bilan bog'liq jihatlarini o'rgangan.³ Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ham ko'rinib turibdiki, "Avesto"dagi mifologik qatlamning o'ziga xos xususiyatlari, asosiy syujetlari, obrazlar tarkibi va unda tabiat kul'plarining aks etishi kabi masalalar hozir ham katta qiziqish uyg'otmoqda. Ushbu tadqiqotimiz shu sohadagi izlanishimiz samarasidir.

"AVESTO" MIFOLOGIYASI TIZIMIDA TABIAT KUL'PLARINING O'RNI. QUYOSH KUL'TI

¹Mallayev N. *XII asrlar o'zbek adabiyoti*.- Toshkent, 1958; o'sha muallif. *O'zbek adabiyoti tarixi*.- Toshkent, 1967.-B.67-76; Qayumov A.P. "*Qadimgi yozma yodgorliklar*".- Toshkent, 2000.- B.4-32; Beruniy "*Avesto*" haqida \ Beruniy va ijtimoiy fanlar.- Toshkent: Fan, 1973. – 81-85; Sulaymonova F. *Sharq va g'arb*.-Toshkent, O'zbekiston,1991.

²H.Homidov. "*Avesto*" fayzlari. *Xalq merosi nashriyoti*, 2001. Is'hoqov M.Sulaymonov *Zaratushtraning vatani va yashagan davriga oid mulohazalar*// *O'zbekiston tarixi*, 1999. 1-son,- B. 45-54; Umarzoda M. "*Avesto*" sirlari // *Jahon adabiyoti*, 1997. 4-son, -B. 195-202; Irisov A. "*Avesto*" kitobi// *San'at*, 1991. 3-son, -B. 6-7; Mahmudov T. "*Avesto*" haqida. –Toshkent: Sharq, 1999.

³Qodirov M. "*Tomosha san'ati o'tmishidan lavhalar*". –Toshkent: Fan, 1993. – B. 19-105. Bu haqda yana qarang. Qodirov M. *Zardushtiylik va tomosha san'ati* // *Guliston*, 2000. 4-son, - B. 36-37.

Qadimgi davrlarda yashagan odamlar tabiat hodisalari, osmon jismlari va ularning harakati haqida turli-tuman mifologik tasavvurlarni yaratganlar. Chunki ularning turmush tarzi tabiat bilan bevosita bog'liq bo'lganligi sababli ro'y beradigan har bir tabiiy hodisaga alohida e'tibor berishgan. Yomg'irning ko'p yog'ishi hosildorlikni oshiradi va yaylovlarda o't-o'lanlarning mo'l bo'lishini ta'minlaydi. Qurg'oqchilik esa zamindagi barcha mavjudotlaru o'simlik dunyosiga ofat keltiradi deb o'ylagan qadimgi odamlar bunday tabiiy hodisalarni o'ziga bo'ysundiruvchi g'ayritabiiy kuchlar borligiga ishonishgan. Tabiat hodisalari, shuningdek, quyosh, oy, yulduzlarni muqaddaslashtirib tasavvur qilish an'anasi esa keyinchalik qadimgi mifologiyada tabiat kul'tlarining yuzaga kelishiga zamin yaratgan.

Yaqin sharqda yashagan qadimgi xalqlarning miflarini tasnif qilgan S.G.Xukning fikricha, turli marosimlar va rituallarda ifodalangan mifologik qarashlar kul't miflarining asosini tashkil etgan.¹

Qadimgi odamning tabiatdagi narsa va hodisalarni jonlantirib tasavvur qilishi, har bir narsa, o'simlik va jonivorlarning homiysi yoki ruhi bo'ladi deb o'ylashi kul'tlar bilan bog'liq dastlabki tasavvurlarni keltirib chiqargan. O'rta Osiyoda yashagan qadimgi ajdodlarimiz dunyoqarashida tabiat kul'tining suv, olov, tuproq, o'simlik va jonivorlar bilan aloqador mifologik tasavvurlardan

¹ Хук С.Г. Мифология Ближнего Востока. – М: Наука, 1991, с 6-7

iborat ko‘rinishlar, shuningdek, baraka hamda mo‘l hosil g‘oyasi muhim o‘rin tutgan. Shu bilan bir qatorda samo yoritqichlari: quyosh, oy va yulduzlar to‘g‘risidagi mifik tasavvurlar ham mavjud bo‘lgan.

Dunyo xalqlarining eng qadimgi mifologik tasavvurlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ibtidoiy odamlar osmon yoritqichlarini turli ma‘bud va ilohlar sifatida tasavvur qilishgan. Natijada samo jismlarining antroporf qiyofa kasb etgan ya‘ni odam ko‘rinishida tasvirlangan obrazlari yaratilgan. Bunday asotirlar folklorshunoslikda “astral miflar” deb yuritiladi. Bunday miflar muayyan hayotiy asoslarga ham ega. Chunki qadimgi odamning turmush tarzi bevosita osmon yoritqichlarining harakatini uzluksiz kuzatish natijasida yig‘ilgan ko‘p yillik hayotiy tajribalar asosida qurilgan, quyoshning charaqlab nur sochishi zaminga issiqlik, yorug‘lik baxsh etgan. Shuning uchun bu osmon yoritgichi yerdagi hayotning boqiyiligini ta‘minlab turadigan qudratli ma‘bud sifatida tasavvur qilingan. A.N.Afanasyevning fikricha, quyoshni mifik personaj sifatida talqin qilish an‘anasi bu yoritqich kul’tini keltirib chiqargan.¹

Agrar bayramlar genezisini o‘rgangan V.I.Chicherov qadimgi dehqonning xo‘jalik yuritish bilan bog‘liq an‘analari asosida quyosh kul’ti kelib chiqqan deb hisoblaydi.²

¹Афанасьев А.Н. Поэтические воззрения славян на природу. Т. I.-М., 1865, С.117,565

² Чичеров В.И. Зимний период русского земледельческого календаря XIX-XX вв. – М.,Наука,1957,С.65

Taniqli etnograf J.Frezerning fikricha, quyosh kul'tining asosida qadimgi odamlarning sig'inish udumlari yotadi. Olovning poklash xususiyatiga ega deb qaralishi esa quyoshning muqaddaslashtirilishiga sabab bo'lgan.¹

Ana shu nazariy qarash o'zbek olimlari tomonidan ham tan olingan. Xususan, U.Jumanazarovning yozishicha "qaysi xalq olovga sig'ingan bo'lsa, o'sha xalq quyoshga ham sig'ingan."²

Etnograf T.Javliev ham xalqimiz orasida keng tarqalgan udumlardan biri – olov yoqib, uning ustidan sakrash odati aslida quyoshni muqaddas deb bilishdan kelib chiqqanligini taxmin qiladi.³

Quyosh kul'tining olovga sig'inish bilan aloqadorligi haqidagi qarashning tarafdorlaridan yana biri etnograf E.B.Taylorning yozishicha, "dengiz suv kul'tida nechog'lik muhim ahamiyat kasb etsa, quyosh hamo'tparastlikda shunchalik katta o'rin tutadi. U quyoshni olovga sig'inuvchilarning "buyuk individual fetishi" deb hisoblaydi.⁴

Qadimgi Xitoy mifologiyasidagi quyosh qul'tlariga oid asotirlarni tahlil qilgan E.M.Yanshina "o'tmishda yashagan odamlar tabiatni kuzatish asosida to'plagan ilk tajribalarga suyanib turib quyoshning aylanma harakati kun va tun almashinishiga sabab bo'lishini aniqlaganlar. Qadimgi

¹ Фрезер Дж. Золотая ветвь. – М: Политиздат.1990,С.712.

² Жуманазаров У. Тарих, афсона ва дин. –Тошкент: Ўзбекистон,1990.34-бет.

³ Жавлиев Т. Табиат, инсон ва дин.-Тошкент: Фан, 1986,21-22 бетлар.

⁴ Тайлор Э.Б. Первобытная культура. -М:Политиздат, 1989,С.411.

odam kunduzgi yoritqichning izchil harakatiga monand ramziy rituallarni yaratgan, ya'ni ertalab quyosh chiqayotganda va kechasi botayotgan paytda turli xil ramziy harakatlardan iborat marosim amallarini bajargan. Bunday rituallar chog'ida bajarilgan ramziy amallar bevosita tabiatga, ya'ni quyoshga qaratilgan",¹ deb yozadi.

Olimaning quyosh kul'ti asosida bu yoritqichni mifologik personaj sifatida e'tirof etish bilan bog'liq qadimgi rituallar yotadi degan fikrni tabiat kul'tlari to'g'risidagi miflar genezisini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Quyosh kul'tining kalendar marosimlaridagi izlarini o'rgangan Yu.V.Ivanovning quyidagi fikrlari ham muhimdir: "Bizning fikrimizcha, quyosh kul'ti ham, olov kul'ti ham kompleks va ko'p funksiyali hodisalardir. U yoki bu kul'tning zamiriga asos bo'lgan faktorlarni ham kompleks tadqiq etish lozim. Chunki mazkur kul'tlar sinkretik tabiatga ega bo'lib, unda turli xil e'tiqod va ishonchlar birlashib ketgan. Bu kul'tlar bilan bog'liq kalendar marosimlarining shakllanishida tabiatda kun, oy, yil fasllarining uzluksiz almashib turishi, hayot va o'lim haqidagi qarashlari muhim rol o'ynagan, albatta. Ammo bu faktorlar orasida insoniyat jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlariga xos bo'lgan xususiyat – olamni estetik

¹ Янишина Э.М. Формирование и развитие древнокитайской мифологии.- М: Наука,1984,С.106.

anglash, ya'ni kechinmalarni estetik ifoda etishga intilish an'anasi alohida o'rin tutadi".²

Haqiqatdan ham, quyosh kul'ti bilan olovga sig'inish udumlari o'rtasida bevosita aloqadorlik mavjud. Ya'ni ularning har ikkalasida ham nur, yorug'lik va issiqlikning hayotbaxsh qudratiga ishonish asosida kelib chiqqan tasavvurlar mujassamlashgan. Qadimgi odam quyoshni zulmat, sovuqlik va kaos timsoli bo'lgan zimistoniy olam yer ostidagi yovuz kuchlarga qarshi kurashuvchi ezgulik ramzi deb bilgan. Qadimgi miflarda quyosh ezgulik farovonlik baxsh etuvchi ma'bud sifatida zulmat qa'ridagi yovuz kuchlarning faollashuviga yo'l qo'ymaydigan mifologik qahramon sifatida tasavvur qilingan. Ular quyoshni yorug'lik, yoz va kunduzning ramzi, ya'ni ezgulikning mifologik ifodasi deb hisoblaganlar. Tun, zulmat va qish esa yovuz kuchlarning atributi deb qaralgan. Kechasi yonib turadigan olov odamlarni zulmat qa'rini o'ziga makon qilgan mifologik yovuz kuchlar xurujidan asraydi deb o'ylagan ajdodlarimiz olovni yerdagi quyoshning ko'rinishi deb bilishgan. Quyosh va olov qul'tlari o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, dehqonchilik madaniyatining rivojlanishi va tabiatni mifologik idrok etish an'anasining rivojlanishi natijasida O'rta Osiyoda yuzaga kelgan.

² Иванова Ю.В. Следы сольярского культа // Календарные обычаи и обряды в странах зарубежных Европы. –М,1983,С.133.

Agar olov kul'tining izlari zardushtiylik odatlarida yaqqol aks etganligini hisobga oladigan bo'lsak, olov va quyoshni muqaddaslashtirish an'anasining ildizlari bevosita O'rta Osiyo mifologiyasi bilan bog'liqligi yanada oydinlashadi. "Avesto"ning yirik tadqiqotchilaridan biri I.S.Braginskiyning "O'rta Osiyoda quyoshga topinish an'anasi qadimgi zardushtiylik bilan bog'liq bo'lgan" degan mulohazasi¹ ham yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlaydi.

Bizningcha ham O'rta Osiyo xalqlari orasida quyosh kul'tining yuzaga kelishi va keng yoyilishi bevosita zardushtiylikdagi astral miflar talqini bilan bog'liqdir.

Tarixiy-adabiy manbalardagi ma'lumotlar ham ajdodlarimiz dunyoqarashida quyoshga sig'inish an'anasi muhim rol o'ynaganligini ko'rsatadi. Xususan, Strabonning yozishicha, "Massagetlar quyoshni tangri deb bilganlar va uning sharafiga otlarni qurbonlik qilganlar".² Chunki qadimgi ajdodlarimizning mifologik tasavvurlariga ko'ra, quyosh har kuni ertalab afsonaviy tulporlar qo'shilgan oltin aravada osmonga ko'tariladi. Ot butun olamni o'zining yorug'ligi va issiqligi bilan bahramand etib turuvchi bu ulkan yoritqichning mifologik atributi sifatida tasavvur qilinganligi sababli massagetlar bu yoritqich haqiga qurbonlik marosimini o'tkazishganda otlarni tuhfa qilishgan.

¹ Брагинский И.С. Из истории персидской и таджикской литературы. –М: Наука, 1972, С.90.

² Древние авторы о Средней Азии. – М., 1940, С.22.

Massagetlarda samo yoritgichlari, xususan, quyosh muqaddaslashtirilganligini isbotlaydigan yana bir dalil Gerodotning To'maris haqidagi hikoyasida uchraydi. Muarrixning qayd qilishicha, To'maris o'g'lini sog'-salomat qaytarib yuborishini Kirdan talab qilar ekan, mabodo uning bu talabi bajarilmagudek bo'lsa, zolim qonxo'rning dodini berajagini aytib, massagetlar xudosi quyosh nomi bilan qasam ichadi.¹

Massagetlar quyoshga sig'inganligini Geredot ham tasdiqlaydi: "Massagetlar xudolardan faqat quyoshga e'tiqod qiladilar va unga otlarni qurbonlik qiladilar. Bu qurbonlikning ma'nosi shundan iboratki, xudolar ichida eng tezkori bo'lgan bu tangriga eng uchqur jonivorni hadya etish lozim deb biladilar"².

Qadimgi turkiylar ham oy, yulduzlar bilan bir qatorda quyoshga ham sig'inganlar. Xitoy manbalaridagi turkiylar tarixiga doir ma'lumotlarni to'plab, rus tiliga tarjima qilgan N.Ya.Bichurinning keltirishicha, xunlar har yili beshinchi oyning avvalida Lun – chen degan joyda to'planib, osmon va zaminga, ajdodlar ruhi xotirasiga qurbonlik marosimini o'tkazganlar. Ularning sardori har tong uyidan chiqib, quyoshga, kechasi esa oyga ta'zim qilib, bu yoritqichlar timsolida mujassamlashgan deb tasavvur qilinuvchi osmoniy tangrilarga o'z ehtiromini bildirgan.

¹ Древние авторы о Средней Азии. – М., 1940, С.32.

² O'sha manba, 143-bet.

N.Ya.Bichurin quyosh, oy, yulduz, ajdodlar ruhi sharafiga qurbonlik qilish odati o'sha davrlarda keng yoyilganligini alohida qayd qilgan. Qadimgi turkiylar quyosh haqiga qo'y yoki buqalarni qurbonlik qilganlar. Marosim tugagach, qurbonlikka so'yilgan jonivorlar yoqib yuborilgan.¹

“Hudud al-olam”da yozilishicha, turkiy qavmlardan bo'lgan chigillar ham quyosh va yulduzlarga topinganlar.² “Ajoyib ul-buldon”da esa tatar deb ataluvchi turkiy qavm a'zolari hech qanday ruhlarga sig'inmasdan, faqat quyoshga sajda qilishlari ma'lumot keltirilgan.³

Uy qurganda eshikni kunchiqarga qaratib ochish odati Xorazmning ayrim qishloqlarida hozir ham saqlangan. Keksalarning aytishlaricha, har kun erta tongda uydan chiqqan yuzi quyosh nurlariga tushsa, Olloh uning rizq-ro'ziga baraka ato etar emish. Hatto ilgarilari eshiksoz ustalar darvoza, daricha yoki eshik yasaganda unga quyosh shaklidagi belgini tushirishganligi ham ma'lum. Bu an'ananing ildizlari ham quyoshga sig'inish odati keng tarqalgan davrlardagi udumlarga bog'lanadi.

L.I.Rempelning yozishicha, “doira, romb va qo'shuv alomati (krest) quyoshning jahon xalqlari an'anaviy san'atida ommalashgan eng qadimiy timsoli hisoblanadi. O'rta Osiyoda ham bu timsollar qadimdan mavjud bo'lib,

¹ Бичурин Н.Н. Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. I. – М., 1958, С. 49, 50, 144.

² Материалы по истории киргизов и Киргизии. – М., 1973, вып. I. – С. 43.

³ Ko'rsatilgan manba, 170- bet.

ko‘pincha shamsiy va astral belgilarining boshqa xil turlari bilan birgalikda qo‘llanilib kelingan”¹

Demak, qadimgi O‘rta Osiyoda dehqonchilik qilish an‘analari juda Qadim zamonlarda shakllanganligi; quyosh o‘zining tabiiy harorati va yorug‘ligi bilan yer yuzidagi hayotning mavjudligini ta‘minlaganligi; bu yoritqich mifologik personaj-ma‘bud sifatida tasavvur qilinganligi; hosildorlik va olov kul‘tlarining quyoshni mo‘tabarlashtirish an‘analari bilan bevosita bog‘langanligi; osmon jismlari harakatiga asoslangan kalendarlarning yaratilganligi; quyoshni – osmoniy olov, o‘tni esa anashu samoviy timsolning yerdagi ifodasi, ya‘ni zamindagi olov deb tasavvur qilinganligi; osmon jismlarini mifologik personajlar sifatida tasavvur qilishga asoslangan kosmogonik miflarning kelib chiqqanligi quyosh kul‘tining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. O‘rta Osiyoning qadimiy dehqonchilik an‘analari keng rivoj topgan hududlarida shakllangan quyosh kul‘ti mifologik talqinlari zardushtiylikda ham o‘z ifodasini topgan.

Quyosh kul‘ti zardushtiylik bilan bog‘liq mifologik tasavvurlar sistemasida katta mavqelardan birini egallaganligini bu samoviy timsolga bag‘ishlangan maxus “Yasht”ning mavjudligi ham tasdiqlaydi. Olimlar orasida bu yashtning yaratilish tarixi va “Avesto”ga kiritilishi masalasida turli xil qarashlar mavjud.

¹ Ремпель Л.И. *Цель время. Вековые образы и бродячие сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии. –Тошкент, 1987, С.13.*

Masalan, quyoshga bag'ishlangan bu yashtni o'zbek tiliga tarjima qilib, "San'at" jurnalida chop ettirgan Asqar Mahkamning fikricha, "Bu qisqa yasht, aftidan, keyingi davrlarda kohinlar tomonidan o'lik tilda yaratilgan va asosiy manbaga kiritilgan. Ehtimol, kohinlar quyoshga bag'ishlangan alohida shunday yasht bo'lishini lozim bilganlar. Matn har jihatdan sun'iydir va bu sun'iy matnlar "Avesto"da oz emas".¹

Bizningcha, bu fikr unchalik to'g'ri emas. Chunki quyosh kul'ti keng yozilgan davrlarda bu osmon yoritqichiga bag'ishlangan maxsus alqov va duolar mavjud bo'lgan. Dunyoni nurga ko'mib, ezgulik va hayot baxsh etuvchi bu yoritqich erta tongda chiqishi, shuningdek botishi paytida maxsus alqovlarni ijro etish an'anaga aylangan.

Quyosh chiqqanda va botganda maxsus alqov so'zlarini aytish an'anasi mavjud bo'lganligini isbotlaydigan dalillardan biri samoviy yoritqichlarga bag'ishlangan magik aytm namunalari bugungi kunda ham saqlanganligidir. Masalan, yangi oy chiqqanida fотиha o'qish, oy yoki quyosh tutilganida turli aytimlarni aytib, temirashyolarni taqillatish ana shu an'ananing bevosita davomi hisoblanadi. Shunga ko'ra, zardushtiylik aqidalari kengyoyilgan davrlarda quyosh kul'tiga ishonish an'anasi mavjud bo'lgan ekan, bu samoviy yoritqichni ulug'lovchi olqishlar, quyosh chiqishi va botishini sharaflovchi alqovlar

¹ *Авесто. Сан'ат, 1991, 6-сон, 18-бет. (А.Маҳкам таржимаси).*

ham ijro etilganligi tabiiydir. Quyosh kul'ti bilan bog'liq shamsiy miqlar asosida kelib chiqqan ana shu qadimiy alqovlar bir joyga jamlanishi "Avesto"dagi oltinchi yasht – "Xurshed yasht"ning yaratilishiga asos bo'lgan deb o'ylaymiz.

Avestoshunosolim M.Is'haqovning yozishicha, "quyosh borliq hayotning bosh manbai, inson shuurini ilohdan olgan qudrati va jonbaxsh tarovati bilan shoshirgan hayrat ichra anglab yetilmagan moddiylikdan onglarda ilohiy darajaga ko'tarilgan, so'ngra asotiriy tafakkur kengliklari va badiiyati ko'zgusi orqali idrok etilib, muqaddas siymo kabi e'zozlangan. Quyosh sha'niga "Avesto" kitobida kelgan suyuk alqovi "Xurshed yasht" deb nomlangan. Ko'p asrlar osha ajdodlardan xalqimizga meros bo'lib yetib kelgan 21 yashtdan eng ixchami, badiiy jihatdan go'zallaridan biri ham shudir. Quyoshga bag'ishlangan marosimlarda baralla ovoz bilan kuylab, tilovat qilingan. Uning savobi g'oyat ulug' hisoblangan. Chunki bu alqov Ochun oftobiga xush yoqib, undan Yer-u ko'k, nabototu hayvonot bahravar bo'ladi".¹

Bu yashtdagi alqovlarni aytishdan avval ezgulik timsoli hisoblangan Axuramazdani sharafllovchi an'anaviy olqish so'zlarini tilovat qilishi shart bo'lgan. Chunki Axuramazdani ulug'lash va uning ezgu ishlarini sharaflamoq bilan boshlangan har bir ish xayrli bo'ladi deb tasavvur qilishgan. Kohin ezgu o'y, ezgu so'z va ezgu amal

¹ *Авесто. Хуршед Яшт // Ўзбек тили ва адабиёти; 1999, 5-сон, 72-бет.*

bilan ezgu o‘y, ezgu so‘z va ezgu ishlarni sharaflagan. Zardushtiylik falsafasida ezgulikning buyuk qudrati olamdagi hayotning manguligini ta‘minlab turuvchi eng oliy kuch deb bilingan.

Quyosh bu yashtda uchqur otlar sohibi sifatida ta‘riflanib, bezavol nur sohib turuvchi hayot manbai ekanligi, bu o‘lmas yolqinga topinish unga yanada qudrat bag‘ishlashi aytiladi:

*Otlari uchqur kimdur-
Biz shunga topinurmiz
Ul quyosh –o‘lmas Yolqin,
Biz unga topinurmiz¹.*

Mazkur yashtning bir necha o‘rinlarida quyoshning samoviy atributi sifatida ot obrazi tasvirlangan. Bu afsonaviy otlar uchqur, tezkor bo‘lib, quyoshning osmon kengliklaridagi harakatida hamroh bo‘lishadi deb tasavvur qilingan. “Avesto” mifologiyasida quyosh samoviy otlar qo‘shilgan aravada osmon gumbazini aylanib chiqishi haqidagi miflar mavjud bo‘lgan. Umuman, dunyo xalqlari folklorining qadimiy qatlamida quyosh kul‘tining zoomorf

ko‘rinishlari haqidagi afsonalar keng tarqalgan. Quyosh ko‘pincha ot obrazi bilan bevosita bog‘liq ravishda tasvirlangan.

Ajdodlarimizning quyosh sharafiga bag‘ishlab o‘tkazgan qurbonlik marosimida ham ot kul‘tining ritual funksiyasiga alohida e‘tibor berilganligining zamini

¹*Avesto. Yait kitobi // M. Isoxov tarjimasasi.- Toshkent: “Sharq”, 2001. 36-bet.*

bevosita “Avesto” miflari talqiniga borib taqaladi. Gerodot o‘z asarida massagetlarda quyoshga bag‘ishlangan marosimida otlar so‘yilganligi haqida ma‘lumot berar ekan, bu udumning asosida otning tabiiy xususiyati, ya‘ni tez yugurishning quyoshning tezkorligiga mengzash asosida kelib chiqqan ibtidoiy tasavvurlar yotishiga ishora qilib o‘tganligini yuqorida aytib o‘tgan edik.

Otni samo bilan aloqador mifologik qahramonlarning doimiy atributi sifatida tasvirlash O‘rta Osiyo turkiy xalqlari folklorining mushtarak an‘analaridan biriga aylangan. Bu an‘ananing tarixiy zamini “Avesto” mifologiyasiga borib taqaladi. Bu haqda folklorshunos olim H.Zarifov shunday yozadi: “Avesto”da koinotni kezib Axuramazdaga xizmat qiluvchi muakkillariga bag‘ishlangan qishloqlarda muakkilning ot obrazida tasvirlanishi uning oq, ko‘k ot bo‘lishi ayni zamonda shu mifik obrazning ko‘l suvi bilan bog‘lanishi diqqatni jalb etadi.¹

“Avesto” mifologiyasida ham samoviy timsollarni tasvirlashda ot obraziga alohida e‘tibor berilganligi uchun quyosh uchqur otlar sohibi deb ta‘riflangan.

Quyosh kul‘ti mifologiyasi bo‘yicha, erta tongda quyosh chiqishi bilan ma‘budlar ikki olam ahliga ezgulik ulashganlar. Shu bois tong yorishib quyosh chiqishini ajdodlarimiz zo‘r xursandchilik bilan kutib olar ekan

¹ X.Зарифов. Ўзбек халқ дostonларининг тарихий асослари бўйича текиширишлар. Жанговар от образининг қадимий асосларига оид // Тошкент: 1976, 79-бет.

maxsus alqovlarni tilovat qilishgan. “Xurshed yasht” da ana shu mifologik e’tiqodning izlari yaqqol aks etgan.

*Chunki quyosh yoritganda,
Iliqlik taratganda.
Yuz minglab qator-qator,
Turfa saf-saf xudolar
Baxt ulashib hammaga,
Omad bag’ishlab elga,
Baror tilab ulusga,
Haqiqatga balog’at,
Ochunga gul obodlik,
Mazdaning yaratgani
Yerda bo’lsin farog’at ¹.*

Fikrimizcha, qadimgi kohinlar har kuni erta tongda quyosh chiqishini maxsus alqovlarni tilovat qilish bilan qarshilaganlar. Chunki xuddi o’sha damda ma’budlar zaminga farovonlik, olam ahliga baxt-u omad baxsh etadilar deb qaralgan. Bu mifologik tasavvurlar bugungi kunda ham uchraydi: xalqimiz orasida ertalab quyosh chiqmasdan uyg’ongan kishining ishi baroridan keladi, quyosh chiqqan paytda uxlab yotgan odamlarni farishtalar o’liklar ro’yxatiga yozib ketishadi, quyosh chiqqandan keyin uyg’ongan kishilar o’sha kungi mo’l-ko’l rizqidan quruq qolishadi, deydilar. Qadimgi turkiylarning erta tongda uydan chiqib, quyoshga ta’zim qilishi ham oftob chiqqan

¹ *Авесто. Яшт китоби // М.Исхоқов таржумаси. –Тошкент: “Шарқ”, 2001. 36-бет.*

paytda ezgulik ulashishi haqidagi mifologik tasavvurlar bilan bog'liq holda kelib chiqqan odatdir.

O'rta Osiyo xalqlarining quyoshni muqaddas bilib sig'inishiga bevosita aloqador bo'lgan bir odat - ertalab quyosh chiqqan paytda unga ta'zim qilish, quyosh nomi bilan qasam ichish odatlari mavjudligi ham "Avesto" dagi quyosh kul'ti inonchlariga bog'lanadi. Pomir tog'ining etaklarida yashovchi xalqlar orasida quyoshni muqaddaslashtirish odati mavjudligini qayd qilgan M.S.Andreyev va A.A.Polovtsevlar quyidagilarni yozishgan edi: "quyoshni buyuk deb ulug'laydilar. Uning nomi bilan qasam ichadilar. Quyoshni shafe keltirib ichilgan qasamning kuchi o'tkir hisoblangan va odamlar bunday qasamni buzgan kishi quyoshning qarg'ishiga qoladi deb ishonishgan"¹.

Quyosh kul'ti bilan bog'liq bu odatni Pomir tog'i etaklaridagi Andarob qishlog'ida kuzatgan etnograf I.Muhiddinovning yozishicha bir xotin erta tongda kun chiqayotgan paytda quyosh nomi bilan qasam ichib o'zining begunohligini isbotlagan. Andarobliklar e'tiqodicha, yakshanba kuni quyosh chiqqan mahal eng xosiyatli dam hisoblangan. Xuddi o'sha paytda har qanday ezgu ishni – ekin ekish, safarga chiqish, nikoh o'qitish, biror narsa xarid qilish, biror kishidan yordam so'rash xayrli deb hisoblaganlar. Chunki yakshanba kuni quyosh chiqayotgan

¹*М.С. Андреев, А.А. Половцев. Материалы по этнографии иранских племен Средней Азии. // Сб. Музея антропологии и этнографии, Т.IX. –М, 1911, С.35.*

paytda ish boshlagan kishining omadi yurishar ekan. I.Muhiddinov Pomir oldi qishloqlarida yashovchi aholi lahjasida “quyosh” ma’nosida qo’llaniladigan “Remo’zd” atamasi aslida zardushtiylikdagi ezgulik timsoli Axuramazdaning nomi bilan aloqador deb hisoblaydi¹.

Quyosh nomi bilan qasamyod qilish udumining kelib chiqishi ham bu samoviy yoritqich kul’ti, aniqrog’i ertalab kun chiqishi holatining muqaddaslashtirishi an’anasiga bilan aloqadordir. Zero, M.S.Andreyev va A.A Polovtsevlar ham pomirliklarning bu udumini To’marisning quyosh nomi bilan qasam ichishi haqidagi tarixiy ma’lumotga qiyoslab tahlil qilishgan va bu odatning kelib chiqishi kun chiqayotgan paytda ufqdan endigina ko’tarilayotgan quyoshning boshga o’xshab ko’rinishi asosida bu yoritqichni ma’bud deb tasavvur qilishi an’anasiga bog’liqligini aniqlashgan².

Quyosh chiqishi bilan aloqador bunday mifologik tasavvurlarning yuzaga kelishining hayotiy zamini mavjud. Chunki quyosh chiqishi bilan qorong’ulik zulmat bilan xarakterlanuvchi tun nihoyalanaadi. Zamindagi barcha nabotot olami-yu, jonzotlarning faol hayot kechirishi uchun zarur bo’lgan issiqlik va yorug’likning manbai quyoshdir. Quyosh isitadi, zaminga harorat baxsh etadi, o’simliklarning unib chiqishi va baravj o’sishi uchun kerakli

¹ *И. Мухиддинов. Обряды и обычаи припамирских народностей, связанные с циклом сельскохозяйственных работ // Древние обряды, верование и культы народов Сред. Азии. – М., 1986, С.72-73.*

² *М.С.Андреев, А.А.Половцев. Материалы по этнографии иранских племен Средней Азии. –М,Т.IX,С.35*

tabiiy sharoitni yaratadi. Shuning uchun kun chiqishi –
ezgulik tantanasi sifatida e’tirof etilgan.

Quyosh nafaqat zaminidagi mavjudotlar, balki ezgu
ruhlar va ma’budlar olamining bezavolligini ta’minlovchi
mifologik timsol deb tasavvur qilingan.

“Avesto” mifologiyasida tasvirlanishicha, quyosh
nurlari tarala boshlashi bilanoq yer yuzidagi barcha
“muqaddas ruhlar qalqar emish“. Bu haqda “Xurshed yasht
“ ning ikkinchi bandidagi alqovda shunday deyilgan:

Quyosh balqib chiqqanda,
Mazda bergan yer balqir,
Oqar suv balqir shunda,
Qaynar buloq suvlari.
Barcha xilqat yashnaydi,
Muqaddas ruhlar qalqar,
Quyosh chiqqan chog’ida.
Mazda bergan yer yayrar,
Muqaddas nurin emib.
Suvlar bo’lib bahravor,
(Bo’lar quyosh chiqqanda)¹

Zardushtiylik dini aqidalariga ko’ra quyosh botgach,
yovuz kuchlar ta’siri ostida qolgan zaminda Ahriman
yaratgan devlar hukmronlik qiladi. Ular borliqni g’orat
qilish payida bo’ladilar. Faqat tong otib, ularning manfur
rejasi amalga oshmay qolaveradi. Tun qorong’uligi
Ahriman yaratgan yovuz kuchlarga taalluqli bo’lganligi

¹ *Avesto. Yasht kitob // M. Isoxoqov tarjimasasi. –Toshkent: “Sharq”, 2001.36-бет.*

uchun yer yuzidagi suv havzalari ham kechasi devlar xuruji tufayli bulg'anar emish. "Xurshed yasht "da quyosh chiqishi bilan "Mazda yaratgan (oqmaydigan, dengiz va ko'l) suvlar ham yorishishi aytiladi. Bizningcha, alqovning bu bandida quyoshnurlarining poklash xususiyatiga ega deb tasavvur qilinishi haqidagi mifologik qarashlar o'z ifodasini topgan.

Kun chiqqach, zulmat qo'ynidagi yovuz kuchlar qoldirgan asoratlardan poklanib, yashnagan suvlar o'zining dastlabki muqaddaslik holatiga qaytadi. Shu bois zardushtiylikda ritual marosimlar chog'ida ishlatiladigan suvni quyosh chiqqandan keyin olishgan. Tunda olingan suv esa nopok hisoblangan. Kechasi suv yoniga bormaslik, qorong'u tushgandan keyin quduq yoki ariqdan suv olmaslik kabi ta'qiqlar xalqimiz orasida hozir ham saqlangan bo'lib, endilikda suv bilan aloqador bunday ta'qiqlar suvda yashaydi deb tasavvur qilingan parilar bilan bog'lab talqin qilinadi. Aslida ana shu ishonchlarning qadim ildizlari ham "Avesto" mifologiyasiga borib taqaladi. Chunki quyosh kul'ti bilan bog'liq miflar talqiniga ko'ra kun chiqishi bilan suv havzalari poklanib, muqaddas makonga aylanadi:

*Oqar suvlar – muqaddas,
Buloqlar ham savobdor,
Turg'un suvlar, dengizlar
Barcha xilqat muqaddas,
(quyosh balqib chiqqanda)¹*

¹ *Avesto. Yisht kitob // M. Isoxo'rov tarjimasasi. –To'shkent: "Sharq", 2001.36-bet*

“Xurshed yasht“da aytilishicha, quyosh chiqishi bilan olam yorishib, barcha mavjudotga ezgulik baxsh etiladi. Chunki oftob ham quyosh nur sochmasa Axriman yaratgan devlar xurujiga dosh berolmaydilar. Uchqun otliq quyosh nurlari devlar bag‘rini tilib, zulmatni chekinishiga majbur qila oluvchi buyuk qudrat sohibi ekanligi yashtda o‘z aksini topgan:

*Chiqmasa quyosh agar,
Devlar g‘orat qilgaylar.
Yerda barcha xilqatni
So‘ng bu yerda maloyik,
Farishtalar qo‘nolmas
(Jin tekkan ushbu yerga)
O‘zni ko‘rolmas loyiq.¹*

Zardushtiylar mifologiyasida kun va tun yorug‘lik va qorong‘ulik, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash mavzusidagi doir ma‘lumotlar ham mavjud bo‘lgan. Quyoshning chiqishi kun, yorug‘lik va ezgulikning g‘alabasini ta‘minlagan. Bu mifologik tasavvurlarning o‘zbek folkloridagi epik ko‘rinishlarini “Kun bilan tun” nomli samoviy afsonada ko‘rish mumkin. Unda aytilishicha, dunyoda bir – biridan go‘zal, abjir, dovyurak farishtalar ko‘p bo‘lar ekan. Ular yerda ham, osmonda ham yurib, odamlarga yaxshilik qilib, yomonlarga yomonlik qilishar ekan. Farishtalar xudoning qudrati bilan hatto hayvonlar ham, olov, shamol, giyohlar, yulduzlar, bo‘ron, bulut kabilarning ham tiliga tushunib, ularni ham nazorat qilib

¹O‘sha manba, 36-bet.

turishar emish. Ayniqsa, kun bilan tun tortishib turishar emish. Ular quyoshni zanjirlab osmonga chiqishiga yo'l qo'yilmas ekan. Kun zo'r kuch bilan har kuni farishtalarning zanjirini uzib chiqar emish ular xafa bo'lib, olishgani – olishgan ekan. Farishtalar qanchalik zo'rlik ko'rsatib, kunni bog'lab ushlab turishmasin, baribir u aytgan vaqtda chiqib, aytgan vaqtda uyquga ketarmish “¹

Ma'lumki, zardushtiylik mifologiyasining asosida ezgulik va yovuzlik kurashi, ya'ni dualistik tasavvurlar yotadi. Ana shu tasavvurlarga ko'ra kun bilan tunning kurashi va unda quyoshning g'olib chiqishi dualistik motivlar asosida tasvirlanadi. “Xurshed yasht” tarkibiga kirgan alqovlar orasida aslida ana shu mifik motivli bandlar ham bo'lgan va u keyinchalik unitilib yoki yoqolib ketgan bo'lishi kerak.

“Xurshed yasht” ning mifologik asoslarini aniqlashtiruvchi jihatlardan yana biri quyoshning afsonaviy homiy timsoli sifatida talqin qilinishidir. Abadiy nur manbai hisoblangan quyoshga topingan kishi har qanday sehr – jodulardan xalos bo'lishi, devlar-u makkor “zulmat bolalari” ning dodini berish qudratini namoyon eta olishi mazkur yashtda shunday bayon etiladi:

*Quyoshga kim topinsa,
Sig'insa nur – abadga,
Uchqur otliqqa namoz.
Bag'ishlasa kim agar,*

¹Asotir va rivoyatlar. To'plab, nashrga tayyorlovchilar: M.Murodov va M.Shayxova. – Toshkent:1991, 4-bet.

*Niyat qilib, zulmat-la
Beayov bag'ishlamoqqa.
Zulmat bolalari ul
Devlarni qaqshatmoqqa.
O'g'ri – kazzobga qiron
Sehru joduga – zavor,
Favtdan xalos topmoqqa
(Kim yaxshi niyat qilsa) ¹*

Quyoshga sig'inishning yana bir sharofati shunday iborat deb qaralganki, bu osmon yoritqichini muqaddas deb bilgan va uning haqiga alqov matnlarini tilovat qilgan kishiga unitilish ramzi hisoblangan Marshavan deb xuruj qilolmas ekan. "Avesto" mifologiyasiga ko'ra, Marshavan deb hujumiga duchor bo'lgan kishining ajdodlari bilan ramziy – ruhiy aloqalari uzilib, natijada u nobud bo'lib ketarkan. Quyoshga sig'inish esa odamlarni Marshavan devdan asraydi.

"Xurshed yasht"ning Asqar Mahkam tomonidan amalga oshirilgan o'zbekcha tarjimasida quyosh kul'ti bilan bog'liq bu motiv nisbatan mukammalroq ifodalanganga o'xshaydi:

*Kim bezavor bu Ziyoga-
Oftobga toat qilsa...
Xotirasiz va fikratsiz
Marshavan mahv etolmaydir,-
Ul munavvar va bezavor
Axuraga topinadir,*

¹ *Avesto. Yasht kitob // M. Isoxo'rov tarjimasida. –To'shkent: "Sharq", 2001.36-bet.*

Topinadir o'z qalbiga.²

Ko'rinadiki, Marshavan devning nomi alqovda keltirilganligi yashtning ma'nosini ancha-muncha oydinlashtirgan. Bu alqovda mujassamlashgan mifologik tasavvurlarning mohiyati shundan iboratki, kishi qalbini Axriman yaratgan shaytoniy kuchlarga ergashish emas, balki ezgulik baxsh etuvchi ruhlarga e'tiqod band etgan bo'lsa, bunday kishini Marshavan mahv eta olmaydi. Chunki quyoshni muqaddas deb bilish ham ezgulikni ulug'lashning bir ko'rinishidir.

“Xurshed yasht “da quyoshga ibodat qilinayotganda bajariladigan ayrim magik amallar haqidagi ham ba'zi ma'lumotlar saqlanganligi zardushtiylikdagi quyosh kul'tining o'ziga xos mifologik talqinlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Otlari uchqur zot, ya'ni bitmas – tuganmas yolqinga ezgu kalom ila murojaat etib, o'ziga baxt va omad ato etishini so'raydigan kishi o'tga xaoma sharbatini sochgan. Ma'lumki, xaoma ichimligi va barsman novdalari zardushtiylikdagi barcha marosimlarda magik xususiyatli narsalar sifatida qo'llanilgan. Shuning uchun quyoshga sig'inib, “Xurshed yasht” tarkibiga kiritilgan alqovlarni tilovat qilayotganda xaoma bilan barsman novdalarini oftobga ehson qilishgan:

*Baxt-u omad bersin deb,
Baralla duo so'zim,
Ibodatim quyoshga*

²Авесто. Тарихий – адабий ёдгорлик А. Махкам таржимаси.- Тошкент: “ Шарқ”, 2001. 183-бет.

*(Yuqunchim zar qanotga),
Otlarni uchqur zotga,
Yitmas, bitmas yolqinga,
Otlari uchqur zotga,
Ehson etarman Xaoma
Sharbatin sohib o'tga,
Barsman novdalarini
Etarman xayr-u ehson.¹*

Uchqur otli va bezavol quyoshning buyuk ma'budlardan biri sifatida zardushtiylikda e'tirof etilishining sababi ham bu yashtda bayon qilingan. Unda aytilishicha, Axuramazdaning o'zi bu mangu yoritqichni "vali deya tan olgan":

*Ezgu kalomlar ila
Haq so'zni dilda tutib,
Quyoshga topinurman:
"Axuramazda vali deya
Tan olgan o'shal zotga,
Ibodatim yo'llayman!"²*

"Avesto" mifologiyasining ta'siri natijasida quyosh kul'ti bilan bog'liq tasavvurlar ham xalq ijodiyotining doston, ertak, afsona, asotir kabi janrlariga, shuningdek, xalqimizning osmon yoritqichlari to'g'risidagi afsonaviy tasavvurlariga singib ketgan. O'zbek folklorida quyoshning paydo bo'lishi, uning chiqishi va botishi, quyosh tutilishi to'g'risidagi turli samoviy afsonalar mavjud bo'lib, bunday

¹ *Авесто. Яшт китоб // М. Исхоқов таржимаси. – Тошкент: "Шарқ", 2001.37-бет*

² *Авесто. Яшт китоб // М. Исхоқов таржимаси. –Тошкент: "Шарқ", 2001.36-бет*

qadimiy kosmogonik miflar filologiya fanlari doktori M.Jo'rayev tomonidan o'rganilgan¹.

Quyosh bilan bog'liq "Kun bilan Oy", "Kunni qarg'ab bo'lmaydi", "Kung'il bilan Oypari" singari o'zbek xalq ertaklari professor M.Muradov tomonidan yozib olib, chop etilgan.²

Ayniqsa, "Kunni qarg'ab bo'lmaydi" nomli ertakda xalqimizning quyoshni muqaddaslashtirish bilan bog'liq qadimiy mifologik qarashlarning ma'lum izlari saqlanganligi xarakterlidir. Ertakda tasvirlanishicha, kunlardan bir kuni qo'y boqib yurgan qoravoy kun boboni so'kib yuboribdi: "har kuni yaraqlab chiqaveradi bir kun chiqmasa-ku, dam olardim", – deb so'kibdi. Shundan keyin Kun boboning jahli chiqib biram qizib beribdiki, qorovoyning yuzlarida sharra-sharra ter quyilibdi. Quyosh jahli chiqib qattiq qizdirganidan hamma narsa jizganak bo'lib yonibdi. Ertak so'ngida qahramonlardan biri kun boboning yoniga yaqinlashib shunday debdi:

-Ey, Kun bobo, dunyoning yorug'i, qorong'u zulmatning dushmani!Sizga bir iltijo bilan keldim. Bizga hadeb qahringizni sochavermangda, o'zingiz ko'rdingizku, qahringizga duchor bo'lgan dov-daraxtlar qovjirab, o't - o'lanlar so'lib, odamzot-u mol-qo'ylar qirilib ketdi. Rahmingiz kelsin!

¹M.Жўраев. *Ўзбек халқ самовий афсоналари*. – Тошкент: ФАН,1995.

²*Оймомада аждаҳо. Ўзбек халқ фантастикаси*. –Тошкент.1983. 111-112 бетлар. *Қора дев. Ўзбек халқ фантастикаси*. –Тошкент:1985. 101-113 бетлар; *Гулиқахқах пари. Ўзбек халқ фантастикаси*. Тошкент.1988, 104-119 бетлар.

Kun bobo Bo'ri olganga nigoh tashlab:

-Kimsan, qayerliksan? – so'rabdi. Bo'ri olgan o'zini tanitib, qayerdan, nima maqsadda jafotortib kelganini yana birma-bir aytib beribdi. Shunda Kun bobo unga qarab miyig'ida kulib:

-Oralaringda meni qarg'ovchi noshukurlar bor, kasofati urdi senlarni, o'sha qarg'aganlar qahrimni qo'zg'atdi. Aytchi, nurimni berib, dov-daraxtlaru giyohlarni undirganim, xoh odamzod, xoh jonzodga hayot ato qilganim uchun meni qarg'ash kerakmi? Borib, o'sha noshukurlik qilib, meni koyiganlarni jazola, – debdi".¹

Bu ertak bevosita quyosh kul'tini izohlovchi miflar asosida yaratilgan. Chunki, xalqimiz orasida quyoshni so'kmaslik, quyosh chiqadigan tarafga qarab siymaslik, quyoshga tupurmaslik kabi odatlar bor. Masalan, Xorazmda kun chiqayotgan va botayotgan paytda ishlash, kun tikkaga ko'ringanida janoza o'qish ta'qiqlangan².

Xalqimizda kun botayotgan paytda uxlash ham ta'qiqlangan. Chunki bunday paytda uxlagan kishining vujudini ins-jinslar egallar emish. Etnograf T.Javliyevning yozishicha, "mahalliy kishilar orasida kechalari ziyon-zahmat yuradi, tongda farishtalar yuradi, degan gaplar bor. Shunga ko'ra, kechalari yurish, eshikni supirish, dafn etish, bemorlarni borib ko'rish mumkin emas, ayniqsa, quyosh botayotgan payt xatarli emish. Kampirlar yosh bolalarining

¹ *Қора дев. Ўзбек халқ фантастикаси. –Тошкент:1984. 110-111 бетлар.*

² *Г.П.Снесарев. Реликты.С. 139.*

bu paytda uxlashiga yo'l qo'ymaydilar. Chunki bu vaqtda "kun qapishgan" deyiladi¹.

"Xurshed yasht" dagi alqovlarning kun chiqayotgan yoki botayotgan paytda tilovat qilish zardushtiylar orasida keng yoyilgan. Vaqt o'tishi bilan bu an'ana unitilgan va quyoshni sharaflash bilan bog'liq inonchlarning qoldiqlari o'zbek marosim folklorida singib ketgan. Masalan, quyosh tutilganda temir buyumlarni tang'illatib turib kalima qaytarish odati ana shu qadimiy rituallarning qoldig'idir.

Folklorshunos M.Jo'rayevning juda to'g'ri qayt qilganidek, "quyosh bilan oy qadimgi davrlardanoq muqaddaslashtirilgan. Chunki charog'on quyoshning har kuni tongda ufq uzra bosh ko'tarib, samo gumbazini aylanib turishini ilohiy bir hodisa, tangri tomonidan ato etilgan ulug' mo'jiza deb bilgan ibtidoiy odam nazarida oftob hayotning boqiyiligini ta'minlovchi buyuk kuch edi. Bu samo yoritqichlarning vaqti – vaqti bilan tutilishi, ya'ni kuyishi ularning g'oyat tashvishlantirgan."²Shu tariqa quyoshni chaqirish, kunning tutilishiga sabab bo'lgan yovuz kuchlarni haydash maqsadida aytiladigan aytimlar yaratilgan.

"Avesto"da quyosh kul'tini ifodalovchi mifologik syujetlar va ular bilan bog'liq xalq qarashlari aks etgan o'rinlar ko'p uchraydi.Masalan, "Vendidod" ning yettinchi

¹ Т.Жавлиев. *Табиат, инсон ва дин.* –Тошкент:Фан, 1986, 20-бет.

²М.Жўраев. *Ўзбек халқ самовий афсоналари.* – Тошкент: ФАН,1995, 47-бет.

fargardidagi sakkizinchi bo‘limining 45-46- bandlarida shunday deyilgan:

– Ey olamni yaratgan Zot! Ey haqiqat! Oftob ostida yotgan odam jasadi yerga tushib ketsa, yer necha vaqtdan so‘ng o‘zining dastlabki pokizalik holiga qaytadi?

Axura Mazda javob berdi:

–Ey, Ashavan Zardusht!

Oftob ostida yotgan odam jasadi yerga tushib ketgan lahzadan bir yil o‘tgach, zamin o‘zining dastlabki poklik holiga qaytadi”¹.

Bu bandlarda quyosh nurining magik, ya‘ni marhum jasadini poklash xususiyatiga ega deb qaralganligi haqidagi mifik qarashlar o‘z ifodasini topgan. Zardushtiyalar tasavvuriga ko‘ra o‘lgan odamning jasadi bulg‘angan – nopok hisoblanadi, shu bois marhum jasadi maxsus joydagi yog‘ochdan yasalgan tobutlarda qo‘yilgan. Shu joyda quyosh nurlari uni poklaydi deb tasavvur qilingan.

“Vendidod”ning yettinchi fargardidagi 14-15- bandlarida aytilishicha, dafn marosimida qatnashayotgan kishining kiyimi marhumning jasadiga tegib ketsa, uni poklash uchun oftob nuri tushadigan joyga yoyib qo‘yish kerak ekan.

Quyosh kul‘ti asosida kelib chiqqan bu udumning izlari Xorazm dafn marosimlarida bugungi kunga qadar saqlanib qolgan. An‘anaga ko‘ra marhumni dafn etish

¹ *Авесто. Тарихий – адабий ёдгорлик А. Махкам таржимаси.- Тошкент: “ Шарқ”, 2001. 135-бет.*

marosimida uning tobutiga hali ishlatilmagan yangi ko'rpachani yopadilar. Marhum jasadi dafn etib kelingach, tobutga yopilgan ko'rpacha quyosh nuri tushib turgan joyga uyning ustiga yoki maxsus qilingan torga osib qo'yiladi. Shuningdek, marhumning uchi qilingan kuni "kir yuvdi" marosimi qilinadi. O'sha kuni o'lgan odamning kiyimlarini yuvadilar va yangi kiyimlarini ham oftobga qo'yadilar. Bu udumlar bevosita zardushtiylikdagi quyosh kul'ti an'analari bilan bog'liq bo'lib, oftob nurining ramziy poklash xususiyatiga egaligiga asoslangandir.

Taniqli etnograf olim G.P.Snesarevning ma'lumotlariga qaraganda, xorazmliklar o'lgan odamning jasadi tekkan yerni ham nopok deb biladilar. Agar ekin ekiladigan yerda odam jasadi yoki uning suyaklari topilsa, bu joy harom hisoblanadi. Bunday yerni besh marta sug'organdan keyingina ekin ekishgan. Ayrim joylarda esa bunday joylarning atrofini uvat olib o'rab qo'yganlar va 2-3 yil davomida sug'ormaganlar, ekin ham ekmaganlar. Gurlanliklar marhum jasadi qo'yilgan yer tuprog'ining yuza qismini qirib olib oftob tushadigan, sug'orilmaydigan joyga to'kkanlar. Ana shu udumlarni qiyosiy tahlil qilgan G.P.Snesarev xorazmliklarning marhum jasadi tekkan joyning tuprog'i bilan bog'liq qarashlari zardushtiylikda urf bo'lgan dafn marosimlariga aloqador bo'lib, quyosh nurlarining poklash xususiyatiga egaligi to'g'risidagi

mifologik tasavvurlarni o'zida mujassamlashtirgan deb hisoblaydi¹.

Xorazm dafn marosimlarida marhumni ko'mish uchun tobutga solib qabristonga olib borayotganda va jasadni lahadga qo'yayotganda uning yuziga quyosh tushmasin deb ustini biror mato bilan bekitadilar.²Bu udum ham qadimiy dafn marosimining asrlar davomida o'zgarishga uchrashi natijasida kelib chiqqan. Chunki marhum jasadi yuvguvchi tomonidan yuvilgan, poklangan hisoblangan. Shundan keyin uning yuzini ochib ko'rish yoki ochiq qo'yish mumkin bo'lmagan. Yuqoridagi udum ana shu odat asosida kelib chiqqan.

“Avesto” mifologiyasi bo'yicha, bu dunyoda halol yashab, umrini ezgulik bilan o'tkazgan kishining ruhi oy va quyosh kezgan manzillarni bosib o'tadi. Bu mifik e'tiqod “Vendidod”da shunday talqin qilingan:“Ikki olam uning ruhini qo'lga kiritmoq uchun jang qilmaydi va abadiy saodat manziliga oyoq qo'yanida yulduzlar, oy va quyosh uning diydorini ko'rib shodmon bo'ladilar”³.Bu fargardning mifologik mohiyati shundan iboratki, kishi vafot etgach, uning ruhi boshqa olamga o'tishi lozim.

Bu olamlardan biri jannat bo'lsa, ikkinchisi do'zaxdir. Shuning uchun ham ezgu homiylar o'lgan odam ruhini behishtga olib ketishga harakat qilishsa, do'zaxni makon

¹ Г.П.Снесарев. *Реликты домусульманский верований и обрядов у узбеков Хорезма.* – М:Наука,1969,С.142

² *O'sha asar, 138-bet.*

³ *Авесто. Тарихий – адабий ёдгорлик А. Махкам таржимаси.- Тошкент: “ Шарқ”, 2001. 135-бет.*

qilgan manfur devlar ruhni o'z manziliga tortishga urinadilar. Yorug' dunyodagi hayotni halol yashash bilan o'tkazgan kishilarning ruhi esa ko'kka, ya'ni ezgulik dunyosiga o'tadi. "Avesto"da bunday pokiza ruhlarni yulduzlar, oy va quyosh shodmon kutib olishi haqida so'z boradi.

"Avesto" mifologiyasida quyosh chiqib turgan vaqt ezgu kuchlar tantana qilishi aytilgan. Bu vaqt insonga yomonlik qiladigan devu-parilar zulmatga chekinadi. Quyosh botishi-qorong'ulik esa yana yovuzlik kuchlarining faollashuviga imkon yaratar ekan. Shuning uchun ham qadimgi zardushtiyalar hamma ishlarini kunduzi, quyosh chiqib turganda bajarishgan. Ayniqsa, muqaddas marosim tayyorgarlik ko'rishda alohida e'tibor berishgan.

Zardushtiylikda odamlarning suv bilan o'zlarini poklash marosimi "zavr" deyilgan. Bu marosimda ishlatiladigan suvni qorong'u tushganidan keyin, ya'ni quyosh botgach olib kelish ta'qiqlangan. Chunki kun botgach faollashgan yovuz kuchlar bu suvga ham o'z ta'sirini o'tkazadi va natijada bunday suv zavr marosimi uchun yaroqsiz bo'lib qoladi deb bilganlar. Zavr marosimi uchun kerak bo'ladigan suvni erta tongda quyosh chiqqanidan boshlab to kun botganicha bo'lgan vaqt oraliq'ida olishgan. Bu udumga amal qilinmagan kishi gunohkor hisoblangan. "Avesto" ning mutarjimlaridan biri A.Somenning izohiga qaraganda, "Pok suvlarni quyosh otmay turib yoxud botganidan so'ng olib kelgan kimsaning

gunohi bu nazr – niyozlarni zaharli ilonning og‘ziga quygan bilan barobar bo‘lar ekan.¹

Bu marosim bilan bog‘liq adablarda ham quyoshning ezgulik baxsh etish va poklash xususiyati bilan bog‘liq mifologik qarashlarga asoslanganligi yaqqol ko‘rinib turibdi.

Zardushtiylikning quyosh kul‘tiga aloqador rituellaridan biri vafot etgan kishining jasadi bir yilgacha oftob nuri ostida qo‘yish odatidir. Bu odatga rioya qilmaslik ham gunoh sanalgani bois “Videvdod”ning beshinchi fargardidagi 14-bandda “Kimda-kim bir yil muddatida murda jismini dahmaga – oftobro‘yga qo‘ymas ekan, uning jazosi bir ashavanni qatl etgan bilan barobardir. Murdaning jismi dahmada yomg‘ir yog‘ib uning tamomiy chirkinlarini yuvib ketmagunigacha va parrandalar uni yeb bitirmagunlariga qadar turishi lozim”²deyilgan.

Quyosh yorug‘lik va issiqlik manbai bo‘lganligi uchun zardushtiylik mifologiyasida ezgulik kuchlarining timsoliy ko‘rinishlaridan biri deb qaralgan. Zulmat – yovuz kuchlarga faollik baxsh etadigan xos ramzi bo‘lganligi sababli quyosh chiqishi bilan ezgulik tantana qiladi deb ishonganlar. Erta tongda quyosh ufqda ko‘rinishi bilan yovuz kuchlar, devlar va shaytoniy ruhlar zulmat qa‘riga chekinishiga ishongan qadimgi odamlar quyosh kul‘tining

¹Авесто. Ведиод. Гулистон, 1999, 5-сон. 49-бет.

²Авесто. Тарихий – адабий ёдгорлик А. Махкам таржимаси.- Тошкент: “ Шарқ”, 2001. 123-бет.

timsoliy ko‘rinishlari yoki atributlari tunda ham odamzodni yovuzlik hurujidan himoya qila oladi deb bilishgan. Shu asosda Vanghapara nomli it haqidagi mifologik tasavvurlar kelib chiqqan. O‘n uchinchi fargardning birinchi bandida bu haqda shunday deyilgan:

“Sen, ey Axuramazda, yaratgan mahluqotlar ichida kim yarim kecha to quyosh chiqqunga qadar Axriman yaratgan minglab mavjudodlarni nobud aylaydi?”

Axuramazda bu savolga javob berib, shunday degan:

“Ortidagi tikanlari baland va o‘tkir Vanghapara itidir. Tili zahar odamlar dujaka deb ataydilar. O‘shadir, men – Axuramazda – yaratgan maxluqlar ichida yarim tundan quyosh chiqqunga qadar Axriman yaratgan minglab mavjudodlarni nobud aylaguvchi”¹.

Vanghapara nayzadek o‘tkir bamisoli quyosh nuridek yaraqlabturuvchi mifologik mavjudotning nomi. Quyosh kul‘tining zoomorf timsollaridan biri hisoblangan bu mifologik jonzot tuni bilan tuklarini yarqiratib, zulmat qa‘rini yoritib turadi va yovuz kuchlarning faollashuviga yo‘l bermaslikka harakat qiladi deb tasavvur qilingan.

Ko‘rinadiki, quyosh kul‘tiga sig‘inish an‘anasi asosida kelib chiqqan mifologik tasavvurlar zardushtiylik dininingmarosimlarida ham o‘z aksini topgan. Bu yirtqichning nur baxsh etish, poklash, yovuz kuchlarni quvish va ezgulikni o‘ziga mujassamlashtirish xususiyatiga

¹Авесто. Тарихий – адабий ёдгорлик А. Махкам таржимаси.- Тошкент: “ Шарқ”, 2001. 52-бет.

ega deb tasavvur qilinishi ana shunday marosimlarning shakllanishi va taraqqiyotida muhim rolo'ynagan.

YULDUZ KUL'TI

“Avesto” mifologiyasida yulduz kul'ti asosida kelib chiqqan qadimiy astral tushunchalarning asotiriy talqinlari ham muhim o'rin tutgan. Buning ham o'ziga xos tarixiy zamini mavjud. Chunki yulduzlar harakatini kuzatish qadim zamonlarda yashagan ajdodlarimiz uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Yulduzlar tungi kuzatuvchilarga yo'l manzillarini aniqlash imkonini ham bergan. Qadim zamonlarda yashagan odamlarning yulduzlar harakatini kuzatish asosida to'plagan hayotiy tajribalari hamda bu osmon yoritqichlari bilan aloqador bo'lgan eng dastlabki mifik tasavvurlari asosida dastlabki astral kul'tlar kelib chiqqan.

Astral kul'tlarning shakllanishi asosan osmon yoritqichlari, xususan yulduzlarning ibtidoiy kishilar tomonidan muqaddaslashtirilishi an'anasi bilan bevosita bog'langan bo'lib, yulduzlarga topinishga aloqador inonchlar zaminida kelib chiqqan. B.B. Ivanovning yozishicha, “astral miflar yulduz turkumlari, alohida yulduzlar, sayyoralar (kengroq ma'noda olib qaraganda quyosh bilan bog'liq shamsiy miflar va oy haqidagi asotirlar majmuyi – qamariy miflar ham shu turkumga

mansub)to'g'risidagi miflarni o'z ichiga oladi. Astral miflarning tipologik jihatdan eng qadimiy tiplarida yulduzlar yoki yulduz turkumlari ko'pincha muayyan jonivorlar sifatida talqin qilingan bo'lib, bunday asotirlarda odatda mifologik qahramonning samoviy jonzotni ovlashi bilan bog'liq voqealar hikoya qilinadi.”¹

Yulduzlar haqidagi mifologik tasavvurlar dunyo xalqlari folklori uchun tipologik hodisadir. Deyarli barcha xalqlar og'zaki badiiy ijodiyotida yulduzlarning paydo bo'lishi, yulduz uchishi hodisasining sabablari, shuningdek, yulduz turkumlarining muayyan holati va harakatlanish tartibiningsabablari xususida miflar mavjud. Shuning uchun astral miflar folklorshunoslikda birmuncha o'rganilgan. Xususan, A.E.Kreynovich, L.E.Karunovskaya, L.S.Anisimov kabi olimlar uzoq Sharqda yashovchi xalqlarning kosmogonik tasavvurlari astral miflarni ham tahlil qilishgan bo'lsa,² B.A.Ribakov, O.N.Bader kabi tadqiqotchilar yulduzlarga sig'inish asoslangan mifologik tasavvurlarni arxeologik yodgorliklar asosida o'rganishgan.³

Qadimgi odamlarning astral tasavvurlari moddiy madaniyat yodgorliklarida, qoyatoshlarga, g'orlarga

¹ Иванов В. В. *Астральные мифы // Мифы народов мира, Т.1. - М., С.116.*

² Крейнвич Е. А. *Очерк космогонических представлений гиляков О. Сахалин // Этнография, №1; Каруновская Л. Э. Представления алтайцев о вселенной // СЭ, 1935, №4-5; Анисимов Л. Ф. Космологические представления народов Севера. - М. - Л., 1959.*

³ Рыбаков Б. А. *Космогония и мифология земледельцев энеолита // СА, 1965, №1-2; Бадер О. Н. Элементы культа светил в палеолите // Древняя Русь и славяне. - М. 1976, С. 40-46.*

chizilgan suratlarda ifodalangan samoviy ramzlardagina aks etib qolmasdan, ularning turli xil marosimlari hamda mifologiyasida ham o'z ifodasini topgan. Xususan, mamlakatimiz hududidan topib o'rganilgan qoyatosh suratlaridagi ramz va belgilarning mifologik mohiyatini o'rgangan A.B.Oskinning qayd qilishicha, qizilqum petrogliflaridagi astral timsollar orasida quyosh, oy va yulduzlarni bildiruvchi ramziy ifodalar ko'p uchraydi¹.

Qadimgi odamlar tomonidan yaratilgan astral miflarning taraqqiy etishi yulduz turkumlari va alohida yulduzlarning paydo bo'lishi to'g'risidagi samoviy mifologik tasavvurlarning keng yoyilishi va xalq og'zaki ijodida o'ziga xos syujetlar silsilasi sifatida saqlab qolishni ta'minlagan. Turkiy xalqlarning yulduzlar to'g'risidagi afsonalari tahliliga bag'ishlangan bir qator ilmiy ishlar mavjud. Masalan, S.Kaskabasov Hulkar va yetti qaroqchi haqidagi miflarni dunyo xalqlari folklori, xususan, melaneziya asotirlari bilan qiyoslab o'rgangan bo'lsa², o'zbek olimi U.Jumanazarov sayyoralar bilan aloqador xalq afsonalari, shuningdek, Hulkar va yetti qaroqchi haqidagi asotirlarning o'zbek xalqi orasida tarqalgan milliy versiyasini tahlil qilgan³.

¹ *Оськин В.А. К вопросу о семантике обного сюжета в петроглифах Букантау // Этнография и археология Средней Азии, -М.1979, С.139; Его же. Символика небесных светил в петроглифах внутренних Кызылкумах // Культура и искусство древнего Хорезма. -М.1981, С. 111-120.*

² *Каскабасов С.А. Казахская несказочная проза. – Алматы: Наука,1990.С. 83-84.*

³ *Жуманазаров У. Тарих, афсона ва дин. –Тошкент : Ўзбекистан, 1990,36-42.*

Xalqimizning yulduzlar bilan aloqador afsona va miflari folklorshunos M.Jo‘rayev tomonidan izchil tadqiq etilgan bo‘lib, bu olim o‘zining o‘zbek xalq ertaklaridagi sehrli yetti raqamining poetik vazifalari va tarixiy asoslariga doir izlanishlardan birida astral kul’tlarning mifologik mohiyati va yetti raqamining an’anaviylashuvidagi roli xususida quyidagi mulohazalarni bildirgan edi: “Yulduzga aylangan yetti homiy haqidagi mifologik qarashlar turkiy xalqlar tarixining oltoy davriga to‘g‘ri keladi. Turkiy xalqlarning bobokalonlari osmon yoritqichlarining mifologik tabiatini muqaddaslashtirib qiyin va tahlikali ibtidoiy turmush chorrahalarida samoviy homiylarning magik qudratidan madad tilaganlar. Yetti qaroqchi yulduzlarini yerdagi xudolar bilan assotsialashtirishdan paydo bo‘lgan astral kul’tlar bu yulduz turkumlarining mifologik tumanini yanada quyuqlashtiradi. G‘ayritabiiy karomat ko‘rsata oladigan yetti homiy obrazi xalq ijodiyotining eng qadimiy elementlaridan biri sanaladi.”¹

M.Jo‘rayev o‘zining o‘zbek xalqi samoviy afsonalariga doir ilmiy tadqiqotlarida ham yulduzlar bilan bog‘liq mifologik qarashlar asosida kelib chiqqan epik syujetlarning geneziyasi va badiiy tahliliga keng o‘rin bergan.Uning 1995-yilda chop etilgan mifologik tadqiqotida “Yulduzlar bilan bog‘liq xalq qarashlari va

¹ Жўраев М. Ўзбек халқ эртақларида сеҳрли рақамлар. – Тошкент: Фан,1991, 119-120.

samoviy afsonalar” deb atalgan fasl mavjud bo‘lib, unda Yetti qaroqchi, Temir qoziq, Oqbo‘zot bilan Ko‘kbo‘zot, Hulkar va Somon yo‘li to‘g‘risidagi o‘zbek xalq afsonalari syujet tizimini tashkil etuvchi asosiy motivlarning manbaalari hamda obrazlar tarkibining poetik evolyutsiyasi xususida qiziqarli ma’lumotlar bildirilgan.

Uning fikricha, “Yulduzlar bilan bog‘liq o‘zbek xalq afsonalarining yaratilishiga xalqimizning osmon jismlari harakati va muayyan holatini muntazam kuzatib turishi davomida yig‘ilgan hayotiy tajribalari hamda samoviy qarashlari dastlabki badiiy – mifologik zamin vazifasini o‘tagan. Yulduzlarning paydo bo‘lishi, ularning osmon gumbazidagi sistemali harakati sabablarini tushintirishda ajdodlarimiz samoviy miflarning an’anaviy motiv va miflaridan foydalanganlar”¹.

Shuningdek, tadqiqotchining bir qator maqolalarida ham yulduzlar bilan bog‘liq xalq qarashlarining kelib chiqishiga asos bo‘lgan mifologik tasavvurlar tizimining o‘ziga xos xususiyatlari va samoviy afsonalar syujetining shakllanishidagi badiiy o‘rni masalasiga doir mulohazalar bildirilgan.²

Zero O‘rta Osiyo xalqlari orasida Yetagan, Cho‘lpon, Tarozi, Oqbo‘zot bilan Ko‘kbo‘zot, Temir qoziq, Hulkar, Qambar yulduzi kabi yulduzlarning paydo bo‘lish sabablari

¹Жўраев М. Ўзбек халқ самовий афсоналар. –Тошкент, 1995, 46-бет.

²Жўраев М. Етти хомий образининг мифологик асосларига доир.// Адабий мерос, 1989, №2(48); Ўша муаллиф. Юлдуз учини билан боглиқ мифологик қарашлар // ўзбек тили ва адабиёти, 1996, №2 39-43 бетлар.

mifologik tasavvurlar asosida izohlovchi samoviy afsonalar keng tarqalgan. Bunday afsonalarda yulduzlar ko‘pincha mifologik personaj sifatida tasavvur qilingaligini ko‘ramiz. V.V.Ivanovning yozishicha, “astral miflarning eng ko‘p tarqalgan motivlaridan biri osmonga chiqib yulduzga aylangan odamlar haqidagi tasavvurlar hisoblanadi. Ko‘pgina yulduz turkumlari va alohida yulduzlarning paydo bo‘lish sabablari anashu mifologik tasavvurlar asosida izohlanadi”¹.

Ayni holatni o‘zbek xalq samoviy afsonalarida ham ko‘ramiz. Xalqimiz orasida mifologik timsol sifatida tasavvur qilingan yulduzlarning deyarli barchasi qachonlardir zaminda yashagan hamda mifologik zamonda osmonga ko‘tarilib, samoviy yoritqichga aylangan odamlar sifatida tasvirlanadi. Masalan, Yotgan yulduz – yetti qaroqchi, hulkar – yetti nafar opa – singil kabi.

Xalqimizning tasavvurlariga ko‘ra, yulduz uchsa, bironing umri oxirlab, joni uziladi deb irim qiladilar. Folklorshunos M.Jo‘rayev juda to‘g‘ri qayd qilganidek, “har kimning o‘z yulduzi borligi, yulduz uchishi – o‘lim belgisiekanligi to‘g‘risidagi kosmogonik tasavvurlar xalqimizning islomdan burungi mifologik tushunchalari silsilasiga kiradi”.²

¹Иванов В.В. Кўрсатилган мақола, 117-бет.

² Жўраев М. Юлдуз учishi билан боғлиқ мифологик қарашлар // ўзбек тили ва адабиёти, 1996, 2-сон, 42-бет.

Yulduzlarni muqaddaslashtirish an'anasi O'rta Osiyoning boshqa xalqlari orasida ham mavjudligi ilmiy adabiyotlarida qayd qilingan.³

Bizningcha, O'rta Osiyo xalqlari mifologiyasidagi yulduzlarni muqaddaslashtirish an'anasi bilan aloqador afsonalar syujetining ildizlari "Avesto"ga borib taqaladi. Chunki yulduzlarga sig'inish an'anasi zardushtiylikdagi tabiat kul'tlarining ajralmas qismi hisoblangan. Zardushtiylik quyosh, oy kabi osmon jismlari qatorida yulduzlarni ham ilohiylashtirganlar hamda ularni sharaflovchi alqovlarni yaratganlar. "Avesto" mifologiyasini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda astral kul'tlarning zardushtiylik marosimlarida tutgan o'rnini, yulduzlar bilan bog'liq mifik e'tiqodlarni o'zida aks ettirgan miflarning talqini va ularning folklor asarlarida saqlanib qolgan izlari masalasi hozirga qadar maxsus tadqiq etilmagan.

O'zbek folklorshunosligiga asos solgan alloma X.Zarifov o'zining jangovor ot obrozi tahliliga doir ilmiy maqolasida otning suv bilan bog'liqligi masalasiga to'xtalib quyidagilarni yozgan: "Tishtar gimnida qurg'oqchilikning muakkili dev Apaosha bilan kurashuvchi Tishtar haqidagi olti satrning prozaik mazmuni shunday: "Ey Spitaman Zaratushtra, porloq nur sochuvchi Tishtar, ajoyib, olti

³ *Мухиддинов И. Обряды и обычаи припамирских народностей, связанные с циклом сел кохозяйственных работ // Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии.-М.1986,С 70-93.*

quloqli, oltin yopiqli ot qiyofasida Vourukash (Vorukash) ko'liga kelayotir".

Burhonuddin Rabg'uziyning "qissa"sida ikkinchi qat ko'kning farishtalari ot suratlig' deyiladiki, buning asosida ham qadimiy miflar yotadi"¹. Atoqli olimning bu fikrlari yomg'ir egasi sifatida tasavvur qilingan Tishtar yulduzi bilan bog'liq mifologik qarashlarni qadimgi ajdodlarimizning astral kul'tlari tizimida o'rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Folklorshunos B.Sarimsoqov o'zbek marosim falklorining janrlari tahliliga doir monografiyasida o'zbeklarning yomg'ir chaqirish bilan aloqador marosimlarida qayd qilingan Sust xotin obrazining mifologik asoslari "Avesto"da oq ot ko'rinishida tasvirlangan Tishtriya yulduzi haqidagi tasavvurlarga bog'liqligi masalasini asoslab berganligi² "Avesto"dagi astral kul'tlarning mifologik asoslari va O'rta Osiyo xalqlari folkloriga diffuziyalanish jarayoni maxsus tadqiq etilishi lozimligini ko'rsatdi.

"Avesto" mifologiyasida astral kul'tlarning talqinlarini tadqiq etishda "Tiyр yasht" matnlarini tahlil qilish muhim xulosalar chiqarishga asos bo'ladi. Ma'lumki "Tiyр yasht" "Avesto"dagi yashtlarning sakkizinchisi bo'lib, suv va

¹ Зарифов Х. Ўзбек халқ достонларининг тарихий асослари бўйича текширишлар. Жанговор от образининг қадимий асосларига доир // Пўлкан шоир.- Тошкент, 1976, 79-бет.

² Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори.-Тошкент: Фан, 1986, 80-87- бетлар.

hosildorlik timsoli deb qaralgan Tishtar yulduziga sharaflorchi alqovlardan tashkil topgan.

“Avesto” mifologiyasi talqiniga ko‘ra, zaminning to‘rt tomoni mavjud bo‘lgani kabi osmonning ham to‘rt qutbi bor deb tasavvur qilingan. Osmonning har bir tomoni muayyan yulduz bilan bog‘liq holda timsollashtirilgan. Manbalarda qayd qilinishicha zardushtiylikka e‘tiqod qilgan qadimgi ajdodlarimiz samo kengliklarining sharqiy qismida Tishtriya, ya‘ni Sirius yulduzi, janub tomonida Satavesa yulduzi (falakiyot ilmida Antares nomi bilan tanilgan yulduz), shimolda Hafturang (ya‘ni yetti qaroqchi yuduzlari), mag‘rib tarafda esa Vanand (Vega) yulduzi hukmronlik qiladi deb o‘ylaganlar¹.

Bu yulduzlarning barchasi ilohiy tabiatga ega bo‘lgan ma‘budlar sifatida talqin qilingan. “Tiyir yasht”ning oltinchi bo‘limidagi 12-alqovda zardushtiylarning anashu yulduzlar bilan aloqador astral kul‘tlar asosidagi mifologik tasavvurlari o‘zining ifodasini topgan:

“Tishtarni olqishlaymiz. Tiyshtriyaiyniyni olqishlaymiz. Avvalda nuzul aylaguvchi Sataviys yulduzini olqishlaymiz. Parvinni olqishlaymiz. Jodular va parilar qoshida poydor Hafturangni olqishlaymiz. Mazda yartagan Vanand yulduzi – qudrat, firo‘zlik, zabardastlik va muzaffariyat sohibini olqishlaymiz, dushmanlar ustidan

¹Саримсоқов Б. Кўрсатилган асар, 82-бет.

g'alaba istagi bilan unga yuz buramiz, duolarda yod etamiz. O'tkir nigohli Tishtarni e'zozlaymiz"¹.

Yashtda bayon etilgan astral tasavvurlarga ko'ra Parvin nomi bilan atalgan yulduz Surayyodir. U borliqdagi hayotning boqiyiligini, ezgulikning hamisha barhayotligini ta'minlovchi ma'budlardan biri sifatida sharaflangan. Sataviys esa osmon suvlarining homiysi deb qaralgan Tishtriyaning yaqin hamrohidir. Axuramazda tomonidan zaminga suv yetkazib berish uchun yaratilgan bu yulduzning vazifasi samo gumbazining janubiy qismini yovuz kuchlar hurujidan saqlash hamda Tishtriya samoviy ko'llardan olib kelgan suvni yetti iqlimga taqsim qilishdan iboratdir. Hatto "Tiyryasht"ning boshlanmasi ham Tishtar bilan Sataviys yulduzlarini sharaflovchi alqov bilan boshlangan:

"Rayumand va farrihmand Tishtar yulduzi: Mazda bunyod etgan suv yetkazuvchi qudratli Sataviys yulduziga xushnudlik bo'lsin"².

Sataviys yulduzi Axuramazdaga taalluqli samoviy iloh sifatida zaminning har bir go'shasi suvdan serob bo'lib, yashnab turishga xizmat qiladi.

Shuning uchun ham bu yulduzning nomi mazkur yashtda qurg'oqchilik keltiruvchi yovuz devlar bilan birga tilga olishib, obi hayotni olib keluvchi Tishtar yulduzi bilan

¹Авесто. Тарихий – адабий ёдгорлик А. Махкам таржимаси.- Тошкент: " Шарқ", 2001. 235-бет.

²Авесто. Тарихий – адабий ёдгорлик А. Махкам таржимаси.- Тошкент: " Шарқ", 2001. 233-бет.

birga tilga olinadi. “Avesto”da aytilishicha, Sataviys zaminidagi daryolar bilan chambarchas bogʻlangan, chunkidaryolarning sersuv boʻlishi Sataviysning samoviy faoliyatini mahsuli deb qaraladi.

Osmonning shimol tomonida hukmronlik qiluvchi hafturang yulduzi esa “jodular va parilar qoshida poydor” deya olqishlanadi. Hafturang deb atalgan yulduz yetti qaroqchi boʻlib, bu yulduz oʻzbek mifologiyasida ham alohida oʻrin tutadi. M.Joʻrayevning qayd qilishicha, “Yetti qaroqchi yulduzlarining mifologik tabiatini tashkil etuvchi dastkabki tasavvurlar tufayli yaratilgan yetti homiy motivining evolyutsiyasi, oy fazalarining oʻzgarishiga asoslangan yetti kunlik vaqt tushunchasi ajdodlarimiz ongida yetti raqamining muqaddaslashuviga sabab boʻlgan. Arxaik mifologiyadagi yettiliklar afsonaviy qahramonlarning makon va zamondagi faoliyatini izohlash funksiyasini bajargan. Mifologik tushunchalarning intensiv transformatsiyalanishi tufayli magik yettilik ritual kod sifatida ijtimoiy tafakkurning turli formalariga, qadimgi sanʼat, marosim va folklarga singib ketgan. Qadimgi turkiy mifologiyaning anʼanalari asosida oʻzbek folklorida oʻziga xos magik yettilik sistemasi shakillangan”¹.

Hafturang, yaʼni yetti qaroqchi yulduzlari qadimgi zardushtiyalar hayotida muhim amaliy ahamiyatga ega edi. Bu yulduz turkumining koʻzga yaqqol tashlanib turadigan yettita katta yulduzi ajdodlarimiz uchun tunda dunyo

¹ Жўраев М. Ўзбек халқ эртаклари сеҳрли рақамлар. – Тошкент: Фан, 1991, 126-бет.

tomonlarini aniqlash uchun tabiiy asos vazifasini o'tagan. Odamlar kechasi anashu yulduzlarga qarab shimol tomonni osongina aniqlaganlar. Bu yulduzlar osmonning shimol tomonida ko'ringanligi uchun ham hafturang samo gumbazining o'sha tomoniga egalik qiluvchi mifologik timsol sifatida talqin qilingan.

Hufturang yulduzlari devlar, jodugarlar va parilar bilan kurashib, sobit e'tiqod egasi bo'lgan ashavanlarni hamda ilonlarni yovuz kuchlar hurujidan himoya qiladi. Shuning uchun ham "Tiyр yasht" deb u yulduz "jodular va parilar qoshida poydor" deb ta'riflangan. Hafturang Etagan yulduzlarini homiy kuchlar timsoli deb tasavvur qilish O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimiy astral qarashlari sirasiga kiradi. Yetti qaroqchi yulduzlarini homiy ajdodlar ruhi deb tasavvur qilishga asoslangan qadimiy motivlar turkiy va mo'g'ul xalqlarining arxaik miflari syujetining yetakchi elementlaridan biri bo'lgan¹. Avval yerda yashab, keyin ko'kka ko'tarilgan va qudratli homiy maqomiga erishgan yetti ajdod to'g'risidagi mifologik tasavvurlar turkiy va mo'g'ul xalqlari orasida yashab kelganligi folklorshunos M.Jo'rayev tomonidan keng ko'lamda tahlil qilingan.²

Zardushtiylik mifologiyasida hafturang yulduzi do'zax darvozalarini ham nazorat qiladi deb qaralgan. Chunki

¹ Потанин Г.Н. *Восточные мотивы в средневековом европейском эпосе.*-М., 1883,С. 67-68, 81-127.

²Жўраев М. *Ўзбек халқ эртаклари сеҳрли рақамлар.* – Тошкент: Фан, 1991, 107-109-бетлар.

do'zaxga muftalo qilingan bad niyat kishilarning ruhlari, shuningdek, jahannamni o'ziga makon qilgan jodugar va **pairikalar** ezgulik kuchlariga daxl qilmasliklari uchun bu yulduz timsolida mujassamlashgan qudratli homiy ularning xatti-harakatlarini tinimsiz kuzatib turarkan. Yetti qaroqchi yulduzlarini ruhlarning homiysi sifatida tushunish an'anasi O'rta Osiyo xalqlarining marosim va udumlarida XX asrga qadar saqlanib qolgan. Xususan, Etagen yulduzlari haqiga sut va qimiz bag'ishlab, qurbonlik qilishga odatlangan qozoqlarning an'anaviy dafn marosimida marhumning jasadini qo'yayotgan paytda mayitni yetti qaroqchi yulduzlariga qaratib yotqizish odati mavjud bo'lgan.¹ Bu udumning etnofolklorastik mohiyatini tahlil qilgan M.Jo'rayevning yozishicha, "bu udum odamning yulduz bilan bog'liqligi haqidagi magik tushunchalar qoldig'idir. Chunki yulduz uchsa, biron o'ldi deydi: qadimda odamlar osmonda har kimning o'z yulduzi borligiga ishonishgan. Xullas, ibtidoiy mifologiyada xudolar va shu kabi osmon jismlari bilan assotsiatsiyalashdan paydo bo'lgan astral kul'tlar dafn marosimlarining shakllanishida jiddiy rol o'ynagan"².

Yetti qaroqchi yulduzlarining dafn marosimi udumlarida timsollashtirilishi ajdodlarimizning bu yulduzlar asosidagi kuchlar ramzi deb tasavvur qilishlari

¹ Валиханов Ч.Ч. *Собрание сочинений Т.1.-Алмата, 1961, С. 479; Кустанаев Х. Этнографические очерки киргиз Перовского и Казалинского уездов.-Ташкент, 1894, С.49.*

² Жўраев М. *Кўрсатилган асар, 111-бет.*

an'anasi asosida kelib chiqqan. Xafturang yulduzini zaminda yashovchi odamlar, ezgu ilohlar va umrini haq yo'lida pok yashab o'tishga bag'ishlangan kishilarning ruhlarini himoya qiluvchi kuch timsoli sifatida talqin qilinishi ham ana shu mifologik tasavvurlarning tarkibiy qismi hisoblanadi.

“Avesto”da aytilishicha, xafturang yulduzini ashavanlarning 99999 nafar qudratli va zabardast fravashilari qo'riqlab yurishadi. Bu haqida “Fravardin yasht”da shunday deyilgan:

*Kuchli qudratli fravashilarga
namoz eltaylik. Ular
Vorushaka dengizini
boshqarib turadilar.
Fravashlar muhitida
ko'pdir sonu sanog'i.
To'qqiz marta to'qsonu
Yana yuzta to'qqiz yuz
va yana to'qqiz mingta, Yana oxiri to'qqiz.
Eng qudratli fravashiga namozimiz.
Ular osmonda hafturang yulduzlarin
tartibini qo'riqlar.¹*

Zardushtiylikda butun olam iymon-e'tiqodli kishilarning ruhi bilan to'la deb qaraladi. Bu ruhlar olamdagi ezgulikning barhayotligi uchun kurashuvchi tabarruk xilqatlardir. Olamdan o'tib ketgan iymonli kishilarning ruhlari “fravashilar” deb atalgan. Ajdodlarimiz fravashilarni doimo hurmat bilan yod etganlar va ularning

¹ *Avesto. Yasht kitob // M. Isoxo'rov tarjimasasi. –To'shkent: “Sharq”, 2001.92-bet.*

sharafiga turli qurbonlik marosimlarini o‘tkazib kelganlar. Chunki fravashilar o‘z yaqinlarini hamisha himoya qiladi, balo-qazolardan asraydi, qolaversa, koinotdagi hayotning tartibotini saqlab turadi, deb o‘ylaganlar. Bu o‘rinda fravashilar osmon yoritqichlarining ziyosi barqaror bo‘lishini ta‘minlaydigan ezgu homiylar sifatida tasvirlangan. Ularning soni masalasiga kelsak, 99999 raqami an’anaviy tarzda qo‘llanilgan. Bu xalq og‘zaki ijodi, xususan, mifologiyada keng qo‘llanilgan magik raqamlardan biri–“to‘qqizlikning funksional doirasi kengayishi tufayli yaratilgan badiiy–miqdoriy kategoriyalardan biri”¹ hisoblanadi.

Fravashilar xafturangni himoya qilibgina qolmasdan, uning ezgu ishlarida ham madadkor bo‘lisharkan. Zardushtiylik aqidalarini o‘zida mujassamlashtirgan yodgorliklardan biri “Kichik Maynu”da yozilishicha, “hafturang 99999 nafar mard ashavanlar fravashiylari va yaxshilar bilan birgalikda do‘zax darvozalari va boshqa bir qator yo‘llarni kuzatib turadilar, toki sobit yulduzlar va osmon ilohlari devlar, pari va jodugarlardan ziyon ko‘rmasinlar”².

“Avesto”ning astral mifologiyasida Tishtar yulduzining osmon suvlari egasi, yomg‘ir yog‘dirib zaminga barhayotlik baxsh etuvchi ma‘bud sifatidagi talqini alohida o‘rin tutgan. Garchi “Tiyr yasht”da Sataviys, Parvin, xafturang hamda firuzlik, zabardastlikva muzaffariyat timsoli deb qaralgan Vanand yulduzi bilan bog‘liq xalq qarashlari ham o‘z ifodasini topgan bo‘lsa-da, alqovning

¹Жўраев М. Кўрсатилган асар, 133- бет.

²Бу иқтибос “Авесто”ни ўзбек тилига ўзгирган А.Сомеънинг изоҳномасидан олинди. Қаранг: Гулистон, 2000, 6-сон, 61-бет.

barcha bo‘limlari aslida orombaxsh va farog‘atbaxsh Tishtlarni sharaflashga bag‘ishlangan.

Tishtarni sharaflovchi alqov so‘zlari boshqa yashtlarda ham uchraydi. Masalan, “Xurmuzd yasht”ning 32-bandida bu yulduzni e‘zozlovchi quyidagimisralar bitilgan:

*Yaqinroq va baxtiyor,
Zuhal yulduziga sajda.
Ul imondor sha’niga,
Muqaddas ruh yaratgan
Barcha xilqat sha’niga
(Ta’zim ado etaylik).¹*

Mitrani sharaflashga bag‘ishlangan “Mehr yasht” alqovida esa eng buyuk ma’bud Mitra nurafshon yuzli xilqat sifatida tasavvur qilingan Tishtar yulduzi (Tarjimon bu o‘rinda hamuni o‘zbek tiliga “Zuhal” deb o‘g‘irgan)ga o‘xshatiladi:

*Mitraga topinurmiz...
U eng buyuk ma’buddir,
Muqaddas ruh tong saharda
Yaratgan uni qoldir
Yaratgan uni shu choq,
Oy to‘lishganda porloq.
Nur yog‘ilgan porloq yuz
Go‘yoki Zuhal yulduz.²*

Bu alqov so‘zlarning turli xil yashtlar tarkibida kelishi Tishtar yulduziga topinish an’anasi zardushtiylikning astral mifologiyasida yetakchi mavqega ega bo‘lganligi ko‘rsatiladi hamda uning deyarli barcha marosimlariga

¹Авесто. Яшм китоб // М. Исхоқов таржимаси. –Тошкент: “Шарқ”, 2001.15-бет.

²O‘sha manba, 70-bet.

ezgu ma'budlar qatorida uning nomini ham tilga olish urf bo'lganligidan dalolat beradi.

“Avesto”da Tishtar yulduzi osmon suvlarining egasi, yomg'ir yog'diruvchi va zaminga obi-hayot baxsh etuvchi farahbaxsh ma'bud sifatida talqin qilingan. U o'n besh yoshli navqiron yigit, baraka ramzi bo'lgan sigir va oq tulpor ko'rinishida namoyon bo'lib, odamlarga qut-baraka bag'ishlaydi. Ajdodlarimiz oq ot qiyofasida ko'rinuvchi qurg'oqchilik devi Apaosha bilan olishgan Tishtar zarnishon oq tulpor bo'lib Farog' Kart nomli samoviy daryodan suv olib kelib, zamin uzra sochadi deb o'ylaganlar.

Zardushtiylikning marosimlari orasida yomg'ir suvlari egasi Tishtarni sharaflash maqsadida o'tkazilgan an'anaviy marosim ham mavjud bo'lgan. Bunday marosimlar chog'ida sut qo'shib tayyorlangan xaoma bilan qo'lda barsman novdalarini ushlab turib, ezgu o'y, ezgu so'z va ezgu amal bilan Tishtar sha'niga atalgan alqovlar aytilgan. “Tiyr yasht” ana shunday marosimlar chog'ida ijro etishga mo'ljallangan alqovlardan tuzilgan qasida hisoblanadi.

OLOV KUL'TI

Zardushtiylikda muqaddas kul't sifatida e'tirof etilgan mifologik timsollardan biri olov hisoblanadi. Ma'lumki olovdan foydalanishning kashf etilishi insoniyat tarixida muhim burilish nuqtalaridan biri bo'lgan. Olov yorug'lik, issiqlik manbai sifatida odam hayoti uchun juda zarur narsalardan biri, ayni paytda uning yashin, chaqmoq, yong'in kabi ko'rinishlari esa qo'rqinchli hodisalar sifatida qadimgi odamni dahshatga ham solgan. Qadimgi odamlar olovda ilohiy bir qudratni, ezgulikning nur va issiqlikdan iborat o'ziga xos ifodasini ko'rishgan. Olovni muqaddaslashtirish asosida yuzaga kelgan ibtidoiy tasavvurlar asosida keyinchalik olov kul'ti shakllangan.

Qadimgi odamlarning mifologik tushunchalari sistemasida muhim o'rin tutgan va muqaddaslashtirilgan osmon yoritgichlaridan biri- quyoshga sig'inish an'analari ham olov kul'tining kelib chiqishida katta rol o'ynaydi. Chunki ular quyoshni o't manbai, ya'ni samoviy olov deb bilganlar. O'tmishda olov yoqish qiyin bo'lganligi uchun qadimgi odamlar dastlab olovdan foydalanishni o'rgangan vaqtlarida yashin tushib yongan daraxtlardan cho'g' olib yoqqanlar. O'tni o'chib qolishidan saqlash uchun qabila qarorgohidagi maxsus otashxonalarda gulxanning doimo gurillab yonib turishini ta'minlaganlar. Qabila oqsoqoli yoki

urug' sardori ana shu gulxan yonida turib, unga ko'z-quloq bo'lib turgan. Bu olovning o'chishi esa yovuz kuchlarning ishi deb tasavvur qilingan. Shuning uchun ham ular qabila olovini qo'riqlaganlar va uning ezgu kuchiga ishonib yashaganlar. Olovning samoviy tabiatga egaligi, ya'ni uning manbai osmonda ekanligiga ishongan qadimgi odamlar qabila olovini quyosh timsolida tasavvur qilingan ezgu ma'budning yerdagi ifodasi deb bilishgan. Qadimgi mifologik tushunchalarga ko'ra, "quyosh- samoviy olov, gulxon – zamin olovi, chaqmoq esa har ikki olovni bog'lab turuvchi vosita, ya'ni yerga tushgan osmon olovi" deb e'tirof etilgan.¹

Olovga sig'inish an'analari dunyodagi deyarli barcha xalqlarga ma'lum bo'lganligi ham tabiat kul'tining bu ko'rinishi qadimgi mifologiyaning mushtarak talqinlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Ammo jahon xalqlari mifologik tasavvurining tadrijiy rivoji davomida olov kul'tining talqinlarida hamo'ziga xos jihatlar yuzaga kelgan. Har bir xalq olovga o'z turmush tarzi va mifologik e'tiqodlarining spetsifikatsiyasidan kelib chiqib munosabatda bo'la boshlagan. Natijada olov to'g'risidagi turli xil miflar, afsonalar paydo bo'lgan. Olov kul'ti turkumiga mansub asotiriy syujetlar orasida olovning qo'lga kiritilishi, olovdan foydalanishning o'zlashtrilishi, olovning o'g'irlanishi, olovning paydo bo'lishi mavzulari yetakchilik

¹ Иванов Ю.В. *Обрядовый огонь // Календарные обычаи и обряды в странах зарубежной Европы. Исторические корни и развитие обычаев.* - М., 1983. С.116.

qiladi. Masalan, O'rtta Osiyoda yashagan qadimgi ajdodlarimiz mifologiyasidagi olov kul'ti ham "zardushtiylikda olov sofmuqaddas stixiya, ilohiy adolat, ya'ni arta timsoli sifatida tasavvur qilingan"¹.

Olovga sig'inish, ya'ni otashparastlik an'analari O'rtta Osiyoda yashagan qadimgi odamlar orasida tosh asridayoqvujudga kelgan edi. O'lkamizda olib borilgan arxeologik qazish ishlari olov kul'ti ajdodlarimiz dunyoqarashi va turmushida muhim o'rin tutganligidan dalolat beruvchi ko'plab ashyoviy dalillarni qo'lga kiritish imkonini berdi. Xususan, 1940-1945-yillar davomida qadimshunos olim S.P.Tolstov rahbarligida arxeologlar qadimgi Xorazm madaniyatiga mansub Jonbosqal'a hududidagi ibtidoiy ovchilar va baliqchilik yashagan makonlarni topib, o'rgandilar. Bu yerdagi qadimiy makonlarning birida doimo olov yonib turgan muqaddas o'choq qoldiqlari mavjudligi aniqlandi. S.P.Tolstovning yozishicha, o'choq chetiga sinch terilgan tor yo'lakchadan kirib, uning ostida esa o'choq tagiga solingan yarim metr qalinlikdagi qip-qizil kuygan qum topilgan".²

Ana shu makonni qazib ochishda qatnashgan o'zbek olimi Y.G'ulomov bu o'choqda o'chmaydigan muqaddas olov yonib turgan va urug' oqsoqoli bu olovga bosh-qosh bo'lib turganligini qayd qilar ekan, mazkur yodgorlikning topilishi zardushtiylikning genezisi haqida jiddiy

¹ Токарев С.А. *Огонь // Мифы народов мира.Т.2.- М.,1992,С.239.*

² Толстов С.П. *қадимги Хоразм маданиятини излаб.- Тошкент:Фан,1965,77-78-бетлар.*

mulohazalar bildirish uchun oson bo'lishi to'g'risida shunday yozadi: "Bizning olimlarimiz o'rtasida keyingi yillarda mazdaizm O'rta Osiyodan va hatto Xorazmdan kelib chiqqan degan fikr tug'ildi. Bu fikr qisman Bundahishning birinchi muqaddas olovni – "Adar Xurro"ni Jamshid Xorazmda yoqqan deb tasdiqlashi asosida tug'ildi. Xorazm tarixining keyingi davriga oid bo'lgan bu kabi makon va yodgorliklarning yana topilishi qadimgi O'rta Sharq xalqlari ideologiyasining rivojlanish tarixidagi juda muhim bo'lgan bu sharoit haqida dadillik bilan gapirishga imkon beradi. Biz necha ming yillar davomida bunday katta rol o'ynagan bu dinning asosini yanada chuqurroq qatlamlardan qidirishimiz kerak; xuddi shu yerda, fikrimizcha, qozoqlarda shu vaqtlarga qadar saqlanib qolgan "o't og'asi", ya'ni o't hokimi, boshlig'i yoki oqsoqoli degan terminning eron, aniqrog'i – so'g'd termini bo'lmish "katxudo" yoki "kotxudo" terminiga to'g'ri keladi"¹.

Darhaqiqat, mamlakatimiz hududida keyingi yillarda olib borilgan arxeologik izlanishlar davomida Sopollitepa, Jarqo'ton, To'g'oloq, Dashli, Qutlug' tepa, Tilla tepa kabi ko'plab yodgorliklar topib o'rganildi. Natijada bu yerlarda qadimiy shahar madaniyati mavjud bo'lganligi va unda istiqomat qilgan kishilarning diniy-mifologik tushunchalari sistemasida olovga sig'inish an'analari muhim o'rin tutganligini ko'rsatadi. Masalan, Surxondaryo viloyatining

¹Гуломов Я. Хоразмнинг сугорилиши тарихи.-Тошкент, 1959, 47-бет.

Sherobod tumanidan topilgan Jarqo‘ton yodgorligi olov kul‘ti bilan bog‘liq ritual marosimlar o‘tkazishi uchun mo‘ljallangan ibodatxona butun bir kompleksni tashkil etgan. Tevaragi qalin devor bilan o‘ralgan ibodatxonaning markazida muqaddas sajdagoh mavjud bo‘lgan. Sajdagoh yonida marosimlar chog‘ida ishlatiladigan muqaddas xaoma ichimligi tayyorlanadigan maxsus ustaxona joylashgan. Bu ibodatxonaning ochiq hovlisining o‘ng tomonida quduqlar bo‘lib, chap tarafida esa doirasimon shakldagi otashgohlarda doimo olov yonib turgan. Bu otashparastlar ibodatxonasi miloddan burungi XIV asrda qurilib, taxminan 500 yil davomida faoliyat ko‘rsatib turganligi aniqlangan.¹

Otashparastlik an‘analari va olov bilan bog‘liq qadimgi tasavvurlar zardushtiylikda ham o‘z aksini topgan. O‘tga sig‘inish udumlari asosida kelib chiqqan e‘tiqod va tushunchalar “Avesto” mifologiyasining shakllanishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan.

“Avesto”da bayon qilishicha, olov ham tuproq va suv singari Axuramazda tomonidan yaratilgan ilohiy narsalardan biri. Axuramazdaning olovi – Atar deb atalgan bo‘lib, Asha-Vahishta bu tabiiy stixiyaning mifologik timsoli sanalgan. Shuning uchun ham zardushtiylikda doimo yonib turuvchi olov muqaddas hisoblangan. Ular olov timsolida ezgulikning hayotbaxsh qudrati ifodasini ko‘rganlar.

¹ Асқаров А.А. Ўрта Осиёнинг энеолит ва бронза даври оташгохлари “Авесто” китоби-тарихимиз ва маънавиятимизнинг илк ёзма манбаи” мавзuidaги илмий-амалий семинар материаллари. 2000 йил, 6-декабрь.- Тошкент, 2000, 22-33 бетлар.

“Avesto” mifologiyasida Adar, Atar, Ozar kabi nomlar bilan ataluvchi olov Asha-Vahishta, ya’ni Ashah-haqiqat timsolida mujassamlashganligi aytiladi. Ashah-haqiqat olovning ruhi, uning himoyachisi, ko’pincha hayotbaxsh nur va issiqlik manbai hisoblangan olovning mifologik timsoli bo’lib keladi. “Yasna” tarkibiga mansub 34-hotning 4-bandida aytishlaricha, Axuramazdaning qudratli Ozari Ashah-haqiqat himoyasida kuchli va abadiydir. U Ashah-haqiqatni sharaflagan zotlarga imdod qo’lini cho’zadi, yovuz niyatli badkirdorlarni esa gunohga yarasha jazoga muhtalo etadi. Shuning uchun ham odamlar Atarni sharaflashni istaydilar:

“Ey, Mazda Axura!

Haqiqat-Ashah himoyasida sening qudratli Ozaringni istagaydirmiz, bu abadiydir va qudrat uningdir. Do’stlariga payvasta oshkor imdod qo’lini cho’zadi. Dushmanlari ozor va gunohiga nigohimiz o’ngida barham beradi”.¹

“Kichik Avesto” da Atar iloh, ya’ni ezgulik timsoli Axuramazdaning o’g’li sifatida tasvirlagan. Shuning uchun bo’lsa kerak, “Avesto”ning turli qismlarida bu mifologik timsol“ameshaspenta”lar sirasiga kiritilgan. Masalan, “Vendidod”ning o’n beshinchi farzandidagi 45-bandda bayon qilinishicha, “Axuramazdaning o’g’loni Ozar bir ayolni asragani kabi bir homilali ko’ppakni ham parvarish qiladi”².

¹ *Авесто. Ясна // Гулистон, 2000, 3-сон 52-бет. А.Сомъ таржимаси.*

² *Авесто. Тарихий – адабий ёдгорлик А. Махкам таржимаси.- Тошкент: “ Шарқ”, 2001. 156-бет.*

Nazarimizda,
olovkul'tizardushtiylike'tiqodlaritizimidayetakchimavqelar
danbiriniegalaganligisababliAtar(Ozar)
obraziningmifologiktalqiniyanadabo'rttirish,
takomillashtirishmaqsadidauniAmeshaspentalarqatorigaki
ritib, ulug'laganlar. Yuqoridagi fargardda esa olov
ko'rinishida mujassamlashgan mifologik qahramonning
homilador ayolga homiylik qilganligi haqidagi qadimiy
asotiriy syujetning qoldiq holdagi ko'rinishi o'z ifodasini
topgan.

Zardushtiyalar olovni tabiatning muqaddas
unsurlaridan biri bo'lib, Asha-Vahishta uning yer yuzi
olamidagi ko'rinishi deb bilganlar. I.V.Rakning
ma'lumotlariga ko'ra, hind-eron xalqlarining qadimiy
ajdodlari olovni juda mo'tabar tutishgan ekan. O'sha
davrlardayoq muqaddas stixiya sifatida e'tirof etilgan
olovning bir necha xil ko'rinishlari mavjud va oq tulpor
haqidagi mifologik tasavvurlar paydo bo'lgan. Masalan,
pahlaviy matnlarida qayd qilingan mifik qarashlarga
asosan muqaddas olov besh xil ko'rinishda namoyon
bo'ladi:

- 1) Vohufryana olovi – odam va jonivorlarning vujudidan
joy olgan bo'lib, ularga hayotiy qudrat baxsh etadi va
ovqat hazm bo'lishini ta'minlaydi. Bu olov odamzot va
jonzotlar ko'zida chaqnagan uchqun ko'rinishida
namoyon bo'ladi. Agar ana shu "hayotiy qudrat"
tanani tark etsa, ko'zdagi yolqin so'nib, jasad soviydi.

- 2) Urvazishta – nabotot olamida mujassamlashgan olov bo‘lib, u o‘simliklar urug‘i va donlarini zamin bag‘rida isitadi, o‘simliklarning gullashi ham uning sharofati tufaylidir.
- 3) Bersizava – osmoniy olov bo‘lib, butun olamga nur sochuvchi quyosh sifatida namoyon bo‘ladi.
- 4) Vazishta – bu ham olovning osmoniy turi bo‘lib, zardushtiylik mifologiyasida u chaqmoq sifatida tasavvur qilingan.
- 5) Spenishta – Atarning zaminidagi timsoli, ya‘ni gulxan ko‘rinishidagi olovdir. Zardushtiylik e‘tiqodicha, barcha otashgohlardagi muqaddas olovlar ana shu ilohiy gulxandan yondirilgan emish. ¹

Zardushtiylik mifologiyasida olov sakral, ya‘ni muqaddas deb tasavvur qilinganligi sababli ritual olovning ham uch xil turi farqlangan. Birinchi, Kavi Vishtaspning olovi Adur Vishtasp (keyinchalik Adur Gushnasp deb ham yuritilgan) bo‘lib, afsonalarga qaraganda Midiyada yoqilgan. Ikkinchisi, Eronda yoqilgan deb rivoyat qilinadigan Xvarno olovi, ya‘ni Adur Farnbagdir. Uchinchi Adur Burzin Mihr deb atalgan Mihr olovi hisoblanadi. Zardushtiylikning afsonalariga ko‘ra, dastlab Parfiyada yoqilgan bu olov shohlar, askarlar, koinlar, chorvadorlar va dehqonlarga bag‘ishlangan.

Bu uch olovning paydo bo‘lishi to‘g‘risida xilma-xil afsonalar yaratilgan. Ana shunday afsonalarning bittasida

¹ Рак И.В. Мифы древнего и средневекового Ирана.- СПб,1998,С.100.

zamindagi uch muqaddas-ritual olovning yonishi asotiriy hukmdor – Xaoshyanxa Paradata (ya'ni ho'shang)ning taxtga o'tirishi bilan bog'lab tushuntirilgan.

“Ord yasht”da aytilishicha, Xaoshanxa Paradata Xara tog'ining ostida Ashiga namoz yo'llab, undan ezgu omad so'rabdi:

*“Ber menga shunday omad,
To kuchim yetsin, Ashi,
Mozan devlarin yengay,
Qo'rqib ortimga yelmay-
Ularni ko'rganim choq,
Mendan cho'chib tumtaroq,
Qochishsin zulmat tomon,
Saqlolmay jonim omon”.*¹

Sharafnok Ashi unga tomon yuz burib, Xaoshyanxa Paradataning murodini hosil qilibdi. U Xara tog'ining ostida Ardisura Anaxita sharafiga yuz toy-u mingta sigir hamda behisob qo'ylarni qurbonlik qilib, o'ziga omad baxsh etishini so'rabdi. Taera tog'ining cho'qqisida esa shamol ma'budi Vayuga qurbonlik keltirib, qo'llashini iltijo qilibdi. Shundan keyin uning omadi kelib, boshiga Xvarno qo'nibdi va tog'dan pastga-vodiyga yo'l olibdi. Shu tariqa Xaoshyanxa Paradata hukmronligi boshlanibdi. Xaoshyanxa podsho bo'lgunga qadar odamlar o'rmonda o'sadigan daraxtlarning mevalari bilan tirikchilik qilishar, o'zlari ekin ekib, hosil yetishtirishni bilmas ekan.

¹ *Авесто. Яшт китоб // М. Исхоқов таржимаси. –Тошкент: “Шарқ”, 2001.36-бет*

Xoshyanxa Paradata odamlarga yer haydab, bug'doy ekishni, yerlarni sug'orishni, olovda non pishirishni o'rgatibdi. Uch muqaddas olov ham ana shu hukmdor davrida yoqilgan ekan.

Zardushtiylikka e'tiqod qilgan qadimgi odamlarning kosmogonik qarashlari, Zardushtning afsonaviy biografiyasi va olamdagi hayotning o'z nihoyasiga yetishi haqidagi esxatologik asotirlardan tuzilgan "Zatspram" (IX asr)da Xaoshyanxa Paradata hukmronlik qilgan davrda zaminda uch muqaddas olov yoqilganligi to'g'risidagi mifologik afsona quyidagicha bayon qilingan: "Xaoshyanxa hukm surgan davrda odamlar Sruvo nomli buqaga minib olgancha, Vorukasha dengizni suzib o'tib, boshqa kishvarlarga ko'chib o'ta boshlabdilar. Kunlardan bir kuni kechasi Vorukasha dengizda suzib borayotgan buqaning ustida o'tirgan odamlar altarda gurkirab yonayotgan muqaddas olovdan bahra olayotgan ekanlar (Atarning o'zi ham shu yerda hozir bo'lib turgan ekan), nogohonda olov dengizga tushib ketibdi. Atarning olovi uch qismga bo'linibdi va odamlar uni suvdan olib uchta otashgohga joylashtiribdilar. Shunday qilib, aslida yagona yolqin sifatida mavjud bo'lgan Atar uchta olov, ya'ni Farnbag (kohinlar olovi), Guhnasp (shohanshoh va jangchilar olovi) hamda Burzin-Mihr (o'troq jamoa va Mitra olovi) bo'lib, ibtido boshlabdi¹.

¹ *Рак И.В. Кўрсатилган асар, 169-бет.*

Uch muqaddas olovning paydo bo'lishi va zardushtiylikning mo'tabar kul'tlariga aylanishi haqidagi bu afsona syujeti o'rta asr manbalarida turlicha epik talqin qilinganligini tufayli uning bir nechta mustaqil variantlari shakllangan. Bu afsonaning ana shunday variantlaridan yana birida voqealar talqini Kavi Xaosrava sarguzashtlari fonida bayon qilingan.¹

Uch muqaddas olov haqidagi bunday afsonalar mifologiyasidagi kosmogonik qarashlar bilan aloqador. Atarning uch qismga bo'linishi va uch joygao'rnatilishi motivining genetik ildizlari dunyoning uch qismdan iboratligi to'g'risidagi mifik tasavvurlarga bog'lanadi. M. Jo'rayevning yozishiga qaraganda, "olaning uchta bo'linishi haqidagi tasavvurlar asosida paydo bo'lgan uchlik struktura qadimgi turk mifologiyasida universal kosmik model hisoblangan. Ko'k-Zamin-Yer osti uchligi ilk miflar qahramonlarining butun faoliyatini o'zida mujassamlash-tirgan epik makon arealidir"².

Avval yaxlit substansiya sifatida tasavvur qilingan Atarning uch qismga bo'linishi va Adur-Farnbag, Adur Gushnasp va Adur Burzin Mihr kabi uchta muqaddas olovning paydo bo'lishi haqidagi mifologik qarashlarning zaminida ham olaning uch qismdan iboratligi to'g'risidagi tasavvurlar yotadi. Zardushtiylik mifologiyasida olov butun olamga taalluqli kosmik

¹ Рақ И.В. Кўрсатилган асар, 242-бет.

² Жўраев М. Ўзбек халқ эртаклари сеҳрли рақамлар. – Тошкент: Фан, 1991, 59-бет.

substansiya deb qaralgan. Shuning uchun ham yaxlit Atarning uch olov sifatida yondirilishi olamning uch kosmik qismdan tashkil topganligini anglatadi.

Bizingcha, Adur Burzin Mihr dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanuvchi o'troq aholi va quyosh ma'budi Mitraga bag'ishlanganligi uchun "samoviy olov" hisoblangan va Ko'kka taalluqli deb qaralgan. Asnavand ("Avesto"da Asnavau deb atalgan) tog'iga o'rnatilgan Adur Gushnasp yovuz kuchlarga qarshi kurashuvchi jangchilar va shohanshohlarning yo'lini yoritib, devlarni quvganligiga asoslanadigan bo'lsak, u quyi olam – yer ostidagi yovuz kuchlarga qirg'in keltiruvchi Axuraviy timsol ekanligi ma'lum bo'ladi. Kohinlar olovi sifatida muqaddaslashtirilgan Adur Farnbag esa Yer yuzi – Zamin bilan bog'langan. Umuman olganda, "Avesto"da qo'llanilgan uch raqamli va u bilan aloqador bo'lgan obraz (uch og'iz Aji dahaka), motiv (Tishtriyaning Apaosha bilan uch marta olishuvi) va boshqa detallarning zamini bu magik raqam to'g'risidagi qadimiy mifologik qarashlardir.

Olov kul'ti bilan aloqador mifologik tasavvurlar "Yashtlarda ham o'z aksini topganligini "Zamyad yasht" misolida ko'rishimiz mumkin. Bu yashtning 45-50-bandlarida bayon qilingan mifologik tasavvurlarga ko'ra, ilohiy omad timsoli hisoblangan Xvarno uchinchi bor Yimani tark etib, tutqich bermay qochib ketganida u yetib bo'lmas xilqatga aylanadi. Eng lutfli va eng afzal bu xilqatga valiyalar ham, yovuz ruhlar ham yetolmagan bir paytda

Axuramazda uning ortidan eng uchqur choparlarini yuboribdi:

*Shu Xvarno yo'lida
Kabih ruh ham, Valiy ham
Kurashib yetolmadi.
Har biridan tez yurar,
Choparlar berdi unga:
Muqaddas Ruh – Vaxumanni
Va Artani yubordi.
Muqaddas Otashni ham –
(Bu zot asli Axura)
Mazdaning o'g'li edi¹.*

“Avesto” mifologiyasida Vohu Mana ameshaspentalardan biri bo'lib. Axuramazdaning ulug'vor sifatlaridan eng muhimi ezgulikning nurli in'ikosini o'zida mujassamlashtirgan bu ma'bud nomini bildiruvchi atama «ezgu o'y», «ezgu niyat» degan ma'noni bildiradi. Zardushtiylikdagi dualistik qarashlarga ko'ra, Voxu Mana yovuz devlardan biri – Aka Managa qarama-qarshi qo'yiladi. Keyinchalik Bohu Mana haqidagi mifologik tasavvurlar takomillashtirilishi natijasida u chorva mollari hamda chorvachilik bilan shug'ullanuvchi qavmlarning homiysi sifatida talqin qilina boshlangan.² Avestoshunos olimi M.Boysning qayd qilishicha, sigirning zardushtiylikda

¹ Авесто. Яшит китоби // М. Исхоқов таржумаси.- Тошкент: “Шарқ”, 2001. 117-бет.

² Рақ И.В. Қўрсатилган асар, 454-бет.

ezgulik timsoli sifatida e'zozlanishi ham bevosita Vohu Mana haqidagi qarashlar bilan bog'liq bo'lgan³.

Shunga ko'ra, Xvarnoning huzuriga Atar bilan birgalikda Vohu Mananing yuborilishi bejiz bo'lmagan. Chunki zardushtiylik mifologiyasida dastlabki Atar Sarsaoka nomli ho'kiz ustiga o'rnatilgan, uch muqaddas olovning paydo bo'lishida ham bu jonivor ishtirok etadi. Bu esa zardushtiylikda olov bilan ezgu fikr bir-biriga chambarchas bog'langan tushunchalar sifatida e'tirof etilganligi va bu qarashlar "Avesto" mifologiyasida ham o'z ifodasini topganligini ko'rsatadi.

Yuqorida qayd qilinganidek, zardushtiylikda Vohu Mananing antipodi - dushmani Aka Mana nomli devdir. «Zamyad yasht»da ham Xvarnoga yordam berish uchun yuborilgan Atar bilan Vohu Managa qarshi qo'yilgan yovuz kuchlar boshida Aka Mana devi turadi. Uning yonida kelgan Axrimaniy kuchlardan biri - uchboshli Zakhok (avestocha «Aji dahaka») yetib bo'lmas Xvarnoni qo'lga kiritish uchun unga hamla qiladi. Shunda Axuramazdaning mard o'g'loni Atar ezgu omad ramzini o'z himoyasiga oladi:

*Xvarno tomon uchdi,
Axuramazda olovi
Xayolida bitta o'y:
«Yetib bo'lmas Xvarnoni
Qanday qo'lga kiritay?»
Lekin uning ortidan*

³ Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи. – М.: Наука, 1988, С.33.

*Quvladi ilon Zahhok
Koshki so'zi; bo'ralab:
«Qayt orqangga, tegmagin,
Axuramazda Olovi!
Qo'l yetmasga tegmagin.
Gar sen unga qo'l ursang,
Seni etarman halok,
Haq dunyosin qo'riqlab,
So'ng nur taratolmayсан,
“Axura bergan Yerga”¹.*

Ko'rinib turibdiki, bu alqov olov kul'ti bilan aloqador muhim bir masala, ya'ni Atarning funksiyasini oydinlashtirish imkonini beradi. Atarning asosiy vazifasi Axuramazda bergan zaminga nur taratib, uni himoya qilish, yovuz kuchlardan qo'riqlashdan iborat deb tasavvur qilingan. Shuning uchun ham Atar xvarnoni qo'lga kiritib, zaminni zimiston qa'riga cho'ktirmoqni niyat qilgan ilon Zahhokka qarshi kurashga o'tlanadi. Ammo ilon Zahhok juda qo'rqinchli va dahshatli edi. Dastavval o'z jonini ayagan Atar xvarnodan qo'lini tortadi. Uch og'iz ilon xvarnoni egallamoqchi bo'lib yopirilganini ko'rgach esa, Axuraning o'g'li uni izma-iz quva boshlaydi:

*Olov Axura o'g'li
Otildi, deb ushbuni:
«qayt ortingga, tegma, hey,*

¹ *Авесто. Яит китоби // М. Исхоқов таржимаси.- Тошкент: “Шарқ”, 2001. 117-бет.*

*Uch og'iz ilon Zahhok,
Bul qo'l yetmasga tegma!
Agar qo'ling tekkizsang,
Orqangdin yonib kirib,
Og'zingga o't qo'yarman.
Axura bergan Yerga
Shundan so'ng chiqolmassan...
Ikkala panjasini
(Muqaddas Xvarnodan)
Tortdi uch boshli Zahhok
O'z jonini avaylab
Qo'rqinchli edi Olov»¹*

Demak, «Zamyad yasht»da Axuramazdaning o'g'li deb ta'riflangan Atar ezgu omad timsoli hisoblangan Xvarnoning himoyachisi, qo'riqchisi va zaminni yovuz kuchlardan asrovchi muqaddas xilqat sifatida tasvirlangan.

Olov kul'ti zardushtiylik mifologiyasida hamda bu e'tiqodga sobit bo'lgan qadimgi ajdodlarimizning marosimlarida muhim ahamiyatga molik deb qaralgan. Olovning zardushtiylik marosimlaridagi funksiyalariga doir ma'lumotlar «Avesto»ning «Goh» va «Vendidod» qismlarida ko'proq saqlanib qolgan. Zardushtiylik aqidalariga ko'ra, Axuramazda diniga e'tiqod qilishning asosiy belgisi olov huzurida ezgulik ma'budiga namoz yo'llashdir. Bu haqda «Ushtavad goh»ning 9-bandida shunday deyiladi:

«Ey, Mazda Axura! qachonki Ezgu niyat mening qoshimga keldi va so'rdi:

¹*O'sha manba, 36-bet.*

-Sen o'zingni qanday qilib tanitgaysen?

Men unga javob berdim:

-Sening Ozaring huzurida keltirgum namoz bilan.

Toki vujudimda kuch-qudrat bor ekan, haqiqat bilan andisha qilgumdir, haqiqatda, men seni pok deb bildim»¹.

Olov kul'ti «Avesto» mifologiyasida muhim o'rin tutganligi sababli qadimgi zardushtiylik kalendaridagi oylardan biri ham Atar nomi bilan atalgan va olov sharafiga bag'ishlangan. Podsho Doro I tomonidan Behistun qoyasiga uch tilda o'yib yozdirilgan yozuvda qayd qilinishicha, qadimgi zardushtiylik kalendarida bo'yicha yangi yil quyosh hamal burjiga kirganidan, ya'ni «Adukanish» – «oqar suv yo'llarini tozalash» oyidan boshlangan. Bu hisob bo'yicha to'qqizinchi oyning nomi «Ashiyadya» bo'lib, «olovga topinish» degan ma'noni anglatgan.² Hozirgi kalendar bo'yicha noyabr-dekabr oylariga to'g'ri keladigan Ashiyadya oyida zardushtiylik ibodatxonalarida olov ma'budiga bag'ishlangan marosimlar o'tkazilgan. Bu oyni qadimgi eronliklar va parfiyaliklar Atara deb ataganlar. O'rta asr fors adabiyotiga oid manbalarda esa olovga bag'ishlangan oyning nomi Adur deb berilgan.

Zardushtiylikning asosiy marosim va rituellari olov qoshida, otashgohlarda bajarilgan. Olov sharafiga bag'ishlab o'tkazilgan an'anaviy tantanalarning eng

¹ *Авесто. Тарихий – адабий ёдгорлик А. Махкам таржимаси.- Тошкент: “ Шарқ”, 2001. 19-бет.*

² *Литература древнего Востока. Тексты. –М.:1984, С.43.*

asosiylaridan biri Sada bayramidir. Qishning boshlanishida o'tkazilgan bu bayram kuni odamlar gulxan yoqib, uning atrofida o'yin-kulgu qilishgan. Olovni alqaydigan duo-olqishlar ijro etilgan. Manbalarda yozilishicha xorazmlik zardushtiylar kalendari bo'yicha to'rtinchi oyning Ajg'ar deb atalgan kuni olovga bag'ishlangan¹. Ajg'ar atamasi «alanga» ma'nosini bildirar ekan. Sug'diylar ham Mitraga bag'ishlanganyettinchi oyda o'chmas olov turadigan otashkadalarda maxsus marosim o'tkazganlar. O'sha kuni un, moy va qand qo'shib tayyorlangan pishiriqlarni iste'mol qilishgan. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, so'g'dlarning barcha katta og'om(bayram)lari otashkadalarda yoki olov ma'budiga atab qurilgan ibodatxonalarda o'tkazilgan².

Bizningcha, Zardushtiylarning olov kul'ti bilan aloqador bunday bayram va marosimlarining ayrim ko'rinishlari bu dinga e'tiqod qiladigan kishilar islomni qabul qilganliklaridan keyin ham ma'lum darajada saqlanib qolgan. Xususan, xalqimiz orasida qadimdan o'tkazib kelingan safar qochdi va oxir chorshanba marosimlarining genezisi olov kul'tiga sig'inish an'analari bilan bog'lanadi. Bu har ikki marosimda ham odamlar ko'chalarda maydonlarda gulxanlar yoqishib, olovning ustidan sakraganlar. Bu marosim gunohlardan tozalanish,

¹Шмидт А.Э. Материалы по истории Средней Азии и Ирана // Ученые записки Института востоковедения. Т.XVI. – Л., 1958, С.494.

² Беруний Абу Райхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар.- Тошкент, 1961, 275-бет.

poklanish maqsadida o'tkazilgan. Uning zaminida olovni homiy kuch deb tasavvur qilishga asoslangan qadimgi e'tiqodlar yotadi.

Zardushtiylikning olov kul'tiga sig'inishiga asoslangan an'anaviy marosimlardan yana biri muqaddas olov sharafiga qurbonlik keltirib, "nayr'o sangha" deb atalgan maxsus duoni o'qish hisoblangan. I.V.Rakning aniqlashicha, "nayro sangha" atamasi "olov ma'budini sharaflash" degan ma'noni bildirar ekan.¹

Atar-olov sharafiga bag'ishlab o'tkazilgan bu marosimda Axuramazdaning nurli in'ikosi haqiga qurbonlik qilingan. Odatda qurbonlikka atalgan narsalar – quruq o'tin, quritilgan o'tlar va yaproqlar hamda ozgina mol yog'idan iborat bo'lgan. Zardushtiylik muqaddas olov butun olamni yovuz ruhlardan qo'riqlab turishi uchun uni ham qo'llab-quvvatlab turish kerak, quruq o'tin, o't-o'lan va yaproqlar hamda mol yog'i unga kuch-quvvat beradi deb o'ylaganlar. Bu marosim har kuni uch marta o'tkazilgan. M.Boysning qayd qilishiga qaraganda, kohinlar har kuni erta tongda, tush payti va quyosh botishidan avval otashkadaga o'tin bilan quritilgan o'simliklarni olib kelganlar. Olovni mol yog'i bilan siylash udumi esa taom pishirilayotgan paytda bajarilgan. Buning uchun ovqat pishirayotganda olovga ozgina moy tashlaganlar.²Bu udumning ma'lum bir izlari o'sh viloyatida yashovchi turk

¹ *Рак И.В. Кўрсатилган асар, 11-бет.*

² *Бойс М. Кўрсатилган асар, 11-бет.*

urug'iga mansub qavmlar orasida saqlanib qolgan "o'tga chaqirdi" odatiga ham saqlangan. Folklorshunos O.Ismonovning ma'lumot berishicha, "Aravon tumanidagi Chekobod qishlog'ida nikoh to'yidan keyin "o'tga chaqirdi" udumi o'tkaziladi. Kelinni yangalari o'choq yoniga olib keladi, avval kelin, so'ng qolganlar o'tga yog' quyadilar"¹. Bu udum zardushtiylik ta'sirida kelib chiqqan bo'lib, muqaddas olovni sharaflash va unga qurbonlik keltirish an'analarini o'zida mujassamlashtirgan.

Zardushtiylar olov ma'budi Atarning sharafiga maxsus otashkadalar va ibodatxonalarni bunyod etganlar. Ana shunday otashkadalardan bir qismi Varaxranga bag'ishlab qurilgan bo'lib, unga o'rnatilgan muqaddas olov Adur Varaxran yoki Adur-Bahram deb atalgan. Harbiy shonshuhurat va g'alaba sharafiga qurilgan bunday otashkadalarda hamisha muqaddas olov yonib turgan. "Adur-Bahram" yoki "Bahrom olovi" tushunchasi "Avesto"da ham qayd qilingan. Xususan, "Vendidod"dagi 8-fargardning 9-bo'limi to'lig'icha Bahrom olovi bilan aloqador xalq qarashlarini bayon etishga bag'ishlangan.

Zardushtiylar e'tiqodicha, Bahrom olovini yoqish, uni quruq o'tin bilan ta'minlab turish savobdir. Yuqoridagi fargardda murdor yoquvchi olovni Bahrom oloviga aylantirgan kishining o'limidan keyin topajak savobi "bu moddiy olamda Bahrom oloviga o'n ming pora olovni

¹Исмонова О. Ўзбек тўй маросим фольклорида "келин салом" жанри. Номз.Дисс.-Тошкент, 1999, 28-бет.

keltirib qo‘shgan bilan barobardir” deyiladi. Bundan tashqari, dori-darmon tayyorlaguvchilar, suv isituvchilar, ohakpazlar, sopolchilar, omoch yasovchilar, zargarlar, siym, qalay, temir erituvchilar olovini Bahrom oloviga aylantirish, muqaddaslashtirishning sababi ham birma-bir aytib o‘tilgan. Shuningdek, tandir, o‘choq, urdugoh olovi, cho‘ponlar, ko‘chmanchilar va xonadon olovini mo‘tabar tutishning ahamiyati bayon etilgan.

Olov muqaddas deb bilinganligi uchun otashkadada yolg‘on so‘zlash, go‘stohlik qilish mumkin bo‘lmagan. Chunki bunday gunoh qilgan kishining yozug‘i afv etilmagan. “Avesto”da yozilishicha, “yonib turgan olov qarshisida go‘stohlik qilgan zotning topgusi jazosi bu dunyoning jamiyki dard-u ozorlaridan mudhishdir”¹

Mazdaparastlar odatiga ko‘ra, bulg‘angan kishilarni poklash marosimi ham muqaddas olov vositasida amalga oshirilgan. Chunki Atar dunyodagi jamiki narsalarni yovuzlikdan himoya qiluvchi va poklovchi xilqat deb tasavvur qilinganligi sababli zardushtiylar Axuramazdaning “kimki poklovni shod aylasa, u olovni xushhol etgan bo‘ladi”² degan o‘gitiga amal qilib yashaganlar. Zardushtiylikda “bulg‘angan kimsa” deganda Axuramazdaning ezgu o‘y, ezgu so‘z va ezgu amaliga imon keltirish o‘rniga Axrimaniy fikr, kalom va amalga rioya etgan odam nazarda tutilgan. Odatda bunday odam o‘limga

¹ *Авесто. Вендидод // Гулистон, 1999, 3-сон, 51-бет (А.Сомеъ таржимаси).*

² *Авесто. Вендидод // Гулистон, 2000, 1-сон, 32-бет (А.Сомеъ таржимаси).*

mahkum etilgan va kohinlar uch kecha-kunduz davomida olov tevaragida qo'llarida barsam novdalarini tutganicha, xaoma sharbati bilan ezgulik ilohlari sha'niga salovotlar aytishgan. Muqaddasolov atrofida bu marosim bajarilmasa, "bunday zaminga na osoyishtalik va na farovonlik, na tandurustlik va na darmon, na barakot va na afzunlik, na bug'doy va na giyohlarning unumdorligi va serhosilligi nasib etmaydi" deb o'ylaganlar.

O'lik chiqqan xonadonlarni ham olov bilan poklash marosimi o'tkazilgan. Bunday xonani poklash rasmi odatda ikki xil yo'sinda bajarilgan: ba'zan o'lik chiqqan xona suv bilan uch marta yuvilgan va kohinlar gohlarni uch marta qiroat bilan o'qishgan. Gohida esa muqaddas olovga nazr aytib, xonadon egalariga barsam dastasi taqdim etilgan va ezgulik suvidan ichirilgan. Shundan keyin bu xonadon poklangan bo'lib, unga olov, suv hamda Ameshaspentalar tashrif buyurishadi deb ishonganlar.

Xullas, olov O'rta Osiyoda yashagan qadimgi odamlar dunyoqarashida muqaddaslashtirilgan tabiat kul'tlaridan biri sifatida tan olingan. Olovga sig'inish yoki otashparastlik an'alarining ayrim qirralari zardushtiylikdan keyin ham xalqimizning marosim va udumlariga, folklor asarlariga singib ketgan. Ammo xalq orasida olov bilan bog'liq odatlarning tagzami zardushtiylik bilan aloqadorligi haqidagi ishonchlar XX asrga qadar yashab kelganligini Rahmatulla Yusuf o'g'lining quyidagi so'zlaridan ham bilib olishingiz mumkin:

“Jumladan olovdurkim, olovni xudo deb bilmak Zardusht mal’undan qolgan. Undan keyin odamlar musulmonlashib, tag’in qancha zamonlar o’tib, haligacha ham ba’zi ahli hurofot orasida saqlanib qolgan. Shundan qabrga chiroq yoqib kelmoq, “falonchining chirog’io’chmasin”, “yonganning chirog’i o’chmasin”, – degan so’zlar yoki o’lgan kishilarning go’riga chiroq yoqmoq va chiroq orqali hid chiqarmoqqa aloqadordur. Bu afsonaga qaraganda, odam o’lsa ham chiroqdan ravshanlik, hiddan bahra oladi. Ko’chganda olov o’rtasidan o’tkazmoq, kuyov va kelinlarga olovga salom soldirmoq irimlari ham olovga bog’liq”¹.

Haqiqatan ham, xalqimiz orasida olov bilan bog’liq holda bajariladigan udum, marosim va irim-sirimlar nihoyatda ko’p. Masalan, kelin-kuyovni olovdan aylantirish, kasallarni alas-alas qildirish, juma oqshomida chiroq yoqish, o’lik chiqqan xonadonga pilik yoqish, is chiqarish, isiriq tutatish, olov va kulga siymaslik, yangi tushgan kelinning o’choqqa dumba yog’i tashlashi, kuyovnavkarlar kelinnikiga borayotganda mash’ala yondirib borishi kabi udumlar aslida otashparastlik va olov kul’ining asrlar davomida o’zgarishlarga uchragan holda saqlanib qolgan turli ko’rinishlaridan iboratdir.

“Avesto”dagi olov kul’ining antropomorf talqini hisoblangan Atar obrazining genetik ildizlari esa qadimgi

¹ *Боболардан қолган нақллар (Тўплаб, нашрга таёрловчилар: М.Жўраев ва У.Сатторов), -Тошкент:Фан, 1998,67-бет.*

hind-yevropa mifologiyasidagi *atharyu* timsoliga bog‘lanadi. *Atharyu* atamasi “alangalanuvchi” degan ma‘noni bildirib, “Rigveda”da olovning epiteti sifatida keng qo‘llanilgan¹. Bizning nazarimizda, olovga muqaddas kul‘t sifatida e‘tiqod qilish an‘anasi tosh asrida yashagan qadimgi odamlar dunyoqarashi bilan bog‘langanligi sababli “Avesto” va “Rigveda”dagi olov ma‘budi obrazi ham mushtarak manba asosida shakllangan. Bu qadimiy kul‘tning zardushtiylikda yuksak darajadagi e‘tiqod obyeksi maqomi uni diniy marosimlarning ruhiy markaziga aylantirgan. Bu esa Mazdayasna (Mazdaga sig‘inish) dinining “otashparastlik dini” deya soddalashtirilgan, aslida esa xato nom bilan atalishiga sabab bo‘lgan.

SUV KUL‘TI

Ma‘lumki, dehqonchilik bilan juda qadim vaqtlardan buyon muntazam ravishda shug‘ullanib kelgan O‘rta Osiyo xalqlari turmushida suv alohida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Shuning uchun ham bu yerda shakllangan mifologik qarashlar tizimida suv kul‘ti alohida o‘rin tutib kelgan. Suv yerning qoni bo‘lganligi tufayli qadimgi kishilarning dehqonchiligi bevosita suv bilan bog‘langan edi. Yerdagi hayotning paydo bo‘lishi suv bilan bog‘lab

¹ *Телеков Л.А. Атар // Мифы народов мира. Т.1.-М.,1992, С.120.*

tushuntirishga asoslangan mifologik qarashlar ham suv kul'ti ta'sirida yuzaga kelgan.

Suv kul'ti va uning mifologik ifodalari jahondagi ko'pgina xalqlar folklorida mavjud ekanligi olimlar tomonidan qayd qilingan.¹ Daryo, ko'l, chashma, dengiz, quduq kabi suv havzalarini muqaddaslashtirish, shuningdek, obihayot suvihaqidagi tasavvurlar, yomg'ir yog'dirish va uni to'xtatish marosimlari, nikoh suvi ichirish, yangi tug'ilgan chaqaloqni birinchi marta yuvintirish, marhum ham aslida qadimiy suv kul'tining turli-tuman ko'rinishlari hisoblanadi.

Zardushtiylikda ham suv kul'ti muhim o'rin tutgan. Atoqli avestoshunos M.Boysning yozishicha, "zardushtiylik kul'tlarining asosiy ob'yektlari suv bilan olov hisoblanadi. Suv sahrolarga hayot baxsh etgan, zero miloddan burungi V ming yillikka qadar yomg'ir nihoyatda kam bo'lganligi tufayli ko'p joylar bepoyon cho'llarga aylangan deb taxmin qilinadi. Hind-yevropa xalqlarining eng qadimgi ajdodlari, ya'ni protohindyevropaliklar daryo va boshqa suv havzalarini iloha Apasning moddiy ifodasi sifatida

¹ Франк-Каменский И. Вода и огонь в библейской поэзии // Яфетический сборник.- М.Л., вып.3.-1925, С.130-135; Богомолова К. Следы древнего культа воды у таджиков // Известия отделения общественных наук АН Тадж., вып. 2, 1952, С.117-121; Филимонова Т.Д. Вода в календарных обрядах // Календарные обычаи и обряды в странах Зарубежной Европы.- М. 1983.С.130-144; Жуманазаров У. Ёмгир ва сув култи // У.Жуманазаров. Тарих, афсона ва дин.-Тошкент, 1990, 19-30-бетлар; Мусақулов А. Сув култи // А.Мусақулов ўзбек халқ лирикаси.-Тошкент; 1995, 55-61-бетлар;

muqaddaslashtirib, uning sharafiga qurbonlik marosimlari o‘tkazganlar”¹.

Zardushtiylikda suv muqaddas ne‘mat hisoblangan. Shuning uchun ham “Avesto” ning quyosh alqoviga bag‘ishlangan “Xurshed yasht”ida oftob nurini emib bahravor bo‘lgan oqar suvlar va turg‘un suvlarning muqaddasligi haqidagi mifologik tasavvurlar ifodasini topgan:

*Quyosh balqib chiqqanda,
Mazda bergan yer balqir,
Oqar suv balqir shunda,
Qaynar buloq suvlari,
Barcha xilqat yashnaydi,
Muqaddas ruhlar qalqar,
Quyosh chiqqan chog‘ida.
Mazda bergan yer yayrar,
Muqaddas nurin emib,
Suvlar bari bahravor,
(Bo‘lar quyosh chiqqanda),
Oqar suvlar muqaddas,
Buloqlar ham savobdor,
Turg‘un suvlar, dengizlar,
Barcha xilqat muqaddas,
Barcha ruhlar muqaddas,
(quyosh balqib chiqqanda).²*

¹ Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи.- М: Наук, 1987, С.10.

² Авесто. Яшт китоби // М. Исхоқов таржимаси.- Тошкент: “Шарқ”, 2001. 36-бет.

Bunday alqovning quyosh sharafiga bag'ishlangan yasht tarkibida kelganligi bejiz emas. Chunki zardushtiylik mifologiyasiga ko'ra, quyosh nur sochishi bilanoq tun bo'yi hukm surgan yovuzliklar ortga chekinib, ezgulik tantanasi boshlanadi. Quyosh nuri tushishi bilanoq eng mo'tabar xilqatlardan biri-suv ham muqaddas bo'ladi. Shuning uchun ham zardushtiylik marosimlari, masalan zavr marosimi uchun zarur bo'lgan suv erta tongda, quyosh ufqdan endigina bosh ko'targan paytda olingan. Bu paytda olingan suv tabarruk va muqaddas hisoblanadi.

Zardushtiylikning deyarli barcha marosimlarida ijro etilgan alqov va duolarda suv olqishlangan. Chunki suv jamiki narsalarni poklaydigan, zamindagi o'simliklarga jon beradigan, jonivorlarning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan sharoitni yaratadigan, mo'l hosilni ta'minlaydigan ulug'vor ne'mat deb qaralgan. "Avesto"ning ikkinchi yashti, ya'ni yetti nafar muqaddas iloh – Ameshaspentalar sharafiga kuylangan o'n besh bandlik "Yetti kichik yasht"ning o'n ikkinchi bandida "Mazda yaratgan ashavan va yurgun otga monand suvni olqishlaymiz"¹ deyilgan. Bu alqovda umrini sodiq e'tiqod bilan o'tkazgan kishilarning ruhlari-ashavanlar bilan bir qatorda hayotbaxsh ne'mat-suv ham sharaflangan. Suvning ashavan deb tariflanishi muhim ma'no umumlashmasiga ega. Zero ashavan sifati arta-"haq, haqiqat", ya'ni imon qo'riqchisi kabi talqin

¹ *Авесто. Яштлар. Етти кичик қасида (Етти кичик яшт) // Гулистон, 2000, 5-сон, 36-бет (А.Сомеъ таржимаси).*

qilingan va Mazdaga e'tiqoddagi insonga nisbat berilgan. Bu o'rinda ezgulik xizmatidagi suv ham ma'lum ma'noda personifikasiyaga uchrab, imonli zot kabi ashavan deb ta'riflanmoqda. Etimologik jihatdan ashavan "arta" – "haq", bon – "qo'riqlash" ya'ni haqiqatni qo'riqlamoq, haqiqatga erishmoq demakdir.

"Avesto"ning "Yetti buyuk yasht" deb atalgan alqovida suv olqishiga bag'ishlangan alohida bandlar mavjudligi esa suv kul'ti zardushtiylikda katta mavqega ega bo'lganligini ko'rsatadi. Xususan, 25-bandda olamdagi jamiki suvlar uch toifaga bo'linishi va ular xilqatni pok aylaganligi uchun ikki jahon saodatiga musharrafligi bois e'zozlanishi aytiladi:

"Nihoyat suvlarni olqishlaymiz. Quyi oqguvchi, yig'iluvchi va ravon oqguvchi ezgu niyatli axuraviy suvlarni madh etamiz.

-Ey, suvlar! Sizlar yaxshilik bilan ravonasiz. Xilqatni yuvib, pok etasiz va ikki jahon saodatiga musharrafisiz. Biz sizlarni e'zozlaymiz!"¹

Axuraviy ne'mat hisoblangan suvning Axuramazda tomonidan in'om etilgan turli xil ismlari mavjud bo'lgan. Zardushtiylikda suvning o'sha ismlarini aytib olqishlash udumi mavjud bo'lganligi yuqoridagi yashtning 26-bandida shunday bayon etilgan:

Sizlarni, ey yaxshi suvlar, xushnudlik bag'ishlaguvchi Axuramazda in'om aylagan ismlar bilan olqish etamiz.

¹ *Авесто. Тарихий – адабий ёдгорлик А. Махкам таржимаси.- Тошкент: " Шарқ", 2001. 227-бет.*

O'sha nomlar vositasida sizlardan do'stlik orzusidamiz. O'sha nomlar bilan namoz keltiramiz. O'sha nomlar bilan minnatimizni izhor qilamiz"¹.

Bizningcha zardushtiylikda suvlar oqar (ya'ni daryo, irmoq, ariq, buloq suvlari) va turgun (dengiz, ko'l, hovuz suvlari) suvlarga bo'lingan. "Yetti buyuk yasht"ning 25-bandida esa suv quyi oqguvchi (yomg'ir) yig'iluvchi (dengiz, ko'l) va ravon oqguvchi (daryo, buloq) kabi turlarga bo'lingan. Suvning ana shunday turli ko'rinishlari alohida nomlangan bo'lishi kerak.

Ushbu yashtning 27-bandida hosilga baraka ato qiluvchi suv muqaddaslikda ona va sigirga qiyos qilingan:

"-Ey, barakatli suvlar!

Sizlarni imdodga chorlaymiz; sizlar onalar misolisiz, sog'in sigirlar kabiparvarish qilguvchisiz va barcha ozuqalardan yaxshiroq, xushroqdirsiz.

Sizlarni, ey qudrati osmon qadar bo'lgan zabardast yaxshilar, bu yerga chorlaymiz, toki bu tanglikda bizga madad bergaysiz va qo'llagaysiz, ey barhayot volidalarimiz"²

Bizningcha, bandning oxiridagi alqov so'zlari zardushtiylikdagi yomg'ir chaqirish marosimida ijro etiladigan an'anaviy matndan olingan bo'lishi kerak. Chunki zardushtiylikda suv gavhariniaqlovchi yulduzlar haqidagi mifologik tasavvurlar mavjud bo'lgan. "Tiy

¹ O'sha manba, 227-bet.

² O'sha manba, 227-bet.

yasht”da o‘z ifodasini topgan mifologik qarashlarga ko‘ra yerdagi jamiki suvlarning manbai –obi hayot gavhari Tishtar yulduzida saqlanadi. Shu bois yovuz Axriman “suv gavharini asraguvchi tamomiy yulduzlarni mahv etish maqsadida” parilarni qo‘zg‘agan. Ammo sharafnok Tishtar parilar ustidan g‘olib chiqib ularga shikast bergan va Axuramazdaning xohishi bilan porloq subhidamda bod to‘la olis yo‘llarga, ma‘budlar amr etgan serob manzillar sari otlangan. Zaminni suv bilan ta‘minlovchi Tishtar yulduziparilarni Farog‘kart daryosi bo‘yidan quvib yuborgach, bulutlar to‘p-to‘p bo‘lib kela boshlaganlar. Bu esa xayrli yildan darak berardi. Tishtar sersuv bulutlarni zamin uzra yo‘naltiradi. “Tiyr yasht” talqinicha, “Sershitob yomg‘ir sellari–yetti iqlimga parokanda bo‘lguvchi jo‘j-xurujli suvlar ana shu bulutlardadir”.¹ Zamindagi jamiki suvlarning gavhari osmonda, ya‘ni Tishtar yulduzida joylashgan deb o‘ylagan zardushtiylar qurg‘oqchilik bo‘lganda “osmon qadar zabardast bo‘lgan yaxshilar”, ya‘ni suvning yomg‘ir bo‘lib yog‘ishiniso‘rab, maxsus marosimlarni o‘tkazishgan bo‘lishi kerak. Bunday marosimlarda suv gavharini asraguvchi Tishtar yulduzi, bulutlardan yog‘ilgan suvni zamin bo‘ylab tarqatuvchi Satavays yulduzi, Farog‘kart daryosi, Ardvi bulog‘i va undan oqib keladigan muqaddas daryo, Vorukasha dengizi

¹ *Авесто. Тарихий – адабий ёдгорлик А. Махкам таржимаси.- Тошкент: “ Шарқ”, 2001. 227-бет*

sharaflangan. Bu qadimiy yomg'ir chaqirish marosimining izlari "Yetti buyuk yasht" ning 27- bandida saqlanib qolgan.

Zardushtiylik mifologiyasida suv gavharini asrovchi Tishtar yulduzi Apam Napat naslidan deb talqin qilingan. Masalan, "Tiyr yasht"ning 2-bo'lim 4-bandida Tishtar yulduzi "qudrat sohibi, buyuklikda bemisl, o'tkir nigohli, zabardast va baland poyali, butun borlig'i yaxshilikdan iborat Apam Napat naslidan"¹ deyilgan. "Yetti kichik yasht"da ham obi hayotni sharaflashga bag'ishlangan alqovda suv bilan Apam Napat nomi yonma-yon keladi:

"Buzrukvor rad-Apam Napat, Mazda xalq qilgan suvni olqishlaymiz"; "Uchqur tulporli buzrukvor rad -Apam Napatni olqishlaymiz. Mazda bunyod etgan ashavan suvni olqishlaymiz".²

Apam Napat suv kul'ti bilan bevosita bog'liq bo'lgan mifologik personajlardan biri hisoblanadi. Apam Napat avestocha so'z bo'lib, M. Boysning fikricha,³ "suv o'g'li" degan ma'noni bildiradi. Bu mifologik personaj nomini I. Braginskiy "suv avlodi" deb tarjima qilgan bo'lsa,⁴ I.V.Rak esa "suvning nabirasi" deb izohlashni taklif qilgan.⁵

Bizningcha, Apam Napat-bevosita suv stixiyasi bilan aloqador mifologik obraz bo'lib, zardushtiylikda katta mavqega ega bo'lgan. "Kichik Avesto"da Mitra bilan Apam

¹ *O'sha manba, 234-bet.*

² *O'sha manba, 224-225-bet.*

³ *Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи. - М: Наук, С.16.*

⁴ *Брагинский И. Апам-Напат // Мифы народов мира. Т.1.-М, 1992, С.92.*

⁵ *Рак И.В. Мифы древнего и раннесредневекового Ирана. - СПб, 1998, С.447.*

Napatning Axuralar qatorida tilga olinganligi ham ana shu fikrni tasdiqlaydi.

Apam Napatning suv ma'budi sifatidagi mifologik talqini Xvarno alqoviga bag'ishlangan "Zamyad yasht"ning 51-52-bandlarida o'z ifodasini topgan. Unda aytilishicha, uch og'iz ilon Zakhok ta'qibidan qochib borayotgan Xvarno(farnn) bu yovuz maxluq qo'liga tushmaslik uchun Vorukasha dengizining tubiga yashirinadi. Bu dengizda "suv o'g'li" Apam Napat yashar edi. Uchqur otlar sohibi bo'lgan bu hukmdor dengiz to'lqinlari aro otini yeldirib, xvarnoni tutib oladi:

*Xvarno bo'ldi paydo
Vorukasha dengizida
Shu zahotiyiq uni
Tutdi hukmdor Apam-
Napat, otlari uchqur
Apam Napat yeladi,
Oti uchqur keladi
Va deydi xayolida:
"Tutib bo'lmas Xvarnoni
Dengizning qoq tubidan
Qanday chiqay tutibon?"¹*

Mazkur yashtda Apam Napat to'g'risidagi mifologik qarashlarning muhim bir jihati o'zifodasini topgan. Ya'ni zardushtiyalar Apam Napatni suv ma'budi sifatida tasavvur

¹ *Авесто. Яшт китоб // М. Исхоқов таржимаси. –Тошкент: "Шарқ", 2001.118-бет*

qilish bilan bir qatorda uni zamindagi insonlarni yaratgan zot deb ham e'tirof etganlar. Bu mifologik e'tiqod "Zamyad yasht"ning 52-bandida shunday talqin qilingan:

*Qudratli hukmdorni
Apam Napatni alqab,
Alplarning ko'makdoshi,
Yerlarni bunyod etgich,
Yerlarni Yaratgichga.¹*

Bu esa zardushtiylik mifologiyasining qadimiy qatlamlarida bu ma'bud ma'lum ma'noda olamning yaratilishida ishtirok etuvchi mifik qahramon sifatida ham tasavvur qilinganligini ko'rsatadi. Avestoshunoslarning taxmin qilishlaricha, suv kul'ti bilan bog'liq bu personaj qadimgi hind-eron mifologiyasidagi suv ma'budi obrazi asosida kelib chiqqan. Dastlab ma'lum bir suv havzasi-buloq yoki daryo bilan bog'liq mifologik timsoli sifatida tasavvur etilgan bu personajni ayrim qabilalar yomg'irdan avvalgi momaqaldiroqning atropomorf ko'rinishi deb hisoblaganlar². Keyinchalik bu mifologik obraz ezgu suv ma'budi sifatida tasavvur qilina boshlangan va zardushtiylik aqidalarida esa uni Vorukasha dengizida yashovchi uchqur otlar sohibi deb ta'riflash an'anasikelib chiqqan.

Suv kul'ti bilan aloqador bunday qadimgi tasavvurlarning mifologik talqinlari "Avesto"ning barcha

¹ *O'sha manba, 118-bet.*

² *Рак И.В. Кўрсатилган асар, 447-бет*

qismlarida o‘z ifodasini topgan. Zardushtiylik mifologiyasiga ko‘ra, zaminga hayot bag‘ishlaydigan suv Ardvi nomli muqaddas buloqdan chiqadi. Ardvi bulog‘i Garonman degan joydagi samoviy tog‘ning eng baland nuqtasi – hukariy cho‘qqisining yuqori qismida joylashgan. “Ardvi” so‘zi aslida avestocha leksik birlik bo‘lib, I.V.Rakning fikricha, “namlik” degan ma‘noni bildiradi. Qadimgi hind-eron mifologiyasida bu afsonaviy daryo Amudaryoning timsoli sifatida muqaddaslashtirilgan.¹

Afsonalarga qaraganda, Hukariya cho‘qqisi ma‘budlar va ilohlar makon tutgan samo manzillariga tutashib ketadi. Bu cho‘qqida joylashgan muqaddas chashma bo‘yida esa suv ma‘budi Ardivisura Anaxita yashaydi. Xususan, “Ardivisura alqovi”da hayotbaxsh ne‘mat hisoblangan suvning e‘zozlanishi bilan bog‘liq mifologik tasavvurlar o‘z aksini topgan:

*Sig‘ingin ey Spitama
Suvi lim-lim Ardiviga
Dardlarga em keng Ardiviga;
Sig‘in butun dunyoning
Topinchu alqoviga
Loyiq Ardivisuraga.²*

Zardushtiylikda samoviy tog‘ cho‘qqisidagi afsonaviy buloqdan boshlanib, quyiga tomon shitob bilan oqqancha,

¹Рак И.В. Мифы древнего и раннесредневекового Ирана.- СПб, Журнал «Нева», «Летний Сад» 1998, С.448.

² Авесто. Яшт китоб // М. Исхоқов таржимаси. –Тошкент: “Шарқ”, 2001. 16-17-бетлар.

Vorukasha dengiziga quyiladigan Ardvi daryosi shunday ta'riflanadi:

*Ibodat qil sharafli
Kenglik ichra tengsizga,
Dunyoning bor suvi bir
Bo'lsa teng emas zotga...
Oqimi qudratliki,
Hukar'yadan suv olib
Vorukashga eltuvchi
Ardviga ta'zim solib,
Yo'llayin men namozim
Uning bitta tarmog'i,
Yetti kishvar oshadi.
Qishu yozda tinmaydi,
Oqib tinim bilmaydi.¹*

Zardushtiylik mifologiyasida Hukariya cho'qqisidan oqib tushadigan muqaddas daryo hosildorlik va suv ma'budasi Ardvisura nomi bilan ham atalgan. Ardvisura Anaxita suv ilohasi hisoblanadi. Unga bag'ishlangan yashtda tasvirlanishicha, pok Ardvisura ming alp bo'yidek sarvqomat oltin tog'dan qudrat-la, shitob bilan oqadi:

*Oltin tog' hukaryaga
Namozim xolis eltay
Bo'yi ming alp bo'yidek
Tog'ga chin ta'zim etay,
Undan bizlarga tomon*

¹ *Авесто. Яшт китоб // М. Исхоқов таржумаси. –Тошкент: “Шарқ”, 2001.17-бет*

*Tushar pok Ardvisura.
Qudrat-la, shiddat ila
Eltar bizlarga cheksiz
Qut, omad va saodat.
Dunyoning barcha suvi
Keltirolmas shuncha baxt.¹*

Ardvi daryosi quyiladigan joy – Vorukasha mifologik dengiz nomi bo‘lib, ayrim tadqiqotchilar uni hozirgi Orol dengizi bilan qiyoslasalar, ba’zilari, masalan, M.Is’hoqov buni “O‘zbekistonning qizilqum cho‘llario‘rnidagi qadimgi Tetis dengizi haqidagi xotiraning “Avesto”da saqlangan izi” deb hisoblaydi.²

Biz ham ana shu fikrni quvvatlagan holda, Vorukasha dengizi to‘g‘risidagi mifologik tasavvurlar ham qadimgi suv kul’ti asosida kelib chiqqan deb o‘ylaymiz. “Avesto”ning 5-yashtida bu dengiz to‘lqinlari shiddat bilan qirg‘oqqa urilishi ana shunday tasvirlanadi:

*Ibodat qil, o Zardusht,
Qirg‘oqlarga urilgan,
Vorukash to‘lqinlari
O‘rkachlari o‘rtada
Osmonga sapchiganda
O‘z suvin aylar nisor,
Ming ko‘ldan oshib o‘tar
Har birini qirq kunda*

¹ O‘sha manba, 29-bet.

² Avesto. Ардвисура алқови. // ўзбек тили ва адабиёти. 1999, 2-сон. 63-бет.

*Aylanib chiqa olmas,
Otliq gar Shitob yo'rtar.*¹

Ardvi bulog'idan suv oladigan afsonaviy daryoning nomi ham "Ardvi" deb yuritilgan. Suv ma'budining nomini bildiruvchi Ardvisura atamasi ham ana shu mifologik daryo nomi asosida yuzaga kelgan bo'lishi kerak. "Avesto" mifologiyasida osmono'par cho'qqidagi buloqdan boshlanadigan bunday asotiriy daryolardan bir nechtasining nomi keltirilgan. Masalan, xaetumant daryosi Ushida cho'qqisidan boshlanib, o'zining bezavol to'lqinlarini Kansava ko'ligacha olib kelishi bayon qilingan.

Shuningdek, Kansava ko'liga Xvastra, Fradata, Xvaspa, Xvarnaxvati, Ushtavayti, Urvadava, Erezi, Zarnuvati kabi daryolar ham quyilishi aytilgan. Bu mifologik daryolar haqidagi tasavvurlar zardushtiylikda eng mo'tabar tushunchalardan biri hisoblangan suvning e'zozlanishi va ilohiylashtirilishi bilan aloqador qadimiy e'tiqodlar asosida yuzaga kelgan.

Zardushtiylarning afsonaviy tog'cho'qqisidagi buloqdan boshlanadigan daryo haqidagi mifologik qarashlari O'rta Osiyo xalqlari folklorida suv kul'tiga aloqador motiv va syujetlarning keng yoyilishida muhim rol o'ynagan. Masalan, "Amudaryo qayerdan boshlanadi?" nomli o'zbek xalq afsonasi syujetining manbalari ham

¹ *Авесто. Яшт китоб // М. Исхоқов таржимаси. –Тошкент: "Шарқ", 17-бет*

Ardvi bulog'i to'g'risidagi "Avesto" miflariga bog'lanadi. Afsonaning mazmuni quyidagicha:

"Kunlardan bir kuni Muhammad payg'ambar Ollohdan so'rabdi:

– "Ey tangrim! Yer yuzidagi daryolar suvni qayerdan oladi? Daryolar bosh oladigan chashmai muborakni ko'rsat! –debdi.

Xudo unga kun chiqish tomonni ko'rsatibdi. Muhammad payg'ambar quyosh chiqadigan tomonga qarab yo'l olibdi. Yura-yura bir toqqa yetib kelibdi. Qarasa, uzoqdan bir maqbara ko'rinibdi. Maqbara ichidan yorug'lik chiqib turganmish. Payg'ambar borib qarasa, mozorda qaldirg'ochga o'xshagan bir qush bor ekan. Muhammad payg'ambar ichkariga kirmoqchi bo'lib, haligi qushchadan:

– Bu maqbaraning eshigi qanday ochiladi? – deb so'rabdi. Qushcha esa:

– Uning eshigi til bilan ochiladi, – deb javob beribdi. Shunda payg'ambar:

– Bismillohir rahmonir rahim! – degan ekan, eshik o'z-o'zidan ochilib, payg'ambar ichkariga kiribdi. Qarasa, mozorning to'rt burchida to'rt chashma bo'lib, chashmalarning bittasidan suv, bittasidan sut, uchunchisidan qon, to'rtinchisidan zahar qaynab chiqib turar, mozor o'rtasida bari qo'shilishib, bir jilg'acha hosil bo'lib, maqbaradan tashqariga oqib chiqarmish. Chashmalar qo'shiladigan joyda esa qirqchilton o'tirgan

emish. Amudaryo ana shu qirqchilton qo'riqlab o'tirgan mozor buloqdan bosh olar emish"¹.

Bu afsonaning syujet qurilishini tashkil etuvchi yetakchi motivlar silsilasi tahlil qilinadigan bo'lsa, unda mazkur afsonaning qadimiy asoslari "Avesto" ga bog'liqligini isbotlaydigan bir nechta syujet elementi mavjudligini ko'ramiz. Ana shulardan biri daryolar suv oladigan samoviy chashma haqidagi tasavvurlarning epik talqinidir. Bizningcha, qadim zamonlarda yashagan odamlar zamindagi barcha nabotot va hayvonot olamiga hayot baxsh etadigan eng ulug' ne'mat – suv ilohlar maskani – samodan in'om etiladi deb o'ylaganlar. Chunki yomg'ir, qor, do'l yog'ishini samoviy ummondagi suvning yerga tushishi sifatida tasavvur qilgan qadimgi odamlar osmon suvlari va uning manbaini mo'tabarlashtirganlar. Yer yaratilmasdan burun butun olam suvdan iborat bo'lganligi haqidagi tasavvurlar samoviy ummon tushunchasini keltirib chiqargan.

Shuningdek, qadimgi mifologiyada tog' cho'qqisi zaminni osmon bilan, ya'ni yer yuzini yuqorida joylashgan olam –Ko'k bilan bog'lab turadigan samoviy vosita deb talqin qilingan. Shu tariqa daryolar ham tog' cho'qqisi osha osmonda joylashgan samoviy ummondan suv oladi degan tasavvurlar kelib chiqqan. Ana shu mifologik qarashlar asosida keyinchalik "Avesto"da tasvirlangan Ardvi nomli

¹ *Ипак йўли афсоналари (Тўплаб, нашрга тайёрловчи: М.Жўраев). – Тошкент: Фан, 1993, 22-бет.*

buloq haqidagi asotiriy syujet shakllangan. Bu syujetning epik transformasiyasi esa yuqorida keltirilgan o‘zbek xalq afsonasidagi “daryolar bosh oladigan chashmai muborak” detalining mifologik zaminini tashkil etadi.

O‘zbek xalq afsonasida aytilishicha, Amudaryoga bosh oladigan chashma baland tog‘ ustidagi maqbara-mozor ichida joylashgan emish. Mozordan chiqayotgan jilg‘adan daryo hosil bo‘larkan. Bizningcha, afsonaviy chashmaning maqbara ichida joylashganligi motivining zamini ham “Avesto” mifologiyasidadir. Chunki suv ma‘budasi Ardisura Anaxitaga bag‘ishlangan alqovning 101-bandida bayon etilishiga ko‘ra, Ardi daryosining mingta irmog‘i mavjud. Har bir irmoqning bo‘yida savlatli uy-qasr qurilgan emish:

*Ardi irmoqlari ming,
Minglab ko‘llari ham bor,
Har bir ko‘l atrofini
Aylanmoq qirq kunlik yo‘l
Uchqur otda shahsuvor
Chopsa otliq yurib mo‘l
Har irmoqning bo‘yida
Savlatli uy-qasr bor.
Oynalari yarqiroq,
Ming ustunda ustuvor.
Bir oynasi mingtadek,
Minggi esa milliard,
Minglab toki, ming vassa,*

*Yuz-ming hovon, bozimning,
Son-sanoqsiz sinchlari
Biri ming, millionga teng.*¹

Ardvi daryosining irmoqlari bo'yida qurilgan saroylar haqidagi mifik qarashlar zahirida suv ma'budlari sharafiga bag'ishlab bunyod etilgan ibodatxonalar yoki suv kul'ti bilan bog'liq an'anaviy marosimlar o'tkaziladigan joylar to'g'risidagi tasavvurlar o'z ifodasini topgan. O'zbek xalq afsonasida chashma ustiga qurilgan binoning maqbara (mazor) deb ta'riflanishi ham qadimda suv havzalari bo'yiga kul't obyektleri bino etilganligini ko'rsatadi.

Afsonadagi qirq chilton obrazida zardushtiylikdagi suv ma'budlari yoki suv kul'ti bilan aloqador ilohlar haqidagi mifologik tasavvurlar aks ettirilgan. Bu o'rinda qirq chilton –Amudaryo bosh oladigan chashmaning posboni, ya'ni suv homiysi vazifasida kelmoqda. Zardushtiylik mifologiyasida ham Ardvisura muqaddas chashma va undan boshlanadigan ulug'vor daryoning homiysi sifatida gavdalanadi.

Ardvi suv kul'tini o'zida mujassamlashtirgan mifologik daryoning nomi bo'lsa-da, ayrim tadqiqotchilar uni Amudaryo bilan bog'laydilar. Xususan, E.B.Rtveladzening fikricha, "Ardvi daryosi, garchi "Avesto"da u mifologik daryolar sirasiga kiritilgan bo'lsada, aslida bir vaqtlar mavjud bo'lgan real daryodir. Menimcha, bu daryo qadim

¹ *Авесто. Яит китоб // М. Исхоқов таржимаси. –Тошкент: "Шарқ", 2001.30-бет*

zamonlarda Vorukasha (Orol) dengiziga quyilgan Vahvi-Daitya (Amudaryo)ning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan. 1558-yilda Xorazmga safar qilgan ingliz sayyohi Jenkinson Amudaryoning bosh irmog'i Ardok deb atalganligini qayd qilganligi ham ana shu fikrni tasdiqlaydi. Chunki Ardok atamasi Ardvi daryosining nomi bilan etimologik jihatdan aloqadorligi yaqqol ko'rinib turibdi"¹.

Ardvi daryosi Amudaryo bilan qiyos qilinganligi uchun ham Hukariya cho'qqisidagi muqaddas buloqdan boshlanadigan afsonaviy daryo to'g'risidagi mifologik qarashlar yuqorida matni keltirilgan o'zbek xalq afsonasi syujetida o'z ifodasini topgan. Xorazmliklarning suv kul'tiga aloqador qadimiy udumlari asosan Amudaryo bilan bog'langan. Suv ilohi sifatida tasavvur qilingan mifologik qahramon –Xubbi haqidagi afsonalar keng tarqalganligi; daryodan o'tayotganda Xubbining nomini tilga olib, suvga non, tuz tashlash; daryo toshgan paytlarda “suv qonsiragan” deb hisoblab, ho'kizlarni so'yib qurbonlik marosimlarini o'tkazish kabi odatlar shular jumlasidandir.

Zardushtiylik marosimlari va udumlarida ham suv kul'tiga alohida e'tibor berilgan. Suvning marosim va rituellardagi asosiy funksiyalarini belgilashda uning poklash xususiyatiga egaligi asosga olingan. “Vendidod”dagi 7 –far-gardning 3 –bo'limida “Ey, Ashavan

¹*Ртвеладзе Э.В. Об определении ряда географических терминов “Авесто” // “Авесто” китоби – тарихимиз ва маънавиятимизнинг илк ёзма манбаи” мавзуидаги илмий – амалий семинар материаллари. 2000 йил, 6 декабрь. – Тошкент, 2000, 34-бет.*

Zardusht! Aridvyusvar nomli chashmaning suvi erlar urug‘ini, ayol qornidagi go‘dakni va onalar ko‘ksidagi sutni pok qiladi”¹ deyilganda ham suvning ana shu muhim xususiyatini mifologik idrok etish o‘z ifodasini topgan. Aridvyusvar chashmasi deganda Hukariya cho‘qqisida joylashgan deb tasavvur qilingan muqaddas Ardvi bulog‘i nazarda tutilmoqda. Zardushtiylik bu buloqdan otilib chiqadigan suv eng pokiza, eng toza suv bo‘lib, odamdagi barcha narsani poklaydi deb tushunishgan.

Zardushtiylik marosimlarida, xususan, bola tug‘ilishi va chilla davri marosimlarida ham suv kul‘ti inonchlariga amal qilingan. Bu to‘g‘rida “Vendidod”da ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan. Beshinchi fargardning sakkizinchi bo‘limida aytilishicha, qachonki bir mazdaparastning xonadonida homilador ayolning ko‘zi yorisa, uni “zamani kamsuv, giyohi serob, mollar va qo‘ylar suruvi kamroq o‘tadigan; Axuramazdaning o‘g‘li –olov kamroq yonadigan, barsam bilan o‘tadigan diniy marosimlar kamroq bajariladigan va ashavan xalqi u yerda ahyon-ahyonda to‘xtaydigan bir zardushtiyning” uyiga olib borganlar. Tuqqan ayol olov, suv, barsam dastalari va ashavan xalqidan uch qadam olisda turishi kerak bo‘lgan. Bundan uyning atrofini baland devor bilan o‘rab olganlar va ayolni o‘sha joyda saqlab, tashqariga chiqarmasdan ovqatlantirganlar. Zardushtiylikda tuqqan ayol ma’lum

¹ *Авесто. Тарихий – адабий ёдгорлик А. Махкам таржимаси. – Тошкент: “ Шарқ”, 2001. 133-бет*

kunlar davomida nopok bo'лади va shuning uchun umuqaddas hisoblangan narsalarga yaqinlashmasligi lozim bo'lgan. Uch kecha-yu uch kunduz davomida go'sht, non va sharob iste'mol qilgan ayol suv ichishi mumkin bo'lmagan. Tuqqan ayol nopok bo'lganligi sababli suv ichish va suv havzalariga yaqinlashishdan o'zini saqlagan. Chunki bunday xotin muqaddas hisoblangan suvni bulg'ashi mumkin deb qo'rqanlar.

Oradan uch kun o'tgach, tuqqan ayol vaqtincha yashayotganuyda to'qqizta chuqurcha kavlaganlar va ona o'z tani va kiyim boshini ana shu chuqurchalar yonida yuvib, dastlabki poklanish ritualini bajargan. Shundan keyin ayol yana to'qqiz kecha-kunduz chilla saqlaganidan keyin tanasi va kiyimlarini suv va kumis, ya'ni sigirning tozalangan siydigi bilan yuvgan. Shundan keyingina tuqqan ayol poklangan hisoblangan.

Bu udum xalqimiz orasida hanuzgacha saqlanib qolgan chillaguzaron yoki chilladan chiqarish odatida o'z ifodasini topgan. Odatda yangi tuqqan ayol xalqimiz nazdida ramziy ma'noda poklanmagan deb tushunilgan. Etnograf G.P.Snesarevning ma'lumotlariga qaraganda, xorazmliklar tuqqan ayol yetti kun davomida suv (quduq, ariq, kanal, daryo kabi) yoniga borishi, molxonaga kirishi, sigir sog'ishi, xamir qorishi, qozon-o'choq ishlariga aralashishi, kechasi chiroqsiz tashqariga chiqishi mumkin emas deb hisoblaganlar. Chunki u "harom" bo'lganligi uchun suv, olov, non, sut, sigir va boshqa narsalarni

bulg'ashi mumkin deb qo'rqqanlar¹. Chilla davri bilan bog'liq bunday tabu saqlash odatining tarixiy asoslari zardushtiylik marosimlari asosida kelib chiqqan. Yovuz ruhlardan asrash va vujudiy poklanish maqsadida qirq kun mobaynida chilla saqlagan. Chilladan chiqarish alohida marosim bo'lib, unda ona va bola maxsus tayyorlangan suvda yuvintirilgan. Chaqaloq yuvintiriladigan tog'oradagi suvga tanga, tuz, tuxum po'chog'i tashlangan. Bu narsalar magik xususiyatga ega deb tasavvur qilingan va chaqaloqqa ezgulik tilash maqsadida ishlatilgan.

Suv kul'ti zardushtiylikdagi motam marosimlarida ham alohida ahamiyat kasb etgan. Bu o'rinda ham suvni ilohiylashtirish, uni olamdagi eng pok ne'matlardan biri deb tushunish an'anasi asosga olingan. Ma'lumki, o'lgan odamning murdasi ham ramziy ma'noda nopok deb qaralgan. Zardushtiylik odatiga ko'ra, it yoki odam o'lgan joyga bir yilga qadar don sepish, sug'orish, ekin ekish mumkin bo'lmagan. Chunki murda tekkan joy nopok hisoblanib, bir yil ichida quyosh nuri bilan poklanishi kerak bo'lgan. "Vendidod"ning oltinchi fargardidagi 4-bandida aytilishicha, "itlar va odamlar o'lgan zaminda bir yil to'lmay don sochib, suv quygan kimsaning gunohi o'likni suvga, tuproqqa va giyohlar yuziga tashlagan kimsaning yozug'i bilan barobardir". Bundan gunohga botgan kimsa mazdaparastlar odaticha, uch xil maxsus qamchi bilan yigirma

¹Снесарев Г.П. *Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма.* – М., Наука.1969.

martadan savalagan. Mazdaparastlar murdani suvga yaqinlashtirmaslikka, o'likchiqqan joyga suv sepmaslikka, jasad qo'yilgan yerga suv qo'yimaslikka harakat qilganlar. Bu bilan mo'tabar deb qaralgan suvning pokligini ta'minlaganlar.

Zardushtiylik udumlariga ko'ra, gunohlarning eng og'iri yonib turgan olov va suv oldida qasamni buzishdir. Bu haqda "Vendidod"ning to'rtinchi fargardidagi 46-bandida "hech kim suv va yonib turgan olov qarshisida go'stohlik qilmasin" deyilgan bo'lsa, 49-bandida "Suv va yonib turgan olov qoshida qasamini buzgan odamning yozug'i afv etilmasdir. U ikkinchi dafa tavbaga ko'z tutolmagay" deb ogohlantirilgan. Suv yonida qasamini buzgan kishining do'zaxda topgusi jazosi g'oyat og'irligi haqida shu fargardning 50-54-bandlarida batafsil so'z yuritilganligi ham suv kul'ti zardushtiylikning e'tiqodiy qarashlari silsilasida muhim o'rin tutganligidan dalolat beradi. Suv bilan olovga go'stohlik qilgan kishining u dunyoda oladigan jazosi odam vujudini o'tmas pichoq bilan kesishdan, uning tanasiga o'tmas qoziq qoqishdan-da dahshatliroq, bu yorug' dunyoning jamiki dardu g'amlaridan mudhishroqdir. Bunday odam baland tog'cho'qqisidan tubsiz jarlikka tashlab yuborilgan kishidan ko'ra yuz chandon dahshatli azobga muhtalo etilar emish. Suv juda e'zozlanganligi va mo'tabar tutilganligi sababli uning oldida go'stohlikka yo'l qo'yish oxiratni kuydirish bilan barobar deb tasavvur qilingan. Zardushtiylikning

falsafiy-axloqiy qarashlari tizimidagi bu g'oyat muhim adadlarning shakllanishiga ham suv kul'ti bilan bog'liq mifik tasavvurlar asos bo'lgan.

Zardushtiylik mifologiyasidagi suv kul'ti bilan aloqador qadimgi tasavvurlar Farogkart, Buytyaka kabi asotiriy daryolar, suv gavharini o'zida saqlaydi deb talqin qilingan Tishtriya yulduzi, suvni zamindagi barcha daryolaru buloqlarga tarqatadigan Satavays yulduzi hamda olam ummoni sifatida anglashilgan Vorukasha dengizi to'g'risidagi qarashlarda ham o'z ifodasini topgan. Yurtimizda sug'orma dehqonchilikning shakllanishi bilan bog'liq ravishda suv kul'ti g'oyasi ham kelib chiqqan. Chunki dehqonchilik xo'jaligini yuritishning eng muhim va asosiy sharti suvning mo'l bo'lishi hisoblangan. Shuning uchun ham qadimgi dehqonlar suvni muqaddaslashtirganlar va uni olamdagi hayotning manguligini ta'minlovchi ilohiy ne'mat deb e'zozlaganlar. Qadimgi mifologiyada suv kul'ti mo'l hosil olish g'oyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi uchun ham "Avesto"da tasvirlangan muqaddas daryo qut-baraka va suv ma'budasi Ardivisura Anaxita obrazida timsollashtirilgan. Suv kul'tining kelib chiqishi va zardushtiylik marosimlaridan keng o'rin olishi esa bevosita tabiatni mifologik talqin qilish an'anasining o'ziga xos ko'rinishlaridan biridir.

Yuqorida tahlil qilingan masalalar yuzasidan olingan nazariy umumlashmalarni quyidagicha xulosalash mumkin:

- 1) Zardushtiylikda tabiatni mifologik talqin qilish asosida kelib chiqqan qadimiy tasavvurlar muhim o‘rin tutgan. Ayniqsa o‘simliklar, jonivorlar, suv, olov, tuproq va osmon yoritqichlarini muqaddaslashtirish keng yoyilgan. Tabiat kul’tlari o‘ziga xos asotirlar sistemasi sifatida “Avesto”ga ham singib ketgan.
- 2) Quyoshni ma’bud sifatida tasavvur qilishga asoslangan mifologik tushunchalarning asosiy qismi “Xurshed yash”da o‘z ifodasini topgan. Quyosh homiy, poklash manbai, osmoniyiloh sifatida talqin qilingan.
- 3) Yulduzlarni ilohiylashtirishga asoslangan mifologik tasavvurlar zardushtiylik davrida shakllangan astral qarashlarning o‘zagini tashkil etadi. Bu inonchlar tizimiga ko‘ra yulduz turkumlari va muayyan yulduzlarning o‘zi samoda yashaydigan va turli xil timsoliy ko‘rinishlarda namoyon bo‘la oladigan ilohlar sifatida tasavvur qilingan. “Avesto”da Tishtar, Sataviys, Parvin, Hufturang va Vanand kabi yulduzlar bilan bog‘liq mifologik qarashlar o‘z ifodasini topgan.
- 4) “Avesto” mifologiyasining shakllanishida muhim rol o‘ynagan tabiat kul’tlaridan biri olov bilan aloqador ibtidoiy qarashlar hisoblanadi. Olovni yoqish qiyin bo‘lganligi sababli qadimgi odamlar o‘z qarorgohlaridagi o‘tni o‘chirmaslikka harakat qilganlar.

Ular olov timsolida nur, issiqlik manbaini ko'rganlar. Shunday qilib olovni ilohiylashtirish va unga kul't sifatida sig'inish an'anasi kelib chiqqan;

- 5) Zardushtiylikda olov Axuramazdaning nurli in'ikosi sifatida tasavvur qilingan va Atar (Ozar, Adur) nomi bilan timsoliy qiyofada tasvirlangan. Olov zaminni poklovchi, isitguvchi, yovuz kuchlardan himoya qiluvchilik funksiyalarini bajargan;
- 6) Olovni timsollashtirish an'anasining tadrijiy taraqqiyoti natijasida Atarninguch xil muqaddas olov ko'rinishidagi in'ikosi haqidagi qarashlar kelib chiqqan. Adur Farnbag, Adur Gushnasp va Adur Burzin Mihr sharafiga muqaddas otashkadalar bunyod etilgan;
- 7) Olov kul'ti asosida kelib chiqqan barcha marosimlarda ezgu so'z, ezgu o'y va ezgu amal sharaflangan. Chunki olov ezgulikka xizmat qiluvchi muqaddas xilqat sifatida axuramazda tomonidan yaratilgan deb e'tirof etilgan;
- 8) Olovga sig'inish an'anasiga va Atar kul'tining xalq orasida keng ommalashishi natijasida "Avesto" mifologiyasida Adar xurro, ya'ni Axura olovining ilk bor yoqilishi, Atar va Vohu Mananing yovuz Zahhokka qarshi kurashi, Atarning Xvarnoni himoya qilishi, Atarning homilador ayollar va itlarni panohiga olishi, uch muqaddas olovning paydo bo'lishi, Adur Bahrom olovining yoqilishi kabi bir qator syujetlar kelib chiqqan.

TABIAT KUL'TI BILAN BOG'LIQ MIFOLOGIK OBRAZLAR TIZIMI

Ardvisura Anaxita obrazining mifo-epik talqini

“Avesto” mifologiyasida tasvirlanishicha, hosildorlik, mo'l-ko'lchilik daryo suvining to'lib oqishi, qut-baraka timsoli sifatida tasavvur qilinadigan personajlardan biri Ardvisura Anaxitadir. Bu personaj suv ma'budasi bo'lib, u haqidagi mifologik tushunchalar “Avesto”ning “Ardvisur yasht” deb atalgan qismida mujassamlashgan. Bu yashtda talqin qilinishiga ko'ra, Ardvisura “nonu rizq o'stiruvchi”, “podani to'ydiruvchi” ezgulik timsolidir. Ardvisura zaminga hayot baxsh etadigan, daryo suviga baraka beradigan, odamlarni yovuz kuchlar hujumidan asraydigan ezgu homiy va ayni paytda daryo suvining mifologik egasi sifatida gavdalanadi.

Ardvisura Anaxita obrazining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u ko'pfunksiyali mifologik personajdir.

Uning dastlabki va asosiy vazifasi obihayot manbai sifatida talqin qilingan Ardvi yoki Doitiya daryosiga homiylik qilishdan iboratdir. Shu tariqa uning suv ma'budasi sifatidagi mifologik funksiyasi shakllangan. Bundan tashqari, Ardvisura Anaxita hosil mo'l bo'lishini ta'minlovchi, homilador ayollarning og'irini yengil qiluvchi, umuman, chin dildan ixlos bilan namoz yo'llagan kishilarni qo'llab-quvvatlaydigan ezgu ilohadir.

Zardushtiylik dini keng tarqalgan davrlarda Ardvisura Anaxita dalalarda hosil mo'l bo'lishini ta'minlaydigan ezgu ma'buda, ya'ni Muqaddas ona timsolida talqin qilingan. Muqaddas Ona mo'l hosil, doimiy yashillik va daryolarning sersuvligi timsoli sanalgan. Go'zal ayol ko'rinishida tasvirlangan Ardvisura Anaxita obrazi o'sha davrlarda yaratilgan tosh va sopol haykalchalarda ham o'z ifodasini topgan. Zardushtiylik suv va hosildorlik ma'budasining bunday haykalchalarini o'z uylarida, shuningdek, ibodatxonalarda saqlaganlar va marosimlar chog'ida unga sig'inganlar. Bunday haykalchalar bor bo'lgan xonadon ahli Ardvisura Anaxita sharafiga namoz yo'llab, uning sharafiga qurbonlik marosimlarini muntazam ravishda o'tkazib turgan. Shuning uchun ham Ardvisura Anaxita bunday sodiq, e'tiqodli kishilarni o'z himoyasiga oladi deb ishonganlar. Zardushtiylik mifologiyasida qut, baraka va serhosillik tushunchalari ham Ardvisura Anaxita obrazi bilan bog'lab talqin qilingan. Dehqonchilik an'analari keng yoyilgan hududlarda o'tkazilgan arxeologik tekshirishlar

davomida bu ma'buda haykalchalarining ko'p topilganligi ham Ardisura Anaxita kul'ti zardushtiylik mifologiyasining shakllanishi va taraqqiy etishida katta rol o'ynaganligidan dalolat berib turibdi. Xususan, O'rta Osiyodagi qadimgi qal'a va shaharlarda olib borilgan arxeologik qazishmalar chog'ida topilgan ayol ko'rinishidagi terrakota-haykalchalarning aksariyati Anaxitaning timsoli ekanligi mutaxassislar tomonidan yakdillik bilan qayd qilingan¹.

Ardisura Anaxitaning terrakota haykalchalar ko'rinishidagi timsoliy ifodalarining yaratilishiga bu mifologik obrazning "Avesto"dagi talqinlari asos bo'lgan. Chunki bu qadimiy obidada suv ma'budasining mukammal obrazi tasvirlangan. "Ardisura alqovi"ning 126-129-bandlarida suv va hosildorlik timsoli sifatida tasavvur qilingan bu ilohaning tashqi ko'rinishi haqidagi qadimiy mifologik tasavvurlar to'la aks ettirilgan. E'tiborlisi shundaki, "Avesto"da tasvirlangan mifologik personajlar orasida faqat Ardisura Anaxita inson ko'rinishida, ya'ni antropomorf qiyofada tasvirlangan. Bu darajada mukammal tasvirlangan boshqa obraz "Avesto"da mavjudligi qayd qilinmagan.² Qadimgi mifologiya

¹ Заславская Ф.П. Богиня плодородия в коропластике Афрасиаба кушанского времени // История материальной культуры Узбекистана. – Тошкент, 1959, №1; Пугаченкова Г.А. Маргианская богиня // СА, 1959 №29-30; Массон В.М. Сарианиди В.И. Среднеазиатская терракота эпохи бронза. – М., 1973; Антонова Е.В. Антропоморфная скульптура древних земледельцев Передней и Средней Азии. – М., 1977; Мэри Бойс. Зороастрийцы. Верования и обычаи. – М.: Наука, 1987, С.78.

² Рак И.В. Мифы древнего и средневекового Ирана. – СПб, 1998, С.144.

tadqiqotchilaridan biri M.Drezdenning yozishicha, “Ardivisur yasht”ning mualliflari ko‘z o‘ngida bu ilohaning haykalchalari mavjud bo‘lgan. Ular ana shu haykalchalarga qarab turib yoki bu ma‘budaning ilohiy go‘zalligini xayolan tasavvur qilib, Ardivisura Anaxita timsolini talqin qilganlar¹.

Zardushtiylar tasavvuricha, Ardivisura uzun bo‘yli, ko‘kraklari to‘liq, adl qomatli xushro‘y qiz ko‘rinishida bo‘lgan. U oltin taqinchoqlar bilan o‘ziga oro bergan, oltin yoping‘ichini qo‘lida tutgan, suv uzra namoyon bo‘ladi. Bamisoli yosh daraxt niholidek nozikbadan bu ma‘budaning yuzidan ilohiy nur taralib turgan:

*Ko‘zga ko‘rinib keldi
Muqaddas Ardivisura.
Yosh nihol go‘zal qizdek
Lek qudratli purviqor,
Bo‘yi adl, sarvqomat,
Nur taratib ilohiy,
Oliyjanob, purhikmat,
Bashang kamzuli yengli,
Oltin-ziynatli, engli.
Barsman hipchin qo‘lida
Ko‘z-ko‘z qilar sirg‘asin
To‘rt qirra quyma oltin
Axuradan pok xilqat.
Ardivi bo‘yniga*

¹ Дрезден М. Мифология древнего Ирана / пер. С.англ. И.М.Стеблин-Каменского. // Мифология древнего мира. – М., 1977. С.355.

Taqqan marjon shodasi.¹

Belini tarang qilib bog‘lab olgan, xushqomat Ardvisura yuzko‘z qilib, odam ko‘rinishida yasalgan oltin chambarakni boshiga kiyib olgan. Bu chambarak sakkiz g‘ildirakli aravaning gupchagi shaklida yasalgan bo‘lib, unga harir ipak matodan bog‘ichbandlar bog‘langan. “Avesto”da Ardvisuraning egniga kiygan liboslari haqida ham ma‘lumotlar mavjud. Bu mifologik personaj uch yuz suvsar terisidan tikilgan pocha po‘stin kiygan sarvqomat sanam timsolida tasavvur qilingan:

*Ardvisura egnida
Uch yuz suvsar mo‘ynadan
Tikilgan pocha po‘stin.
Ardvisura egnida
To‘rt marta bolalagan
Uch yuz suvsar mo‘ynadan
Po‘stin shunday savlatdor
Ko‘rgan kishiga go‘yo
Oltinday yaraqalaydi
Va kumushday tovlanar.²*

Bizningcha, zardushtiylar suv va hosildorlik ma‘budasi Ardvisura Anaxita siymosida o‘zlarining ideal go‘zallik haqidagi qarashlarini ham ifodalaganlar. Shuning uchun ham bu mifologik obraz betakror go‘zallik timsoli sifatida talqin qilingan. “Avesto”da Ardvisura Anaxitaning

¹ *Avesto. Yilit kitob // M. Isoxo‘rov tarjimasasi. –To‘shkent: “Sharq”, 2001.32-33-betlar.*

² *Avesto. Yilit kitob // M. Isoxo‘rov tarjimasasi. –To‘shkent: “Sharq”, 2001.24-bet.*

tashqi ko‘rinishi, qiyofasi nihoyatda go‘zal qiz misol namoyon bo‘lib, odamlarga sog‘-omonlik, dalalarga serhosillik, yer yuzidagi jamiki suv manbalariga baraka bag‘ishlaydi. Uning nur yog‘ilib turgan nurafshon siymosi, ko‘rkam qaddu-qomati yashtda shunday tasvirlangan:

*Keng Ranxa suvlaridan,
Bo‘ldi go‘zal qiz misol
Qomati tik ulug‘vor
Go‘yo bo‘ychan bir nihol.
Nur yog‘ilgan siymosi
Go‘yo ko‘rkam zodagon.
Boldirlari girdiga
Oltin bog‘ich bog‘lagan.¹*

Ko‘rinadiki, Ardvisura Anaxita judayam suluv, sarvqomat qiz ko‘rinishida tasavvur qilingan. Qaddi-qomati kelishgan bu yosh va go‘zal ma‘buda zebu ziynatlarga burkangan, qo‘lida zardushtiyarning muqaddas timsollaridan biri – barsman novdalarini ushlab turgan holatda madh etiladi. Suv ma‘budasining haykalchalari va boshqa tasvirlarida ham u ko‘pincha bug‘doy bo‘shog‘i, daraxt novdasi, gul, meva yoki chaqaloq ko‘tarib turgan yosh, navqiron, go‘zal ayol sifatida gavdalantirilgan. L.I.Rempelning yozishicha, “novda, meva va idishlar ilk dehqonchilik madaniyatida hosildorlik ma‘budasining timsollari hisoblangan»².

¹*O‘sha manba, 24-bet.*

² Ремпель Л.И. *Цель времен. Вековые образы и бродячие сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии.* – Тошкент: Издательство литература и искусства,

Biz ham ana shu fikrga qo‘shilgan holda, qadimgi mifologiyada, ayniqsa, dehqonchilik madaniyati shakllangan davrlarda paydo bo‘lgan hosildorlik kul’ti ta’sirida suv bilan bog‘liq ma’budalar turli xil o‘simliklar yoki jonivorlar bilan birgalikda tasvirlangan. Bunday o‘simlik (yoki meva) va jonivorlar hosildorlik va suv ma’budasining mifologik timsollari vazifasini bajargan va mifik personajlar mohiyatini oydinlashtirgan. Yuqorida keltirilgan parchada Ardisura Anaxita qo‘lida barsman novdalarini ushlab turgan holatda tasvirlanishida ham suv vaserhosillik ilohasining muqaddasligiga, sharafnokligiga ishora yotadi.

Zardushtiylik mifologiyasi talqinicha, Ardisura Anaxita hosilning mo‘l bo‘lishi, zamin sathining kengligi, daryolar sersuvligi, podalar bo‘liqligini ta‘minlovchi ezgu homiydir. Shuning uchun ham mazkur yashtda bu iloha «butun dunyoning topinchu alqovlariga loyiq zot» deb ta’riflanadi:

*Sig’in butun dunyoning
Topinchu alqoviga
Loyiq Ardisuraga,
Sig’in – devlarga qiron,
Sodiq ul-Axuraga;
"Nonu rizq o‘stirgichga,
Podani to‘ydirgichga,
Boyliklar undirgichga,
Yerlar sahnini cheksiz*

*Ufqqa dundirgichga,
Ul valine'matga sig'in,
Yurtlar yashnatguvchiga
Ixlos-la sig'in, Zardusht!*¹

Ardvisura Anaxita nafaqat suv va hosildorlik ma'budasi sifatida emas, balki oilani balo-qazolardan himoya qiluvchi, insoniyat zuryodiga baraka ato etuvchi mo'tabar zot hamdir:

*Muqaddas-u, mo'tabar u,
Er pushtining ozig'i,
Erkak beliga mador,
Ikkiqatga najotkor.
Ezgudir u, tabarruk u-
Er pushtining quvvati
Ezgudir u, erlik pushtin
Bobarakot etguvchiga
Ibodot qil, o Zardusht.*²

Bu bandda o'z ifodasini topgan mifologik tushunchalar ham mazkur yashtda bir necha o'rinda takrorlangan bo'lib, Ardvisura obrazining homiysi sifatidagi xususiyatlarini oydinlashtirishga xizmat qilgan. Ardvisura Anaxita erkaklar urug'ini ko'paytirib, ayollarning oson ko'zi yorishida bosh-qosh bo'lib turadi. Uning ehsoni tufayli onalar suti mo'l bo'lib, chaqaloqlar

¹ *Авесто. Яшт китоб // М. Исхоқов таржимаси. –Тошкент: “Шарқ”, 2001.17-бет.*

² *Авесто. Яшт китоб // М. Исхоқов таржимаси. –Тошкент: “Шарқ”, 2001.17-бет.*

sogʻlom oʻsadi va yovuz kuchlar xurujidan himoyatda boʻladi deb qaralgan.

Ardvisura Anaxitaga sigʻinish zardushtiylikdagi tabiat kulʼtlari orasida salmoqli mavqega ega boʻlgan. Unga sigʻinish udumi bajarilayotganda maʼbuda haqqiga sut qoʻshilgan xaoma hadya etganlar. Bu ilohaga faqat odamlar emas, balki maʼbudlarning oʻzlari ham ehtirom bildirishgan. Masalan, Axuramazdaning oʻzi Aryanam Vaejudadagi ezgu daryo Daitʼya sohilida Ardvisura sharafiga namozbaxshida etganligi «Avesto»da shunday bayon qilingan:

*Parvardigor Axura
Mazda Ardvisuraga
Aryanam Vaejuda,
Daitianing boʻyida
Namoz etdi baxshida
Sutli xaoma bilan
Qoʻlda tutib barsaman.¹*

Axuramazda namoz paytida muqaddas Ardvisuradan Zardushtning koʻngliga imon nurini sohib, Axuraga imon keltirish fikrini uning qalbiga jo qilishni soʻraydi. Haq yoʻlida kim dildan ehson qilsa, ajrini beradigan ezgu maʼbuda Ardvisura Anaxita uning bu iltijosini bajo keltirib, Axuraga shunday omadni baxsh etadi.

Zardushtiylik taʼlimotiga koʻra, kimda-kim ezgu niyat bilan qurbonlik keltirsa, Ardvisura uning iltijosini ijobat qilgan. Yovuz maqsad bilan uning nomini tilga olganlar esa

¹*Oʻsha manba, 19-bet.*

ma'buda ehsonidan quruq qolganlar. Ammo «Avesto»da aytilishicha, kimki chin dildan so'rasa, Ardvisura uni ham noumid qilmagan. Masalan, Faridun bilan Purva jang qilishayotganda, bahodir Faridun o'z raqibini ko'kka otib yuboradi. Shunda osmonga chiqib yirtqich qushga aylangan Purva uch kecha-kunduz uchib yurib, Ardvisuraga ixlos bilan namoz yo'llaydi. Chin dildan ilhom ila bu ma'buda sha'niga duolar qilib, agar sog'-omon yerga qaytib tushsa, sut qo'shilgan xaoma ehson etajagini bildiradi. Shunda Ardvisura unga yordamga keladi:

*Ardvisur Purvaning
Qo'ldan chaqqon tutib
Axura bergan yerga,
Undagi uy-joyiga
Sog'u omon, bezavol,
Ilgari qanday bo'lsa,
(Shundaycha) eltib qo'ydi.
Arvi bunday ne'matni
Yetkazdi unga, chunki
Kim chin dil, iymon bilan
(Omad tilab, taxt tilab)
Doim qurbonlik qilsa
Omad va baxt berguvchi
Ardvisura Paurvaga
Shunday ne'matni
Berdi. Chunki u doim
Imon-la qurbonliklar
(qilganlarni qo'llaydi).¹*

¹ *Авесто. Яит китоб // М. Исхоқов таржимаси. –Тошкент: “Шарқ”, 2001.24-25-бетлар.*

Ardvisura ezgu niyatli kishilarga omad baxsh etuvchi ma'buda. U bo'y yetgan qizlarga yaxshi kuyov nasib qilishini, homilador ayollar omon-eson ko'zi yorishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham mazkur yashtning 87-bandida «qizlar yaxshi er, farovon uy va xoja tilab», ayol esa ko'zi yorishida madadkor bo'lishini so'rab, namoz yo'llasalar. Ardvisura o'zining yulduzli makonidan Axura yaratgan yer yuziga tushib, ezguliklarni ko'zlab so'zlashi tasvirlangan. Chunki Axuramazda uni borliqqa homiy etib, ma'bud qilib yaratgan. Uning qudrati tufayli zamin hamisha yashnab turadi, qo'y-qo'zilarga, ekinzorlarga baraka yog'iladi. Ardvisuraning o'zi bu to'g'rida Zardushtga shunday degan:

*Qudratim, hukmim sabab,
Qo'y-qo'ziyu yilqi, mol,
Barcha inson zoti bor-
Yerda yurar bemalol
Mazda yaratgan barcha
Ezgulikni avaylab
Barcha yaxshi narsani
Og'ilxona mollarni
Asraganday asrayman.¹*

“Yasht”lar talqiniga ko'ra, hukarya, cho'qqisidan suv olib, Vorukasha dengiziga quyadigan muqaddas Ardvisura to'rtta oq ot qo'shilgan arobada borayotgan «oq bilakli go'zal»dir:

Mana, Ardvi arobada,

¹*O'sha manba, 28-bet.*

*Tizgin tutib boradi...
Bir xil zotli to'rt oq toy,
Uni eltmoqda ravon.
Bu toylar-chi, beomon,
"Devlaru jodugarlar,
Jinlaru inson aro,..
Yovlikka solar qiron¹.*

Ko'rib turganimizdek, Ardivisuraning ilohiyligini, qudratli va ezgu niyatli ekanligini anglatuvchi belgilaridan biri – uning mifologik timsollari vazifasini bajaruvchi “To'rt oq toy” detalidir. Bu otlarni shunchaki afsonaviy arobani tortuvchi jonivorlar deb baholab bo'lmaydi. Avvalo ularning oq rangli ekanligi ilohiylik, magik sifatga egalik, o'zga dunyoga taalluqlilik belgisidir. “Qadimgi turkiy mifologiyada ko'pgina muakkil va ilohalar manglayida oqi (yulduzi) bor ola ot sifatida tasavvur qilingan ekan”, - deb yozadi folklorshunos M.Jurayev².

Ardivisuraning otlari oq rangli deb tasvirlanishi bu jonivornlarning ilohiy jonzot, yahni hosil mo'lligi va sersuvlik ma'budasiga daxldorligini ko'rsatuvchi asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. Bu otlar oddiy jonivor emas, balki samoviy tulporlar sanaladi. Samoviylik, ilohiylik, o'zga dunyoga taalluqlilik belgilaridan biri esa ularning oq rangda bo'lishidir. Suv ma'budasining makoni ham “Avesto”da osmon bilan bog'lab tasvirlangan. Mazkur

¹ *Авесто. Яшт китоб // М. Исхоқов таржимаси. –Тошкент: “Шарқ”, 2001.18-бет.*

² *Жўраев М. Ола от кўлтининг ўзбек эпосидаги излари // Адабиёт кўзгуси, 1996, 2-сон.33-бет.*

yashtning 85-bandida ezgu zot Axuramazda uning «yulduz makoni»dan yerga tushishini soʻrashi bayon etilgan:

*Xolik Axuramazda
Ezgu zot xabar berdi:
«Yo Ardivisura, kelgil.
Men yaratgan yer uzra
Tush yulduz makoningdan.¹*

132-bandda ezgu iloha sharafiga namoz yoʻllayotgan zardushtiyalar bu alqovning ajri uchun Ardivisurani «yulduzining toʻridan» zaminga tushirishini Axuramazdadan soʻrashi shunday tasvirlangan:

*Bu namozimiz ajri
Uchun ehsonga loyiq
Neʼmat yetishtir bizga
Yulduzingning toʻridan
Tushir, Axura xoliq,
(qilgan Yer uzra uni),
Maʼbudaga yordam yetkaz,
Xayr etgan kaftimizga
Koʻngil, yo Ardivisura.²*

Otlarning mifologik tulpor sifatidagi yana bir belgisi ularning beqiyos magik qudratga egaligidir. Ular ana shu magik xususiyatga egaligi bilan «devlari jodugarlar, jinlari yovuz insonlarga qiron solib», suv va moʻl hosil timsoli Ardivisurani himoya qilishadi. Demak, Axuramazda tomonidan hadya etilgan toʻrt ot Ardivisurani himoya qiluvchi mifologik jonzotlardir.

¹ *Авесто. Яшт китоб // М. Исхоқов таржимаси. –Тошкент: “Шарқ”, 2001.27-бет.*

² *Oʻsha manba, 33-бет.*

Tarixiy-arxeologik adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, hosildorlik va onabolalarnihimoya qiluvchi ma'budalarning otlar bilan birga tasvirlangan holatdagi ko'rinishlari ham ko'plab qayd qilingan ekan. Masalan, Samarqand shahar tarix muzeyida shaxsiy kolleksiyadan qabul qilib olingan bir qadimgi muhr saqlanar ekan. Unda yengilgina qanotlarini hilpiratib turgan ma'budaning ikki ot ustida borayotgan holatdagi ko'rinishi tasvirlangan. San'atshunos L.I.Rempelning fikricha, ikki tomonga qarab turgan otlarning yag'rini shaklidagi taxtda o'tirgan bu ma'buda haykalchasi bronza asrining boshlarida yaratilgan. U hosildorlik ma'budasining haykalcha ko'rinishidagi shaklidir. Hosildorlik ilohasining otlar bilan birgalikda tasvirlanishi bu ma'budaning osmon bilan bog'liqligi hamda nur, ezgulikni o'zida mujassamlashtirganligidan dalolat beradi.¹ Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Yashtda tasvirlangan to'rt ot Axuramazda tomonidan hadya etilgan ilohiy tulporlar bo'lib, Ardvisuraning suv, hosildorlik, va baraka timsoli sifatidagi mifologik qiyofasini oydinlashtiruvchi ramzlar hisoblanadi.

«Avesto» mifologiyasida ma'bud va ilohalarning samoviy otlar qo'shilgan aravalarda osmon gumbazi uzra safar qilishlari motivi an'anaviy detallardan biri sifatida uchraydi. Masalan, Mitraga ham ana shu sifat xosdir. Ardvisura ham to'rt ot qo'shilgan aravada yurib, daryo

¹*Ремпель Л.И. Кўрсатилган асар, 89-91 бетлар.*

suvining limmo-limligi, dalalarda o't-o'lanlarning yaxshi o'sishi, ekinzorlar, bog'lar barakali, oilaning farovonligi va ravnaqini ta'minlab turadigan ma'bud sifatida tasvirlangan.

«Avesto»da Ardivisuraning otlari bajaradigan funktsiyalar va ularning mifologik xususiyatlari haqida ham ma'lumotlar berilgan. 5-yashtning 120-bandida to'rt oq toyning vazifalari quyidagicha oydinlashtirilgan:

*Ardivisura xizmatiga
Axura to'rt ot berdi.
Bir tulpori Yomg'irdir,
Biri Yel, biri Bulut,
Tulporlari Yomg'ir, Yel,
Suvli Bulut birla Do'l.
Uni doim qo'riqlab,
Suvini mo'l-ko'l qilarlar.
Shudringu qor, do'lu muz,
Ardivisurani to'lg'iz.¹*

Bizning nazarimizda, Ardivisura suv ma'budasi sifatida muqaddas daryo bilan tenglashtirilganligi uchun bu o'rinda uning homiylari ham suv manbaining boqiyiligini ta'minlovchi timsollar bo'lib kelyapti. Yashtda Ardivisura yomg'ir, shamol, bulut va do'lning mifologik ifodasi sifatida talqin qilingan to'rt himoyasida oqib borayotgan sersuv daryo misolida tasvirlangan. Yomg'ir, shamol, bulut va do'l - Ardivisuraning doimiy posboni, uning suvini mo'l-ko'l qilib turish vazifasini bajaruvchi mifologik obrazlardir. Bu obrazlar zardushtiylik ta'limoti va «Avesto» mifologiyasida

¹ *Авесто. Яшт китоб // М. Исхоқов таржимаси. –Тошкент: “Шарқ”, 2001.32-бет.*

muhim o‘rin tutadigan tabiat kul‘tining timsoliy ifodalari hisoblanadi. Ardvisuraning to‘rt oq oti tabiat hodisalarining timsollashtirilgan mifologik talqinidir. Ularning asosiy vazifasi esa suv stixiyasini o‘zida mujassamlashtirishdan iboratdir.

Otning suv manbalari, xususan, yomg‘ir bilan aloqadorligi «Avesto» mifologiyasi uchun an‘anaviy hodisa hisoblanadi. Masalan, yomg‘ir suvlarining ramziy egasi deb tasavvur qilingan Tishtriyaning oq ot ko‘rinishida tasvirlangan. Tishtriyaning oq ot ko‘rinishidagi tasviri va Ardvisuraning to‘rt oq toyidan birinchisi – Yomg‘ir oti obrazlarining mifologik asosi, ya‘ni genezisi mushtarakdir.

«Avesto» mifologik qatlamiga taalluqli bo‘lgan bu motiv va tasavvurlar o‘zbek xalq afsonalari hamda xalq qarashlarining rivojida muhim rol o‘ynagan. Mashhur olim X.Zarifov o‘zbek xalq dostonlaridagi epik otlar suv tulporlaridan tug‘ilgan deb tasvirlanishi, topishmoqlarda ot obrazi suv, daryo, ko‘lning poetik atributlaridan biri bo‘lib kelishi va qadimda Balx daryosining nomi «Zariaspa» ekanligiga asoslanib quyidagi xulosaga kelgan edi: «Demak, tulpor ot suv ma‘budi yoki suv ma‘budi bilan yaqin munosabatda bo‘lgan ilohiy kuchlardan biri bo‘lib, yaxshiliklarni himoya qilishda, yomonlik hamda yovuzliklarga qarshi kurashda yordam beradi.Ot

obrazining bu xususiyatlari suv xudosi Anaxit (Noxit) bilan aloqasi borligidan darak beradi”.¹

Haqiqatan ham o‘zbek xalq topishmoqlarida ot obrazi daryo, suv, soy, yomg‘ir, qor, yel, tumanning epiteti bo‘lib keladi. Xususan, quyidagi jumboqqa e‘tibor beraylik:

*Bizning, bizning, bizning ot,
Bezanglaydi bizning ot.
Oyog‘ida gul-kishan,
Guldiraydi bizning ot.*

Bu topishmoqning javobi – daryodir. Daryoning oqishi otning yelishiga, uning sharqirab, guldirab oqishi esa tuporning kishnashiga o‘xshatilgan. Topishmoq janridagi bu poetik an‘ana ham otning suv ma‘budasi bilan aloqadorligi to‘g‘risidagi qadimgi mifologik tushunchalar asosida shakllangan.

Yomg‘ir yog‘ishi bilan bog‘liq tabiiy hodisalardan biri–momaqaldiroq guldirashini osmon tulporining kishnashiga o‘xshatish an‘anasi ham ana shu mifologik tasavvurlar doirasiga kiradi. Masalan, qadimgi turkiy afsonalardan birida aytilishicha, Ulgan tangri Oqbo‘zot deb atalgan tulporini minib osmonning birinchi qavatida aylanib yurganida momaqaldiroq gumburlar ekan. Ulgan qamchi bilan urganida otning kishnashi momaqaldiroq bo‘lib eshitilarmish.² Shunga o‘xshash tasavvurlar qozoq

¹Зарифов Х. Ўзбек халқ достонларининг тарихий асослари бўйича текширишлар // Пулкан шоир. –Тошкент, 1976, 78-бет.

²Хлопина И.Д. Из мифологии и традиционных религиозных верований шорцев // Этнография народов Алтая и Западной Сибири.- Еовосибирск, 1978.С.71.

mifologiyasida ham saqlangan.¹ Bu ma'lumotlar qadimgi turkiy mifologiyada yomg'ir, momaqaldiroq, chaqmoq kabi tabiiy hodisalar samo tulpori bilan bog'lab talqin qilinganligini ko'rsatadi.

Ardvisuraning to'rtta oq ot qo'shilgan aravada yurishining suv stixiyasi bilan bog'liqligi to'g'risidagi mifologik tushunchalarning bevosita ta'sirida shakllangan afsonalar, o'zbek folklorida mavjudligi M.Juraev tomonidan aniqlangan. Xalqimizning tasavvuriga qaraganda, tangri aravasini qo'shib osmonu falak bo'ylab sayrga chiqqanida arava g'ildiraklarining ovozi momaqaldiroq bo'lib eshitilar emish. Ana shu mifologik tasavvurda «O'rta Osiyoda yashagan turkiy qavmlarning zardushtiylik bilan bog'liq qarashlari» aks ettirilgan.²

Ardvisura otlarining obrazi tabiat kul'tiga sig'inish an'anasi bilan bog'liq mifologik tushunchalarning izchil rivoji natijasida paydo bo'lgan. Chunki xalq orasida yomg'ir oti haqidagi tasavvurlar saqlanib qolgan. Bu mifologik tasavvur «Ikki yarim Gulpari» nomli Xorazm ertagida ham o'z ifodasini topgan. Unda tasvirlanishicha, «Ikki yarim Gulpari»ning otasining ikkita oti bor ekan. Otlaridan birini Yer oti, ikkinchisini Yomg'ir oti deyishar ekan. Qiz o'z sevgani bilan ana shu ikki otni minib, dushmanga qarshi kurashda otlanadilar va yovning kuchini ikkiga bo'lib yuboradilar³. Garchi bu ertakda tasvirlangan tulporning suv

¹ Валиханов Ч.Ч. Избранное произведение.- Алмата, 1958,-С.159.

² Жўраев М. Ўзбек халқ самовий афсоналари. –Тошкент: Фан, 1995.71-бет.

³Хоразм эртаклари.- Тошкент: Фан,51-бет.

stixiyasi bilan bevosita aloqadorligi bo'lmada, uning «Yomg'ir oti» deb atalishining o'zi bu timsol tabiat kul'ti asosida kelib chiqqanligini ko'rsatadi.

«Avesto»ning yaratilish o'rnini ko'pgina olimlar Xorazm vohasi deb tan olishganligi va xorazmliklarning urf-odat, marosim hamda folklorida zardushtiylikka aloqador an'analarning izlari hanuzgacha saqlanib kelayotganligini hisobga olsak, «Ikki yarim Gulpari» ertagida Yomg'ir oti obrazining uchrashi tabiiyligi ma'lum bo'ladi. Yomg'ir oti obrazi bevosita Ardivisura Anaxitaning to'rtsamoviy tulpori to'g'risidagi mifologik tasavvurlarning ta'sirida shakllangan.

Ardivisura Anaxita obrazining kelib chiqishi haqida avestoshunoslikda turli xil fikrlar bildirilgan. Qadimgi Eron miflarini tadqiq etgan I.V.Rak bu masalaga doir barcha ilmiy mulohazalarni umumlashtirib, shunday xulosaga kelgan: «Anaxita kul'tining yuzaga kelishi masalasida asosan uch xil qarash mavjud;

1) U haqdagi tasavvurlarning ildizlari hinderon mifologiyasining qadimiy qatlamiga borib taqaladi. O'sha paytlari Ardivisura Anaxita hosildorlik g'oyasi bilan bog'liq suv ma'budasi sifatida talqin qilingan bo'lib, suv stixiyasini o'zida mujassamlashtirgan;

2) Sof Eron mifologiyasi mahsuli;

3) Yunon mifologiyasidagi suv va hosildorlikilohasi Anait kul'ti bilan aloqador xalq qarashlarining eronliklar orasida yoyilishi munosabati bilan yuzaga kelgan(boshqa

bir gipotezaga ko'ra, aksincha, Anait kul'ti Anaxita obrazining ta'sirida paydo bo'lgan deyiladi)»¹.

Professor M.Is'hoqovning fikricha, Ardvisura Anaxita obrazining yuzaga kelishi tosh asriga borib taqaladi. Ya'ni «yuqori paleolit davridan boshlab tosh, yog'och, suyak kabi materiallardan yasalgan onalik ibtidosini o'zida aks ettirgan haykalchalar bo'lg'usi Anaxita, timsolining dastlabki ifodasi bo'lsa ajab emas. Keyingi ming yilliklar davomida ko'payish-tug'ilish, hosildorlik ustidanhimoyat ramziga aylangan. Ardvisura obrazi ko'proq (troklasha borishga moyil bo'lgan dehqonchilik madaniyati bilan aloqador»dir².

Bizning fikrimizcha, Ardvisura Anaxita dars suvidan foydalanishga asoslangan dehqonchilik madaniyati shakllana boshlagan davrlarda Amudaryo bilan Sirdaryo oraliq'ida yashagan qadimgi bobolarimiz mifologiyasida suv va hosildorlikning timsoli sifatida kelib chiqqan.

I.Braginskiyning Ardvisura Anaxita kul'ti Sirdaryo bo'yida istiqomat qilgan kishilar orasida suv ma'budasi sifatida paydo bo'lgan degan fikri³ ham shu mulohazamizni quvvatlaydi.

¹Рак И.В. Мифы древнего и средневекового Ирана—СПб, 1998, С.448.

²Исхақов М., Алимова Р.Р. “Авесто” да Ардвисура образининг баъзи қирралари тўғрисида // “Авесто” китоби-тарихимиз ва маънавиятимизнинг илк ёзма манбаи” мавзусидаги илмий-амалий семинар материаллари. 2000 йил. 6 декабрь.— Тошкент, 2000.58-бет.

³Брагинский И.С. Ардвисура Анахита // Мифы народов мира. Т.1. — М. 1992.С.100

Ardvisura Anaxita obrazining “Avesto” mifologiyasidagi talqinlari haqidagi ilmiy tahlilimiz asosida quyidagi xulosalarga keldik:

1) Ardvisura Anaxita – suv, mo‘l hosil, Baraka timsoli sifatida tasavvur qilingan mifologik obraz, «Avesto»da uning antropomorf ko‘rinishdagi tasviri o‘z ifodasini topgan. 5-yasht alqovlarida bu mifik personaj to‘lib oqqan daryo, suv ma‘budasi, navqiron go‘zal qiz, oila va inson homiysi sifatida tasvirlangan;

2) Aravisura Anaxita obrazining mifologik mohiyatini oydinlashtiruvchi muhim detallardan biri bu ma‘budaning suv stixiyasi va mo‘l hosil g‘oyasi bilan bog‘liq holda tasavvur qilinganligidir;

3) Ardvisura Anaxita to‘rt oq ot qo‘shilgan aravada yurishi tasvirlangan bo‘lib, yomg‘ir, bulut, shamol va do‘l singari tabiat hodisalari suv ma‘budasining mifologik timsollar sirasiga kiradi. Ardvisurani doimiy ravishda suv bilan ta‘minlab turuvchiva uni yovuz kuchlar xurujidan himoya qiluvchi to‘rt ot obrazi O‘rta Osiyodaqadimgi dehqonlarning tabiat hodisalarini timsollashtirish an‘analari asosida kelib chiqqan mifologik personajlardir;

TISHTRIYA OBRAZINING MIFO-EPIK ASOTIRIY TABIATI

«Avesto»da eng ko‘p sharaflangan va e‘zozga loyiq, deb qaralgan yulduz Tishtriyadir. «Tiyр yasht» sharafnomasida aytilishicha, har bir imonli kishi orombaxsh va xush baxt ato qilsin uchun marhamatli va fidoyi Tishtarga murojaat qilishi, uni baland ovoz bilan olqishlashi zarur. Oy bilan birgalikda ishva qilib, olamga yuz ko‘rsatadigan Tishtar yulduzi oromu osoyishtalik bag‘ishlaguvchi mo‘tabar samoviy iloh, deb tasavvur qilingan.

«Tiyр yasht»ning birinchi bo‘limidagi 2-alqovda aytilishicha, «Orombaxsh va xush xonalar baxsh etsin uchun rayumand va farrihmand, Tishtar yulduzini olqishlaymiz. O‘sha farog‘atbaxsh oqliq sepguvchi yorug‘ darmonbaxsh, tezparvoz, baland, olislardan porlab ko‘ringuvchini shuning uchun olqishlaymizki, pokiza yorug‘lik baxsh aylasin»¹.

Zardushtiylikda bu yulduzni sharaflovchi alqov so‘zlariniaytish chog‘ida ashavan kishi qo‘lida barsman novdalarini ushlab turishi, bu marosimga atab maxsus ne‘mat – sut qo‘shib iylangan xaoma ichimligini tayyorlashi, alqov matnini ezgu o‘y, ezgu amal va ezgu so‘z bilan ijro etishi talab qilingan. Ana shundagina Tishtar yulduzi sharafiga aytilgan alqov ijobat bo‘lib, odamlar farahbaxsh yorug‘likka erishadilar deb qaralgan.

¹ *Авесто. Тарихий – адабий ёдгорлик А. Махкам таржимаси.- Тошкент: “ Шарқ”, 2001. 233-бет.*

Tishtar yulduzi osmon suvlari bilan bogʻliq, deb tasavvur qilinganligi uchun ham zardushtiylarning astral mifologiyasida muhim oʻrin tutgan. Chunki «Tiyr yasht»ning ikkinchi boʻlimidagi 4-bandida buyuk qudrat sohibi, oʻtkir nigohli va bemisl muruvvat egasi Tishtarni «suv gavhari unda boʻlgani uchun olqishlaymiz»¹deyilgan, «Avesto»da oʻz ifodasini topgan qadimiy mifologik tasavvurlar boʻyicha, yer yuzidagi barcha suvlarning ibtidosi aslida osmondagi yulduzlarda joylashgan. Ana shu yulduzlar bagʻrida joylashgan obi hayot «suv gavhari» tushunchasi orqali ifodalangan. Zero “Vendidod”dagi 21-fargardning 13-bandida, “ Ey suvlar gavharini oʻzida asraguvchi yulduzlar! Chiqingiz!» deb qayd qilingan.

Tishtar yulduzi oq ot vujudiga kirib, tulpor qiyofasida samoviy koʻllar uzra parvoz qilar ekan, qurgʻoqchilik keltiruvchi parilar va devlar bilan olishib, gʻolib chiqadi. Uning mardligi va qudrati tufayli qurgʻoqchilik devlari chekinadilar va osmon suvlari yomgʻir boʻlib, zamin uzra taraladi. Bu suvdan bahra olgan nabotot va hayvonot olami, insonlar dunyosi hayotida farahbaxsh kunlar boshlanadi. “Tiyr yasht”ga singdirilgan mifologik tasavvurlar talqinicha, Tishtar yulduzi qudratli tirandoz Arshning kamonidan otilgan oʻq Aryu Xshusa togʻidan hunvant choʻqqisi tomon shiddat bilan uchib borgani singari shitob bilan uchib borar ekan, Axuramazdaning marhamati bilan suv va giyoh maʼbudlari, keng yaylovlar sohibi Mitra unga

¹*Oʻsha manba, 234-bet.*

yo‘l ochib beradilar. Tishtarning yo‘liga chiqqan parilar uni suvli ko‘llar bo‘yiga yaqinlashtirmaslikka harakat qiladilar. Ammo Tishtar parilar ustidan g‘olib chiqib, obi hayot uzra parvoz qiladi.

Tishtarning yomg‘ir suvlarini zamin uzra sochishi mazkur yashtda shunday tasvirlangan:

“Rayumand va farrihmand Tishtar yulduzini olqishlaymiz. U parilardan g‘olib keldi. Suv go‘yat keng zamin hududini qoplagan qudratli Farog‘ Kart daryosi yeru osmon o‘rtasida dumli yulduzlar jismiga qo‘shilish lahzalaridan parilar bunga barham bermoq istadilar. Haqiqatdan, u pokiza bir tulpor vujudiga kirib, suvdanto‘lqin va mavjlar yaratadi. So‘ng epchil shamol yela boshlaydi. Shundan so‘ng, iloh Sataviys bu suvni yetti iqlimga taqsim aylaydi. Ko‘rkam va osudabaxsh Tishtar o‘lkalar sari yuz buradi va ularni qutlug‘yildan ogoh aylaydi”¹.

Ajdodlarimizning mifologik tasavvuriga ko‘ra, Darog Kart daryosi afsonaviy suv manbai bo‘lib, zamin bilan osmon o‘rtasidagi bu obi hayot manbaining suvlari dumli yulduzlar vositasida ko‘kka o‘rlab, samoviy ko‘llar bag‘rini to‘ldiradi-da, yulduzlar jismiga singadi. Tishtarning sharofati tufayli daryolar to‘lib oqa boshlaydi, buloqlarning ko‘zi ochiladi, dala-tuzlar yam-yashil o‘tlar bilan burkanadi. Bu yulduz jismidagi suv yomg‘ir bo‘lib

¹ *Авесто. Тарихий – адабий ёдгорлик А. Махкам таржимаси.*– Тошкент: “ Шарқ”, 2001. 234-бет.

sochilishi natijasida lalmikor yerlardagi bug'doyzorlarda hosil mo'l bo'ladi.

“Avesto”da Tishtarning bir oy davomida uch xil timsoliy ko'rinishda namoyon bo'lishi haqidagi mifologik qarashlar ham o'z ifodasini topgan. Bu samoviyjismning u ko'rinishini o'zgartirishi, ya'ni evrilishi xalq og'zaki ijodiyotining an'anaviy poetik detallaridan biri – uch takror usuli asosida talqin qilingan. Ma'lumki, folklor asarlaridagi «an'anaviy uch takrorlar badiiy formula sifatida poetik strukturada turg'unlashib qolgan. Syujet elementlarini uch marta takrorlash an'anasining evolyutsiyasi mif – marosim – folklor bosqichlaridan iborat”¹. Bizningcha, Tishtarning o'z qiyofasini uch marta o'zgartirib, o'n besh yoshli yigit, sigir va oq tulpor ko'rinishida namoyon bo'lishi an'anaviy uch takror poetik detal sifatida bevosita mifologik tasavvurlar asosida shakllanganligiga dalildir.

Ajdodlarimizning astral ishonchlari talqinicha, bu yulduz oying dastlabki o'n tuni davomida o'n besh yoshli navqiron yigit qiyofasiga kiradi. “Tiyр yasht”da aytilganidek, “Tishtar ilk o'n tun davomida moddiy-zaminiy vujud istaydi va o'n besh yoshli mard jismi uzra yorug'lik, o'tkir nigoh, qudrat vaepchillik bilan parvoz qiladi”². Ya'ni u ilk marta belbog' bog'lagan mard, qudrat va salohiyatga ega bo'lgan yigit, mardlik maydoniga ilk bor qadam qo'ygan mardona” inson qiyofasiga evriladi.

¹Жўраев М. Ўзбек халқ эртаклари сеҳрли рақамлар. – Тошкент: Фан, 1991, 74-бет.

²Авесто. Тарихий – адабий ёдгорлик А. Махкам таржимаси.– Тошкент: “ Шарқ”, 2001. 234-бет

Samo jismlari, xususan, yulduzlarni inson qiyofasidagi tasavvur qilish dunyo xalqlari astral mifologiyasining mushtarak motivlaridan biri hisoblanadi. Astral miflarning muayyan bir qismi odam, ma'bud yoki ilohlarning samoviy yoritqichga evrilishi motivi asosiga qurilganligi bu tipdagi asotirlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ekanligi V.V.Ivanov tomonidan ham e'tirof etilgan¹.

Folklorshunos M.Jo'rayev esa astral kul'tlar haqidagi mifik qarashlar "yulduzni odam joni deb tasavvur qilish, shuningdek, yulduzga aylangan afsonaviy homiyilar madadiga ishonish an'anasi asosida" kelib chiqqan deb hisoblanadi².

Tishtar yulduzining dastlabki o'n tunda o'n besh yoshli yigit ko'rinishida namoyon bo'lishi motivi ham xayoliy qahramonlarning samoviy yoritqichlarga aylanishi hamda homiy sifatida tasavvur qilingan osmon jismlari inson qiyofasida namoyon bo'lishi haqidagi qadimiy mifologik tasavvurlar asosida yuzaga kelgan.

Tishtarning evrilishidagi ilk bosqich talqinida o'n besh yoshli yigit obrazining qayd qilinishi esa zardushtiylikning an'anaviy marosimlari bilan bog'liqdir. Ma'lumki, qadim zamonlarda yashagan ajdodlarimiz odatga ko'ra inson o'z hayoti davomida bir necha bosqichlarni bosib o'tadi, ya'ni bolalik, o'spirinlik, yigitlik, navqironlik va keksalik kabi alohida yosh-tabaqa bo'linishlari mavjud

¹Иванов В.В. *Астральные мифы // Мифы народов мира. Т.1. – М., 1992, С.117.*

²Жўраев М. *Ўзбек халқ самовий афсоналарининг тарихий асослари. Докторлик диссертациясининг автореферати. –Тошкент, 1996, 25-бет.*

bo'lgan. Bir yosh-tabaqa bo'linishidan boshqasiga o'tish uchun muayyan sinov shartlarini bajarish talab qilingan. Shu shartlarni bajarib, sinovni uddalay olganlargina navbatdagi bosqichga o'tkazilgan¹. Bu udum zardushtiylikda ham amalda bo'lgan. Ularning odatlariga ko'ra o'n besh yoshga kirgan o'g'il bola balog'atga yetgan hisoblangan. O'n besh yoshga to'lgan bolaga maxsus belbog' bog'lanadi. Endi bu odam zardushtiylikning marosimlarida qatnashish huquqiga ega bo'ladi. O'n besh yoshga to'lgan yigitga Tishtar yulduzi "o'g'illar yaratish qudratini baxsh etadi, bir guruh o'g'illar va ruh komilligini nisor aylaydi". Belbog' bog'langan yigit esa sutga omuxta qilingan zavr bilan tishtar yulduzini olqishlab, haqiqatning oliy odobi bilan undan osoyishtalik va seroblik so'raydi.

"Tiyir yasht"ning oltinchi bo'limidagi 13-15-bandlarida talqin qilingan astral qarashlar zardushtiylikning bir yosh – tabaqa mansubiyatidan boshqasiga o'tish bilan bog'liq sinov-inistiatsiya marosimlarida ham Tishtar yulduzining homiyligiga ishonishga asoslangan ramziy-magik amallar bajarilganligini ko'rsatadi. Demak, astral kul'tlar ajdodlarimizning marosim va udumlaritizimidagi ritual qatlamning shakllanishiga samarali ta'sir o'tkazgan.

¹ Бу оодатнинг хоразмликлар орасида сақланган айрим кўринишлари Г.П.Снесарев томонидан тадқиқ этилган. Бу ҳақда қаранг: Снесарев Г.П. Традиция мужских союзов в её позднейшем варианте у народов Средней Азии // Полевые исследования Хорезмской экспедиции в 1953-1961 гг. ч.2.-М.1963.

“Avesto” mifologiyasi talqinicha, ikkinchi o‘n tunda Tishtar yulduzi moddiy vujudni tanlaydi hamda zarrin shohli sigir vujudida parvoz qiladi. Bu davrda sahoatpesha bu yulduz sigirlar podasiga baraka ato etib, chorva mollari uchun mo‘l-ko‘l ozuqa manba sanalgan yaylovlardagi o‘t-o‘lanlarning barq urib o‘sishi uchun zarur bo‘lgan yomg‘irlarni yog‘diradi.

Ma‘lumki, zardushtiylikda sigir mo‘tabar jonivor deb tasavvur qilingan. Chunki bu jonivor ezgu maqsad timsoli hisoblangan. Vohu Mana tomonidan yaratilgan emish. Qadimgi mifologiyada sigir serhosillik, qut-baraka va suv timsoli sifatida tasavvur qilingan¹. Anashu inonchlarning bevosita ta‘sirida Tishtarning ikkinchi evrilishini sigir ko‘rinishida tasvirlash an‘anasi kelib chiqqan.

Tishtaryulduzi haqidagi astral qarashlarning markazida bu samo jismini oq tulpor ko‘rinishida talqin qilish an‘anasi turadi. Bu yulduz uchinchi bora o‘z ko‘rinishini o‘zgartirar ekan, o‘n tun davomida “g‘oyat go‘zal, oq tusli zarrin quloqli zarnishonjilovli tulpor vujudiga kirib, farog‘at og‘ushida barpo qiladi”².

Bu yulduz xuddi shu suratda tasvirlanganda uning osmon suvlari egasi, yomg‘ir yog‘diruvchi samoviy homiy sifatidagi xususiyatlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Biz tishtarining uchinchi evrilishi mohiyatini anglasak, “Tiyr yasht”ning uchinchi bo‘limda keltirilgan “qachon

¹ Иванов В.В. Корова // Мифы народов мира. Т.2.-М. 1992, С.5.

² Авесто. Тарихий – адабий ёдгорлик А. Махкам таржимаси.– Тошкент: “ Шарқ”, 2001. 235-бет

chashmalar suvi tulpor qudrati bilan qayta ravon bo'ladi?" alqovining ma'nosini to'g'ri sharhlay olamiz. Bu alqovda ham oq tulpor shaklida parvoz qilib yurgan Tishtar yulduzi yomg'ir yog'dirishi haqidagi xalq inonchlari o'z ifodasini topgan. Chunki yomg'ir ko'p yog'sa, zamin obi hayot bilan to'yinadi va chashmalar ham sersuv bo'ladi.

Tishtarning dushmani, uning zaminni suv bilan ta'minlanishiga qarshilik qiluvchi Apasha esa qora ot shaklida namoyon bo'ladi. Apasha qurg'oqchilik timsoli bo'lib, Tishtarni Farog' Kart daryosi sohillariga yaqin yo'latmaslikka harakat qiladi. Ammo ezgulik kuchlarining madadi bilan Tishtar g'olib chiqadi va zamindagi barcha o'zanlarda suv jo'sh urib oqishini, ekinzorlar, yaylovlar va bog'lar yashnashini ta'minlaydi.

Bu o'rinda Tishtarning oq ot ko'rinishiga evrilishi motiviga aloqador ikki mifologik inonchni tahlil qilish lozim. Shulardan birinchisi, yulduzlarning ot shaklida tasavvur qilinishi masalasidir.

O'zbek xalq dostonlaridagi jangovor ot obrazining yulduz bilan aloqadorligining mifologik asoslarini birinchi bo'lib yoritishga harakat qilgan. X.Zarifovning fikricha, "jangovor ot qahramonning safarga jo'nashini sezib, o'ynoqlab turgan tasviri "yulduzni ko'zlab turibdi" deyiladi... Otning yulduzga intilishi uning eng yaxshi xislati – chopqirlik, uchqurlik belgisi sifatida ko'rinishi mif bilan bog'liq ekanidan dalolat beradi. "Oqbo'zot", "Ko'kbozot" deb atalgan yulduzlar haqidagi miflar bu masalani kengroq

yoritishiga yordam beradi. Temir qoziqqa bog‘lab qo‘yilgan otni o‘g‘irlash uchun Yetagen (yetti qaroqchi) yulduzlarining aylanib yurishi tasvirlangan “Temirqoziq” yulduzi haqidagi mifda ham markaziy o‘rinni ot egallaydi”¹.

Yulduzlarni otlar sifatida tasavvur qilish turkiy xalqlarning samoviy mifologiyasida ham mavjudligi qayd qilingan. Xususan, “Oqbo‘zot va Ko‘kbo‘zot” to‘g‘risidagi qozoq asotirida aytilishicha, Temir qoziqqa ikki ot bog‘lab qo‘yilgan emish. Ulardan biri Oqbo‘zot deb atalsa, ikkinchisi Ko‘kbo‘zot deyilarkan. Yetti qaroqchi yulduzlari anashu otlarni o‘g‘irlash uchun kechasi bo‘yi harakat qilishar, ammo tong yorishgach, ularning o‘ylagan niyatlari amalga oshmay qolaverarkan. O‘g‘rilar bu osmon otlarini qo‘lga kiritgan kun qiyomat qoyim bo‘larmish”².

Bu mif syujeti asosida yaratilgan samoviy afsonalarning O‘rta Osiyo turkiy xalqlari folkloridagi versiyalari X.Abshiyev, M.Jo‘rayev kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan³.

Epik otlarning yulduzga evrilishi motivi ham turkiy xalqlar folklorining qadimiy syujet elementlaridan biri sifatida dostonlar tarkibida saqlanib qolgan. Yosh tadqiqotchi A.Tilovovning keltirishicha, epik qahramon

¹ Зарифов Х. Ўзбек халқ дostonларининг тарихий асослари бўйича текиширишлар // Пулкан шоир. –Тошкент, 1976, 80-бет.

² Диваев А. Киргизский рассказ о звёздах // Известия общества археологии, истории и этнографии при императорском Казанском университете.Т.XIV. – Казань, 1897С.34.

³ Абишев Х. Аспан сыры. – Алмата, 1966, 80-бет; Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларида сеҳрли рақамлар. – Тошкент: Фан, 1991, 112-бет; ўша муаллиф, ўзбек халқ самовий афсоналари. –Тошкент; Фан, 1995, 30-31-бетлар.

otining yulduzga aylanishi motivi an'anaviy poetik elementlaridan biri bo'lib, jangovor ot o'z egasiga ko'maklashishidan ojiz bo'lib qolgan paytda yulduzga evrilishi tasvirlanar ekan. Bu motivning nisbatan qadimiy tipi oltoyeposida qayd qilingan. Temirchi – Eren nomli ot Oq Cho'rmon deb ataluvchi yulduzga aylanib, samoviy kengliklar bag'riga bir muddat singib ketgandan keyin, yana o'zining avvalgi ko'rinishiga enib, yerga qaytib tushadi. Xuddi shu motivning o'ziga xos talqini yoqut eposida ham qayd qilingan: qahramon o'z tulporini Yetti qaroqchi yulduziga aylantiradi-da, jilovini hulkarning qo'liga tutqazib egar-jabdug'ini Cho'lponga topshiradi¹.

Demak, yulduzlarniotsuvratida tasavvurqilishgamoslashganastral mifologik tasavvurlar osmon jismlarining paydobo'lishi bilan bog'liq qadimiy miflarsyuj etidagi jonivorlarning yulduzga evrilishi motiviasosida yuzaga kelgan. Bu motivning yuzaga kelishiga yulduzlarning osmonda kezib yurishining uchqur tulporlarning shitob bilan yelishiga o'xshatish asos qilib olingan bo'lishi kerak. Astral miflarda otlarning yulduzga evrilishi yoki yulduzning ot ko'rinishidagi namoyon bo'lishi motivlari ham mavjud bo'lgan. "Tiyr yasht"da ham Tishtar yulduzining moddiy vujud istab oq ot shakliga kirishi ana shu astral motiv asosida talqin qilingan.

¹Тилавов А. Ўзбек халқ дostonларидаги от образининг тарихий асослари ва бадий талқини. Номз.Дисс. – Тошкент, 2000, 44-45-бетлар (қўлёзма).

“Avesto”dagi tabiat kul’larining mifologik talqinlarini tahlil qilishda oq ot tarzida nomoyon bo’lgan Tishtarning suv bilan bog’liq holda tasvirlanishining genetik asoslarini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. “Tiyr yasht” talqinicha, Tishtar yulduzi “oq tusli, ko’rkam zarrin quloq, zarnishon jilovli tulporga nuzul aylab, Farog’ Kart daryosi sari bordi. Shunda uning qarshisida qora tusli, quloqlari, bo’yni va dumi kalta kal ot vujudiga kirib olgan Alasha devi paydo bo’ldi. Ular ikkisi kun yarmigacha olishdilar. Nihoyat, rayumand va farrihmand Tishtar Apasha devni mag’lub ayladi va unga shikast berdi. Shundan keyin Apashani Farog’ Kart daryosidan bir hosar nariga quvib bordi».

Zardushtiylik mifologiyasida Tishtar yulduzi Farog’ Kart daryosidan suvli bulutlarni ko’tarib, zaminga yomg’ir yog’dirishi uchun bu daryoga oq ot vujudiga kirgan holatda boradi. Demak, osmon suvlari egasi hisoblangan Tishtarning tulpor ko’rinishida namoyon bo’lishi suv stixiyasi bilan bevosita bog’liqdir.

Tishtarning dushmani sifatida tasvirlangan Apaosha devi ham qora qirchang’i ot ko’rinishida bo’lib, bu kurash dualistik qarashlar asosida talqin qilingan. Tishtar ezgulik timsoli bo’lsa, Apaosha yovuz kuchlar sirasiga kiradigan Axrimaniy devdir “Avesto”da Tishtarning mifologik raqiblaridan yana bittasining nomi keltirilgan. Bu Aspanjarush nomli dev bo’lib, u

ham yomg'irsuvlarining egasiga qarshi kurashda Apasha tarafida turadi¹.

Tishtarning oq ot vujudiga kirishi, ya'ni otga evrilishi motivining mifologik zamini otning suv stixiyasi bilan bog'liqligi to'g'risidagi qadimiy xalq qarashlari bilan ham mushtarak negizga ega. Ko'ldan chiqqan tulporlar haqidagi mifologik afsonalar o'zbeklar orasidan qadimdan yashab kelayotganligi va bunday afsonalarning syujeti epik otlarning shajarasini suvdan chiqqan deb tasavvur qilinadigan samoviy tulporlar nasli bilan aloqalantirish motivining yuzaga kelishi uchun poetik zamin vazifasini o'taganligi folklorshunos olimlar tomonidan qayd qilingan².

Bu o'rinda, ayniqsa, atoqli olim H.Zarifovning quyidagi so'zlarini keltirib o'tish masalaga ancha oydinlik kiritadi deb o'ylaymiz: «Ot haqidagi mifga ko'ra, barcha tulporlarning otasi suv ayg'iridir. Demak, tulpor suv ma'budi yoki suv ma'budi bilan yaqin munosabatda bo'lgan ilohiy kuchlardan biri bo'lib, yaxshiliklarni himoya qilishda, yomonlik hamda yovuzliklarga qarshi kurashda yordamberadi»³.

Bizningcha, Tishtarning oq ot ko'rinishida Farog' Kart daryosi tomon borishi motivining mifologik asoslarida

¹ *Короглы Х.Г. Взаимосвязи эпоса народов Средней Азии, Ирана и Азербайджана. – М: Наука, 1983, С.29.*

² *Бу ҳақда қаранг: Тилавов А. Қўрсатилган диссертация, 39-44-бетлар.*

³ *Зарифов Х. Ўзбек халқ достонларининг тарихий асослари бўйича текиширишлар // Пўлкан шоир. –Тошкент, 1976, 78-бет.*

ham suv tulporlari to'g'risidagi xalq inonchlari yotadi. Ajdodlarimiz samoviy daryodagi suvni olish va bulutlarga singdirib zamin uzra yog'dirish uchun obi hayot manbaiga faqat tulpor shaklidagina borish mumkin deb o'ylaganlar. X.Zarifov juda to'g'ri ta'kidlaganidek, hosildorlik g'oyasi bilan bog'liq miflarda dastlab suv ma'budi tulpor ko'rinishida tasavvur qilingan. Tishtarning timsoliy qiyofalaridan biri oq ot sifatida tasavvur qilinganligi ana shu mifologik tushunchalar sistemasiga kiradi. Keyinchalik esa tulpor suv ma'budining afsonaviy ko'makchilaridan biri vazifasini bajara boshlaydi. Masalan, "Avesto" mifologiyasida Ardivisura Anaxitaning to'rt samoviy tulpori ana shunday mifologik timsollardan sanaladi.

"Avesto"ning astral mifologiyasida Tishtar yulduzining osmon suvlari egasi, yomg'ir yo'g'dirib zaminga barhayotlik baxsh etuvchi ma'bud sifatidagi talqini alohida o'rin tutgan. Garchi «Tiyr yasht»da Sataviys, Parvin, hafturang hamda firuzlik, zabardastlik va muzaffariyat timsoli deb qaralgan Vanand yulduzi bilan bog'liq xalq qarashlari ham o'z ifodasini topgan bo'lsa-da, alqovning barcha bo'limlari aslida orombaxsh va farog'atbaxsh Tishtarni sharaflashga bag'ishlangan.

Tishtarni sharaflovchi alqov so'zlari boshqa yashtlarda ham uchraydi. Masalan, «Xurmuzd yasht»ning 32-bandida bu yulduzni e'zozlovchi quyidagi misralar bitilgan:

Yarqiroq va baxtiyor

*Zuhal yulduz sha'niga.
Ul imondor sha'niga,
Muqaddas ruh yaratgan
Barcha xilqat sha'niga
(Ta'zim ado etaylik).¹*

Mitrani sharaflashga bag'ishlangan «Mehr yasht» alqozida esa eng buyuk ma'bud Mitra nurafshon yuzli xilqat sifatida tasavvur qilingan Tishtar yulduzi (Tarjimon bu o'rinda ham uni o'zbek tiliga "Zuhal" deb o'g'irgan)gao'xshatiladi:

*Mitraga topinurmiz...
U eng buyuk ma'buddir.
Muqaddas Ruh tong saharda
Yaratgan uni qodir
Yaratgan uni shu choq.
Oy to'lishganda porloq.*

Nur yo'g'ilgan porloq yuzGo'yoki Zuhal yulduz.²

Bu alqov so'zlarining turli xil yashtlar tarkibida kelishi Tishtar yulduziga topinish an'anasi zardushtiylikning astral mifologiyasida yetakchi mavqega ega bo'lganligini ko'rsatadi hamda uning deyarli barcha marosimlarda ezgu ma'budlar qatorida uning nomini ham tilga olish urf bo'lganligidan dalolat beradi.

¹ *Авесто. Яшт китоб // М. Исхоқов таржимаси. –Тошкент: “Шарқ”, 2001.15-бет.*

² *O'sha manba, 70-bet.*

VARAXRAN OBRAZINING TIMSOLIV KO'RINISHLARI

“Avesto”dagi tabiat kul'tiga aloqador mifologik personajlar sistemasida turli xil jonivorlarning timsolashtirilgan obrazlari ham alohida mavqega ega. Zardushtiylar sigir, it, tuya, qo'chqor, qobon, ot va qushlarni mo'tabar deb bilganlar. Zardushtiylarning jonivorlar kul'ti bilan bog'liq mifologik tasavvurlari «Baxran yasht»da saqlanib qolgan.

Ma'lumki, “Denkard” kitobida qayd qilinishicha, «Avesto»ning o'n to'rtinchi yashti g'alaba va shon-shuhrat ma'budi, adolat va imon posboni Varaxran (“Avesto” talqinicha, Veretragna)ga bag'ishlangan. Ezgu niyat sohiblariga omad va g'oliblik baxsh etuvchi mo'tabar ilohlardan biri hisoblangan Varaxran Axuramazda tomonidan yaratilgan. Shuning uchun u Axriman tarafdorlariga qarshi kurashib, hamisha ezgu so'z, ezgu amal va ezgu fikrni qo'llab-quvvatlaydi deb tasavvur qilingan. Varaxranning «Baxran yasht» alqovidagi talqinlari ham ajdodlarimizning ana shu mifologik tasavvurlarini o'zida mujassamlashtirgan. Varaxran obrazining mifologik qiyofasi bu ma'budning Zardusht huzurida hozir bo'lishi tasvirida o'ziga xos tarzda talqin qilingan. Bu lavhalar tabiat kul'tining o'ziga xos ko'rinishlaridan biri – jonivorlarni timsollashtirish an'anasining “Avesto”dagi

mifologik talqinlarini o'rganishda ham muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, qadimgi mifologik tasavvurlarga ko'ra, insonga homiylik qiluvchi g'ayrioddiy kuchlar turli xil ko'rinishda namoyon bo'lish xususiyatiga ega deb qaralgan. Shuning uchun ham xalqimiz orasida oq ilonni arvoq deb o'ylab, uning ustidan un sochish odati,¹ qo'yni esa bobolar ruhi deb tushunish, arvoq kapalakka ishonish udumlari, shuningdek, sehrli ertaklarda afsonaviy homiylarning turli-tuman jonivorlarga aylana olishi bayon etilgan motivlarning mavjudligi ham bejiz emas. Folklorshunos M.Jurayevning fikricha, bu etnofolkloriy hodisalarning genezisi bevosita animistik qarashlarga borib taqaladi. Epik qahramonning turli xil shakllarga kira olishi, ya'ni evrilish xususiyatiga ega bo'lishi eng qadimiy mifik qarashlar asosida kelib chiqqan motiv hisoblanadi².

Jahon xalqlari folklorining universal epik motivlaridan biri hisoblangan evrilish hodisasining mifologik talqini «Baxran yasht»da ham qo'llanilgan. Bu motiv Varaxranning Zardusht huzurida bir necha xil ko'rinishda namoyon bo'lishi tarzida ifodalangan.

Zardusht Axuramazdaga murojaat qilib, dunyoda eng kuchli va qudratli zot kim deb so'raganida, u Varaxran haqida so'zlaydi. Shundan keyin Varaxran ilk bor

¹ *Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М., Наука, 1969. С.114.*

² *Жўраев М. Ўзбек халқ наصري жанрларини тасниф қилиши мезонлари // ўзбек тили ва адабиёти. 1996.5-сон, 36-бет.*

Zardushtning huzuriga shamol bo'lib keladi. Varaxranning Zardusht huzuriga ikkinchi marta kelishi tasvirida esa ma'bud «oltin muguzli buqa» sifatida namoyon bo'ladi. Bu oddiy buqa emas, balki shoxlarining o'rtasidan kuch-qudrat hovri o'rlab turgan ilohiy bir xilqatdir:

*Oltin muguz buqadek
Ko'rinib Zardusht tomon,
Bo'ldi shunda Varaxran-...
Axuradan yaralgan.
Shoxlari o'rtasidan
Kuch, qudrat hovri o'rlar...
Shunda bo'ldi namoyon
Axuradan yaralgan.¹*

Qahramonning buqa-ho'kiz sifatida tasvirlanishi ham O'rta Osiyo xalqlari mifologiyasining qadimiy motivlaridan biri. Zardushtiylik asotirlaridagi ilk odam – Gavomard (qayumars) ham yarmi inson, yarmi ho'kiz ko'rinishida tasavvur qilingan. Buqa yoki ho'kiz kul'ti hosildorlik inonchi bilan bog'liq holda kelib chiqqan bo'lib, mamlakatimizda olib borilgan arxeologik qidiruvlar chog'ida bu jonivor tasviri tushirilgan ko'pgina lavhalar, buqa haykalchalari topilgan². O'lkamizda dehqonchilik madaniyatining yuzaga kelishi va taraqqiyoti natijasida

¹ *Авесто. Яшт китоб // М. Исхоқов таржимаси. –Тошкент: “Шарқ”, 2001.96-бет*

² *Ремпель Л.И. Цепь времен. Вековые образы и бродячие сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии. – Тошкент, 1987.С. 22-24; Беленицкий А.М. Изображение быка на памятниках искусстве Средней Азии // Этнография и археология Средней Азии. – М.,1979.С.88-94.*

qo'sh haydash vositalaridan biri hisoblangan ho'kizni muqaddaslashtirish an'anasi kelib chiqqan.

Qahramonning ho'kiz ko'rinishida namoyon bo'lishi motivi o'zbek folklorida ham mavjud. «Zangiota maqbarasining qurilishi» nomli o'zbek xalq afsonasida naql qilinishicha, «Amir Temurning buyrug'iga binoan Turkistonda Ahmad Yassaviyga maqbara qurilishi boshlanibdi. Qurilish boshlanganining ertasi kuni kelib qarasar, kechagina terilgan g'ishtlar sochilib, maqbara buzilib, poydevori qiyshayib yotganmish. Ustalar qaytadan ish boshlabdilar. Bir necha kun o'tar-o'tmas qurilayotgan maqbara yana buzilaveribdi. Shundan so'ng amir, qurilayotgan maqbara atrofiga qorovullar qo'yishni buyuribdi. Poylab yotgan qorovullar yarim kechasi gubir-gubir ovozlarni eshitib, maqbara qurilayotgan tomonga qarab, hayratdan yoqa ushlab qolibdilar: Ne ko'z bilan ko'rsinlarki, maqbarani qandaydir bir ho'kiz buzayotgan emish. Shundan keyin Ahmad Yassaviyning o'zlari jiyanlari Zangiota tug'ilgan paytda, «mendan avval jiyanimga maqbara qurilsin» deb vasiyat qilgan ekanlar, degan ovoza tarqalibdi. Shu voqeadan keyin Zangiota maqbarasi qurila boshlanibdi»¹.

Ma'lumki, o'zbek mifologiyasida Zangiota qoramollarning homiysi hisoblanadi. Afsonadagi maqbarani buzayotgan ho'kiz ham aslida zoomorf

¹ *Ипак йўли афсоналари. Тўплаб, нашрга таёрловчи: М.Жўраев. – Тошкент:Фан, 1993.71-72-бетлар.*

ko‘rinishda namoyon bo‘lgan ana shu mifologik homiy – Zangiota deb tasavvur qilingan. Varaxranning buqa ko‘rinishida tasvirlanishi an‘anasi bilan yuqorida keltirilgan o‘zbek xalq afsonasidagi ho‘kiz obrazining talqini orasida bevosita bog‘lanish mavjud. Bu obrazlarning har ikkalasi ham jonivorlarni muqaddaslashtirishga asoslangan tabiat kul‘ti mifologiyasi mahsuli hisoblanadi.

Varaxranning timsoliy ko‘rinishlari orasida uning oq ot tarzida namoyon bo‘lishi tasviri alohida o‘rin tutadi. Zardusht huzuriga uchinchi marta kelganida u oltin yuganli, oltin quloqli ot bo‘lib ko‘rinadi:

*Uchinchi bor Varaxran
Zardushtga ko‘rinibdi,
Axuradan yaralgan
Oppoq ot, oltin yugan,
Oltin quloq bir jiyron.
Boshi uzra ko‘kka bo‘y
Cho‘zar Kuch, qudrathovri,
Shunday bo‘ldi namoyon
Axuradan yaralgan.¹*

Bu lavhadan ko‘rinib turibdiki, Varaxran obraziga xos yetakchi belgilardan biri, yani uning kuch-qudrat timsoli sifatida sharaflanishi o‘z aksini topgan. Uning oltin shoxlari uzra kuch-qudrat o‘rlashi esa samo-osmoniy olam bilan aloqadorlik, ya‘ni ma‘budlik belgisi hisoblanadi.

¹ *Авесто. Яит китоб // М. Исхоқов таржимаси. –Тошкент: “Шарқ”, 2001.97-бет*

Zardushtiylikda tuya kul'ti ham e'tirof etilgan. Tuya buyuklik, ulug'lik timsoli, hokimiyat va kuch-qudrat ramzi sifatida tasavvur qilingan. Qadimda podsholar taxtining tuya shaklida yasalganligining asosi ham ana shunda. Etnograf G.P.Snesarevning ma'lumot berishicha, tuya kul'tining izlari Xorazmliklarning islomdan oldingi marosim va udumlarida ham saqlanib qolgan. Xususan, tuyani mo'tabar va pok jonivor deb e'zozlash, ularni daryo suvini boshqarib turadigan afsonaviy kuch – arallarnomi bilan atash, “tuyako'z” deb ataluvchi tumorlarni taqish, tuya junini magik xususiyatga ega bo'lgan ashyo sifatida qadrlash kabi udumlar¹ zamirida bu jonivor kul'ti bilan aloqador qadimgi mifologik tushunchalar yotadi.

O'rta Osiyo xalqlari mifologiyasida tuya kul'ti katta ahamiyatga ega bo'lganligini arxeologik materiallar ham tasdiqlaydi. Xususan, Varaxsha va Toshkentdan topilgan qadimiy tangalarda, Panjikentdan topilgan muhrda, Samarqand va Marv shaharlarida aniqlangan terrakota haykalchalarida tuya tasviri tushirilganligi ma'lum. Bu materiallardagi tasvirlarda O'rta Osiyoda qadim vaqtlarda shakllangan tuya kul'ti o'z ifodasini topganligi va bu an'ana “Avesto” mifologiyasi bilan bog'liqligi L.I.Rempel tomonidan ham qayd qilingan.²

¹ Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М., Наука, 1969. С.317-318.

² Ремпель Л.И. Кўрсатилган асар, 31-бет.

Darhaqiqat, “Avesto”da Veretragnaning to‘rtinchi marta Zardusht qoshiga kelishi lavhasida bu ma’bud tuya ko‘rinishida namoyon bo‘lganligi tasvirlangan:

*To‘rtinchi bora Bahrom
Zo‘r tuya bo‘lib ko‘rindi.
Shiddatkor, mayin juni
Kiyimbop, qoyilmaqom.
Eng kuchli tuyabo‘lib,
Nor tuyalarning zo‘ri,
O‘zi qo‘riqlab yurgan
Modalari tomonga,
Intilar ehtiros-la-
O‘rkachlari go‘yo tog‘,
Kuchda tengsiz to‘rt oyoq...
Katta-katta ko‘zlari
Oqil boqar atrofga,
Ko‘rkam tanli, qudratli,
Bo‘ydor ulkan nortuya.
Ko‘zlari yonib turar
Tunning qorong‘usida,
Uzoqdan yulduz misol,
Oq ko‘piklar sochadi,
Yuzu ko‘zi aralash,
Oyoqlari ostiga
Sachrar tupuruklari,
Kuchli hukmdor kabi*

*Tik qarab turar olg'a,
Paydo bo'ldi Varaxran,
(Yaqinlab Zardusht tomon).¹*

Veretragnaning zoomorf timsollari orasida uning tuya shaklidagi obrazi ancha batafsil tasvirlangan. Bu tuya ilohiy xilqat ramzi bo'lib, yulduzni ko'zlab uchadi. Uning katta-katta ko'zlari atrofga oqil boqishi esa bu jonivor qadimda insoniyatni o'z himoyasiga olgan ilohiy jonzot sifatida e'tirof etilganligini ko'rsatadi. Xorazmliklar orasida «tuya ko'z» deb atalgan tumorning mavjud bo'lganligi haqidagi ma'lumotning asosi ham ana shu tushunchalarga aloqador. Tuya ko'zi – himoya qiluvchi, yovuz kuchlardan saqlovchi magik vosita deb tasavvur qilingan.

Zardushtiyalar Veretragnaning timsoliy ko'rinishlaridan birini tishlari o'tkir qobon sifatida tasavvur qilganlar. Ma'lumki, qobon yovvoyi hayvon bo'lib, o'zining nihoyatda kuchliligi va tezkorligi bilan ajralib turadi. Uning ana shu sifatlari Veretragnaning jangovarligi va kuchliligiga o'xshatilgan va natijada quyidagi mifologik tasavvur kelib chiqqan:

*Beshinchi bor Zardushtga
Ko'rindi Axur Mazda,
Yaratgan Veretragna,
Darg'azab qobon misol,
O'tkir qoziq tishlari,*

¹ *Авесто. Яшт китоб // М. Исхоқов таржимаси. –Тошкент: “Шарқ”, 2001.97-бет*

*O'tkir qoziq tishlari,
Sanchilsa, tik o'ldirar.
Quturib yon-veriga
Hech kimsani yo'latmas.
Yuzlari ola – paysa
Chaqqon, epchil va chapdast,
Shunday keldi Veretragna.¹*

Yashtda bayon qilinishicha, bu qobonning ko'rinishi juda dahshatli, rangi ola-bula, qoziq tishlari bo'rtib chiqqan, bu tishlari bilan har qanday dushmanini tilib tashlashga tayyor. Serjahl bu jonivor bamisoli quturgandek, atrofiga hech narsani yaqin yo'latmaydi. Bu jonivorning shu kabi sifatleri Veretragnaning jangovorlik xususiyatini ifodalashga qaratilgan.

Veretragnaning qobon ko'rinishidagi timsoliy obrazi "Avesto"ning boshqa yashtlarida ham tasvirlangan. Masalan, "Mehr yasht" ning 127- bandida qobon ko'rinishiga kirgan Varaxran Mitraning izidan borishi tasvirlangan:

*Mitraning izlaridan
Borar ma'bud Varaxran
G'azabnok qobon misol
Serjahl o'tkir tishli,
Xanjardek qoziq tishli,
Halik etar bir yo'la
Quturib yo'latmas zo'r*

¹O'sha manba, 97-bet.

*Qo'rqichli ola – bula*¹.

“Avesto”da qush kul'ti bilan aloqador mifologik lavhalar ham anchagina uchraydi. Bu xil tasavvurlar asosan afsonaviy Varag'n qushi bilan bog'liqdir. Varag'n afsonaviy qush bo'lib, “ayrim avestoshunoslar uning timsolida burgut, quzg'un, qirg'iy kabi yirtqich qushlar nazarda tutilishini taxmin qiladilar“.²

Nazarimizda, zardushtiylikda bu qush barcha parradalarining podshosi sifatida tasavvur qilingan afsonaviy jonzot bo'lgan. Chunki “Baxran yasht”da u qushlar ichra eng chaqqon va tez uchadigani deb ta'riflangan:

*Yettinchi bor Zardushtga,
Ko'rindi Veretragna
Axuraga yaratgan (zot),
O'ljasin goh pastdan,
Goh tepadan cho'qigan
Varag'n qushi misol,
Qushlar ichra eng chaqqon,
Eng tez uchar, eng parron,
Faqat u quvib yetar,
Tirik jonlar ichida.
Xato ketmas tez uchar
Tiri parron ketidan.
Uchar u qanot yoyib.*

¹ *Avesto. Yasht kitob // M. Isoxoqov tarjimasasi. –Toshkent: “Sharq”, 2001.67-бет*

² *Avesto. Veretragna qasidasasi // San'at, 1991, 8-son, 2-izoh (A.Somey tarjimasasi).*

Tong shafag'iga tomon.¹

Bu qush muqaddas jonivor deb tasavvur qilinganligi uchun zardushtiylikda uning sharafiga qurbonlik marosimi ham o'tkazishgan bo'lishsa kerak. Chunki ushbu yashtning shoir Asqar Mahkam tomonidan o'zbek tiliga amalga oshirilgan tarjimasida 19-bandining bosh qismi shunday o'girilganligini ko'ramiz:

*Paydo bo'ldi Zardusht qoshida
Varag'n qush timsolida
Ostidagi qurbonlarim ezib tashlab,
Ustidagi qurbonlarini maydalab.
Barcha qushlar ichra ildam,
Qanotlilar ichra uchqur.²*

“Avesto” mifologiyasi talqiniga binoan, zardushtiylikda Varag'n qushining patlari sehrli xususiyatga ega deb tasavvur qilingan. Bu qush pati bilan tanini siypalagan kishiga dushmanning sehr-jodusi ta'sir qilmaydi. Hatto jodugarlar fitnasi tufayli sehrlanib qolgan ashavan bu qush pati bilan o'z badanini silasa, barcha sehrlardan butkul xalos bo'lar ekan. Axuramazda bu xayrli patning xosiyatlari haqida Zardushtga so'zlab berar ekan:

*-Spitama, qo'lga ol,
Keng qanotli qush patin-
Bo'lsin Varag'n pati.*

¹Авесто. Яит китоб // М. Исхоқов таржимаси. –Тошкент: “Шарқ”, 2001.98-бет

²Авесто. Тарихий – адабий ёдгорлик А. Махкам таржимаси.- Тошкент: “ Шарқ”, 2001. 202-бет

*Taning siypab u bilan
Dushmanning jodusini
Hayda nari o'zingdan¹.*

Varag'n qushining pati bo'lgan zotdan yovuz kuchlar hayiqar, barcha yomonliklar nari ketar va uning hamisha omadi kelaverar ekan. Bu patlar egasi bo'lgan zotlar barcha yovlarni yengadi. Masalan, alpqomat Faridun uch boshli ajdahoning boshini chopganida ana shu patlardan kuchquvvat olgan. Bunday muqaddas patlar Kaviusanda ham bor ekan. Shuning uchun u moyasiga intilgan o'ynoqi nor kabi sho'x va qudratli bo'lgan.

Jangga hozirlangan bahodirlar har safar urushga kirishidan avval Varaxnni alqab, namoz bag'ishlaganlar. Chunki zardushtiylik mifologiyasiga ko'ra, qo'shiqlar ikki tomonda saf tortib turganida Zardusht Varag'ran qushining to'rtta patini olib ikki saf oldida dam solib tutib turarkan. Qaysi taraf Varag'ranni birinchi bo'lib alqasa va namozini unga yo'llab, zafar so'rasa, omad o'sha tarafga berilar ekan. Qush misolida gavdalantirilgan Varag'ranning mifologik obrazi shunday tasvirlangan:

*Varag'ranga namozim
Kuch-qudratga e'zozim,
Bu ikki himoyatning,
Asraguvchi juft zotning,
Ikkitadan pati bor,
Yoyiq, keng qanoti bor.*

¹ *Авесто. Яшт китоб // М. Исхоқов таржумаси. – Тошкент: “Шарқ”, 2001.100-бет*

*Muhtojni siypab o'tar
(Unga sig'inuvchini),
Patlari selpib o'tar,
Asta siypalab o'tar.¹*

Shuningdek, “Bahrom yasht”da Varag’ranning tog’ qo’chqori, yovvoyi taka ko’rinishidagi timsoliy obrazlari ham tasvirlangan.

BOSHQA ASOTIRIY OBRAZLAR

“Avesto”dagi qatlamni tashkil etuvchi an’anaviy syujetlar va personajlar tarkibini tadqiq etishda tabiat kul’tlari bilan aloqador boshqa asotiriy obrazlar talqinini tahlil qilish muhim nazariy xulosalar chiqarishga asos bo’lib xizmat qiladi. Chunonchi zardushtiylikda yer, suv, olov, ya’ni quyosh, yulduzlar, shamol, o’simliklar, jonivorlar muqaddaslashtirilgan. Bu narsa va hodisalarning shaxslantirib tasavvur qilinishidan tabiat kul’tiga aloqador mifologik persanajlar sistemasi shakllangan.

¹ *Авесто. Яшт китоб // М. Исхоқов таржимаси. –Тошкент: “Шарқ”, 2001.102-бет*

“Avesto” mifologiyasida barcha tabiat hodisalari va tabiat stixiyalari ma’budlar sifatida talqin qilingan. Xususan, hind-eron mifologiyasida yer ma’budasi Zam deb atalgan bo’lib, obrazga mohiyatan uyg’un keluvchi tasavvurlar zardushtiylikda ham mavjud, Zam, ya’ni yer ona ibtido bo’lsa, Osmon ota ibtido deb tasavvur qilingan.

“Avesto”da Zamning barcha funksiyalari Spenta Armayiti timsolida mujassamlashtirilgan. Spenta Armayiti zardushtiylik mifologiyasidagi ameshaspentalar tarkibiga kiradigan ma’budlardan biri bo’lib, uning nomini bildiruvchi atama “muqaddas taqvodorlik” degan ma’noni anglatadi. O’rta asr manbalarida Sperdarmat tarzida qayd qilingan bu obrazning genetik ildizlari yer va ko’k, ya’ni Zam va Osmon ma’budlari to’g’risidagi mifologik tushunchalar asosida kelib chiqqan. Bu mifologik personajning asosiy funksiyalari zaminini himoyalash va mo’l hosilni ta’minlash g’oyalari bilan bog’lanib ketgan. “Asha” alqovida Axuramazdaning jufti sifatida tasvirlangan Spenta Armayiti muqaddas Ashaning onasi deb talqin qilingan:

*Ulug’ otang Ilohlar ichra,
Eng ulug’ Iloh
Axuramazdadir.
Validang- Armayiti Spenta.¹*

¹ *Авесто. Тарихий – адабий ёдгорлик А. Махкам таржимаси.– Тошкент: “ Шарқ”, 2001. 210-бет.*

“Kichik Avesto”da bu mifologik personaj Axuramazdaning qizi deyilgan bo‘lib, yer ma‘budasi Zamning barcha xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan. Bundan tashqari ushbu manbada ona Zaminga homiylik qiluvchi muqaddas iloha sifatida shaxslantirib talqin qilinganligini ko‘ramiz.

Shoir Asqar Mahkamning izohiga ko‘ra esa, “Goh”larda Armayiti yolg‘iz holda qo‘llanilib, Axuramazdaning sifatlaridan birini anglatgan. Yangi “Avesto”da esa Spandarmaz Ameshaspendlarning biri bo‘lib, uchlik iloha Ameshaspendlar safida tilga olinadi – Spandarmaz, Xurdod, Amurdod. Bu o‘rinda Spandarmaz Axuraning ona xudolaridan biri. Bu iloha osmoniy olamda sabr-matonat timsoli bo‘lsa, zaminiy hayotda poklik, hosil va yaxshilikning pushti panohidir”¹.

“Vendidod”da Spenta Armayiti – Spandarmaz obrazi zaminning mifologik timsoli sifatida talqin qilingan. Ikkinchi fargardning 14-16-bandlarida jam (Yima-Jamshid) yer yuzini kengaytirishi bilan aloqador mifologik qarashlar ifodalangan. Unda bayon qilinishicha, zamin suruvlar, tevalar uyuri, odamlar, itlar, parranda va darrandalar hamda olovlarga to‘lganda, Jam yer yuzini kengaytirishga qaror qilgan. Shu maqsadda u janubga, ya‘ni yorug‘lik sari yo‘l olgan va zaminga zarrin suvra vositasida havo purkab, ashtray qamchisi bilan yerni savalaganda, zamin ilohasi Spandarmazga murojaat qilgan:

¹ *Avesto. Izoxlar. 6-izox // Гулистон, 2000, 2-сон, 39-бет. (А.Сомеъ таржимаси).*

“Ey, Spandarmaz!

Shafqat nurlarini zamin uzra yog‘dir, kengliklar ato ayla. Suruvlar, tevalar uyuri va odamlar seni ko‘rsinlar!”¹

Shundan keyin zamin ikki odimga kengayib, bu kenglik bag‘riga suruvlar, odamlar kelishib, o‘zlariga ma‘qul bo‘lgan yerga joylashganlar.

Ko‘rinib turganidek, Spenta Armayiti – Spandarmaz zardushtiylikda zamin va osmonning mifologik timsoli sifatida tasavvur qilingan iloha hisoblangan.

“Avesto”dagi tabiat kul‘tlari sistemasidagi mifologik personajlar orasida shamol ma‘budi obrazi mavjud bo‘lgan. Vaynu va Vata deb atalgan bu ma‘budlar dualistik qarashlar ta‘sirida yovuz hamda ezgu shamollarga bo‘lingan. M.Boysning qayd qilishicha, Vata-yomg‘irli bulutlarni olib keluvchi shamol ma‘budi bo‘lsa, Vayu yengilgina shabada timsoli hisoblangan. Shuning uchun ham “Rigveda”da Vaynu “ma‘budlar ruhi” deb ta‘riflangan.²

“Avesto” mifologiyasi bo‘yicha, Vayu Axuramazda tomonidan yaratilgan iloh bo‘lib, muqaddas ichimlik xaomani ilk bor tatib ko‘rish sharafiga muyassar bo‘lgan. Zamin bilan Osmon oralig‘idagi bo‘shliqni to‘ldirib turuvchi Vayuning asosiy vazifasi olamdagi tartiboti saqlab turish, yomg‘irli bulutlarni olib kelish, ezgulikni himoya qilishdan iboratdir.

¹ *Авесто. Тарихий – адабий ёдгорлик А. Махкам таржимаси.*– Тошкент: “ Шарқ”, 2001. 110-бет.

² *Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи.* – М.: Наука, 1987, С.14.

Vayu obrazi talqinida dualizmning ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki "Yasna"da Vayu ezgu ma'bud sifatida e'tirof etilmaydi. Bu esa qachonlardir shamol ma'budi Vayu ezgu ma'bud sifatida tan olingan va yazatlat qatorida sanaladigan bo'lgan.

"Avesto"ning "Ram yasht" deb atalgan o'n beshinchi yashti shamol ma'budi Vayu sharafiga bag'ishlangan. Unda talqin qilinishicha, Vayu shamol xudosi hisoblanib, Axuramazda tomonidan yaratilgan xilqatlar ichida eng tezkori, eng qudratlisi va eng yuksagidir. U har qanday yovuz kuchni tezda mahf etish qudratiga ega. Vayuning shaxslantirilgan tasviriga ko'ra, u oltin dubulga kiygan, oltin tojli, oyoq kiyimlari va jangovor aravasi ham tillodan yasalgan. Vayu eng e'tiborli ma'budlardan biri bo'lganligi uchun Axuramazdaning o'zi Aryana Vayejadagi Doitiyo daryosining sohilida bu ezgu iloh sharafiga qurbonlik keltirgan. U oltin taxtda o'tirgancha Vayu haqqiga xaoma va barsman bilan namoz keltirib, yovuz ruh Angromaynyuni yengishda omad baxsh etishini tilagan. Vayu ham uning iltijosini qabul qilib, Axuramazdaga shunday omadni baxsh etgan.

Vayu obrazi talqiniga xos yana bir xususiyati shundan iboratki, "Avesto"da u botir jangchi, yovuzlik bilan ezgulik, zamin bilan osmon o'rtasidagi vosita sifatida ham tasvirlangan. Harbiy kuch timsoli sharafiga bag'ishlangan "Baxran yasht"da bahodir Varaxran ilk bor Zardushtning qoshida qudratli shamol sifatida paydo bo'ladi:

*Zardushdga paydo shu on
Bo'ldi ilohiy Baxran
Birinchi bor ko'rindi
Axur Mazda yaratgan
Kuchli shamol bo'lib, u
Va lekin xush, yoqimli.
Qanotida Xvarno
Balolardan qutqar
Quadratli tanti barno.¹*

Shu o'ringa Vayu – shamol ma'budining mifologik personaj sifatidagi funksiyasini oydinlashtiruvchi ma'lumotlar mavjud. Zardushtiylar Vayuni yovuz kuchlarga qarshi kurashuvchi eng qudratli, jasur jangchi sifatida talqin qilishgan. Mazkur yashtda bu tasavvur Vayuning o'z so'zlari orqali shunday berilgan:

*Va Zardushtga dedi:
“Qudratidan kuchliman,
Himoyati ihotam.
Menman ezgu ma'murlik
Men senga eng mehribon,
Ezgulik hosilimdir
Dardga em bo'lg'ich (malham).
Men odamlar va devlar
Yovligin etib barham,
Alvasti-yu jodugar,*

¹ *Авесто. Яшт китоб // М. Исхоқов таржумаси. –Тошкент: “Шарқ”, 2001.95-бет*

*Zolim kayoniylarni
Karapanlarning barin,
(Yenggay, iloh madadkor).¹*

Qadimgi odam tabiat hodisalarini jonlantirib tasavvur qilingani sababli shamolning ham shaxslantirilgan mifologik obrazini yaratgan. Bu obraz haqidagi xalq qarashlarining tadrijiy rivoji natijasida shamol tangrilari, bu tabiiy hodisani o'ziga bo'ysundirgan deb tasavvur qilinuvchi afsonaviy ilohalar to'g'risidagi mifik tushunchalar kelib chiqqan. Shamolni kuch-qudrat, g'oliblik va erkinlik ramzi deb bilgan zardushtiyalar uni shon-sharaf ma'budi Varaxranning timsoliy ko'rinishlaridan biri sifatida tasavvur qilganlar.

Bu bobda tadqiq etilgan masalalar bo'yicha fikrlarimizni umumlashtirib, quyidagicha xulosalashimiz mumkin:

1. Tabiatni mifologik anglash O'rta Osiyoda istiqomat qilgan qadimgi ajdodlarimiz dunyoqarashida muhim o'rin tutgan. Ular tabiat hodisalari, narsa va predmetlar, jonivorlar va o'simliklar olamining mohiyatini anglashga harakat qilganlar. Natijada tabiatni timsollashtirilgan tasavvurlar sistemasi tarzida talqin qilish an'anasi kelib chiqqan. Bu tasavvurlarning bevosita rivojlantirilishi orqali tabiat kul'tlarining shaxslantirilgan obrazlartarkibi shakllangan.

¹ *Авесто. Яшт китоб // М. Исхоқов таржимаси. –Тошкент: “Шарқ”, 2001.95-бет*

2.“Avesto”da ajdodlarimizning suv, olov, tuproq, shamol, osmon yoritqichlari, nabotot va hayvonot olamini mifologik anglashi asosida kelib chiqqan asotiriy syujetlar hamda personajlar o‘z ifodasini topgan. Bu ulug‘vor yodgorlikda mujassamlashgan mifologik tasavvurlar tizimida tabiat kul‘tining asotiriy talqiniga asoslangan qadimiy qatlam yetakchi mavqega ega.

3.“Avesto”da tasvirlangan Zam, Osmon, Vayu, Xaoma, Gaokerna, Vispobush, Kara, Spenta Armayiti (Spendarmaz), Xaurvatat va Ameretat, Voxu Mana, Ozar(Atar), Asha-Vaxishta singari o‘nlab personajlar ajdodlarimizning tabiatga bo‘lgan mifologik munosabatini o‘zida mujassamlashtirganligi bilan xarakterlanadi.

4. “Bahrom yasht” zardushtiylarning jonivorlarni timsollashtirish va shaxslantirib tasavvur qilishga asoslangan kul‘t miflari asosiga qurilgan bo‘lib, bu qadimiy tushunchalar Varaxranning shamol, buqa, ot, qush, qobon, tog‘ arxari, yovvoyi taka ko‘rinishida namoyon bo‘lishi tasvirlangan motivlarda o‘z ifodasini topgan.

5. Zardushtiylik falsafasida tabiatning to‘rt unsuri – suv, olov, tuproq va havo (shamol)ni mo‘tabarlashtirish g‘oyasi ustuvorlik qiladi. Ardvisura Anaxita, Atar-Ozar, Tishtriya, Satavays, Vayu, Vata, Zam va Osman, Spenta Armayiti kabi personajlar ana shu to‘rt tabiiy unsur bilan bog‘liq mifologik qarashlar asosida shakllangan an‘anaviy obrazlar hisoblanadi.

6.Tabiat kul'ti asosida yuzaga kelgan mifologik obrazlarning "Avesto"dan o'rin olishi zardushtiylarning tabiatini e'zozlash, zaminni ardoqlash, tevarak-atrofni toza saqlash, o'simliklar va jonivorlar olamini asrash g'oyasini targ'ib etish an'anasi bilan ham bevosita aloqadordir. Shuning uchun ham tabiat kul'ti bilan bog'liq qadimiy tasavvurlarning "Avesto"dagi mifologik talqinlarini o'rganish ajdodlarimizning ona-tabiatga bo'lgan ibratli munosabatining hayotiy asoslarini aniqlash va shu ezgu g'oyalarni yosh avlod ongiga chuqur singdirishdek ulug' maqsadlarga xizmat qiladi.

XOTIMA

Ma'lumki, bundan 2700 yil burun yaratilgan muhtasham ma'naviy qadriyat – "Avesto" Sharq xalqlari badiiy tafakkuri an'alarining yuzaga kelishi va takomillashishida muhim rol o'ynagan manbalardan biri hisoblanadi. Bu yodgorlik qadim zamonlarda yashagan bobolarimiz dunyoqarashining o'ziga xos qomusi bo'lib, o'lkamizda o'sha zamonlarda kechgan tarixiy-ijtimoiy hodisalar, xalqning turmush tarzi, ma'naviyati, marosim va udumlari, tabiat va jamiyat haqidagi qarashlari, olamdagi hayotning mohiyati xususidagi diniy, falsafiy-estetik tushunchalari hamda qadimiy folklor an'alarini o'zida mujassamlashtirgan bebaho xazinadir. "Avesto"ning eng muhim jihatlaridan biri shuki, bu yozma obida

mamlakatimizning shonli tarixi va xalqimiz ma'naviyatining ildizlari g'oyat qadimiy zaminga egaligini ko'rsatuvchi betakror tafakkur mo'jizasi hisoblanadi. Xalqimiz o'zligini anglayotgan va ma'naviy tiklanish jarayoni jadal sur'atlarda kechayotgan shu kunlarda yurtimizning qadim tarixi va milliy qadriyatlarimizning sarchashmalariga mansub manbalarni chuqur o'rganish, ma'naviyatimiz asoslarini keng qamrovda tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

“Avesto” mo'tabar kitob bo'lishi bilan birga bizning yurtimizda qariyb uch ming yil burun ham yuksak darajada rivojlangan madaniy an'analar mavjud bo'lganligi, takomillashgan dehqonchilik madaniyati an'analari tarkib topganligi, bu yerda buyuk davlat barpo etilganligi hamda uning hududida istiqomat qilgan yurtdoshlarimiz betakror ma'naviyat sohibi bo'lganligidan ham dalolat beradi. Shuning uchun bu yodgorlik tarixiy, filologik, etnografik, lingvistik, manbashunoslik, huquqshunoslik va boshqa fanlar nuqtayi nazaridan atroflicha o'rganilishi lozim.

Ma'lumki, o'lkamizda yuzaga kelgan eng qadimgi dinlardan biri zardushtiylikda tabiatning bokira go'zalligini avaylab-asrash, yer, suv, olov va havoning musaffoligini saqlash g'oyasi yetakchilik qilgan. Ezgu o'y, ezgu amal, zardushtiylik ta'limotining dunyoviyligi, hayotiyligi va ulug'vorligini ta'minlagan. Tabiatni mifologik anglash asosida yuzaga kelgan e'tiqodlar, asotiriy qarashlar va ibtidoiy tasavvurlar tizimi zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da ham o'z ifodasini topgan. Shuning uchun tarkibiy qismi hisoblangan tabiat kul'tlariga aloqador asotiriy obrazlarning genezisi va zardushtiylikdagi talqinlari masalasini tahlil qilishni taqozo etadi. Bizning

tadqiqotimizda zardushtiylikdagi tabiat kul'tlarining mohiyati, timsollashtirilgan tabiiy hodisalar haqidagi asotiriy qarashlarning "Avesto" mifologiyasidagi o'zni va bu tizimni tashkil etuvchi mifik obrazlarning o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi hamda ko'rib o'tilgan masalalar yuzasidan quyidagi umumiy xulosalar chiqarildi:

1. "Avesto" zardushtiylik bilan aloqador diniy-mifologik qarashlar va tasavvurlarni o'zida mujassamlashtirilgan bebaho ma'naviy yodgorlik bo'lib, qadimgi Xorazm hududida, Amudaryo sohillarida yaratilgan. Bu yozma obidada o'sha davrda yashagan kishilarning turmush tarzi, urf-odatlar, marosimlari, falsafiy, badiiy-estetik va diniy-e'tiqodiy qarashlari, folklor an'analari va mifologik tasavvurlari o'z ifodasini topgan.

2. Zardushtiylikka e'tiqod qilgan ajdodlarimizning ezgulik va yovuzlik bilan bog'liq inonchlari, suv, olov (quyosh), tuproq (zamin) va havo (Osmon, shamol), osmon yoritqichlari, o'simliklar va tog'-tosh kul'ti to'g'risidagi tasavvurlari, jonivorlarni mo'tabarlashtirish va tabiat hodisalarini shaxslantirishga asoslangan asotirlari, tabiatni mifologik anglash negiziga qurilgan tushunchalari o'sha davr folklorida o'ziga xos tarzda talqin qilingan.

Ularning mifologiyasida tabiatni jonlantirish, o'simlik va hayvonot olamini muqaddaslashtirib, timsollashtirib talqin qilish an'anasi ustuvorlik qilgan. Tabiat kul'tlariga sig'inish asosida shakllangan asotiriy syujetlar, shuningdek, O'rta Osiyoda yashagan qadimgi ajdodlarimizning zardushtiylikdan avvalgi ibtidoiy qarashlari negizida kelib chiqqan kul't miflari, xususan, hosildorlik g'oyasini tashuvchi e'tiqodiy inonchlar "Avesto" mifologiyasiga singdirib yuborilgan.

3. “Avesto”da osmon yoritqichlarini muqaddas kul’lar sifatida timsallashtirish an’anasi quyosh, oy, yulduzlarni mo’tabarlashtirish sifatida talqin qilingan. Olovga sig’inish quyoshning muqaddaslashtirilishi natijasida kelib chiqqan bo’lib, zardushtiylar bu ulug’ yoritqichni zamindagi hayotning boqiyiligini ta’minlab turuvchi, yerga issiqlik, nur baxsh etuvchi, ezgulikka sharafroq kuchlarni yovuz ruhlar xurujidan himoya qiluvchi muqaddas timsol deb tasavvur qilishgan.

4. Zardushtiylikdagi barcha marosimlar muqaddas olov qoshida bajarilgan. Chunki olovni poklovchi, isituvchi, himoya qiluvchi, yovuz ruhlarni haydovchi g’ayri oddiy kuch deb qarashga asoslangan qadimgi mifologiyada olov kul’ti shakllangan. Olov kul’ti Atar-Ozar obrazi talqinida o’z ifodasini topgan. Ko’plab otashkadalarning qoldiqlari topilganligi, marosim va udumlarimizda olovni timsallashtirish an’anasining ta’sirida kelib chiqqan rasm-rusmlar saqlanib qolganligi, folklorimizda olov detali bilan aloqador epik motivlar mavjudligiga asoslanib, “Avesto”da o’z ifodasini topgan olovkul’ti bizning zaminimizda shakllangan degan xulosaga keldik.

5. “Avesto”da osmon yoritqichlarini muqaddas kul’lar sifatida timsallashtirish an’anasi quyosh, oy, yulduzlarni mo’tabarlashtirish sifatida talqin qilingan. Olovga sig’inish quyoshning muqaddaslashtirilishi natijasida kelib chiqqan bo’lib, zardushtiylar bu ulug’ yoritqichni zamindagi hayotning boqiyiligini ta’minlab turuvchi, yerga issiqlik nur baxsh etuvchi, ezgulikka sharafnok kuchlarni yovuz ruhlar huzuridan himoya qiluvchi muqaddas timsol deb tasavvur qilishgan.

6. “Avesto” ning Ardivisura alqoviga bag‘ishlangan yashtida zardushtiylarning suvni e‘zozlash bilan aloqador qarashlari mujassamlashgan. Suv manbai sifatida timsollashtirilgan Ardivi chashmasi va undan boshlanadigan muqaddas daryo haqidagi qadimiy asotir syujetining epik transformatsiyasi Amudaryo to‘g‘risidagi o‘zbek xalq afsonasiga asos bo‘lganligi qayd qilindi. Bu esa zardushtiylarning suv kul‘ti bilan aloqador e‘tiqodlari Amudaryoga sig‘inish asosida kelib chiqqanligi va hosildorlik g‘oyasi bilan bog‘lanib ketganligini ko‘rsatadi.

7. “Avesto”ning Ardivisura alqoviga bag‘ishlangan yashtida zardushtiylarning suvni e‘zozlash bilan aloqador qarashlari mujassamlashgan. Suv manbai sifatida timsollashtirilgan Ardivi chashmasi va undan boshlanadigan muqaddas daryo haqidagi qadimiy asotir syujetining epik transformatsiyasi Amudaryo to‘g‘risidagi o‘zbek xalq afsonasiga asos bo‘lganligi qayd qilindi. Bu esa zardushtiylarning suv kul‘ti bilan aloqador e‘tiqodlari Amudaryoga sig‘inish asosida kelib chiqqanligi va hosildorlik g‘oyasi bilan bog‘lanib ketganligini ko‘rsatadi.

8. Ardivisura Anaxita obrazining qadimiy asoslari O‘rta Osiyoda sug‘orma dehqonchilik madaniyatining vujudga kelishi davridagi hosildorlik va kul‘ti bilan aloqador tasavvur va tushunchalarning evolyutsiyasiga bog‘lanadi. Suv ma‘budasi haqidagi qadimgi tasavvurlarning zardushtiylik mifologiyasi sistemasida rivojlantirilishi natijasida ko‘p funktsiyali Ardivisura obrazi kelib chiqqan.

9. Ardivisura Anaxita tog‘risidagi mifologik tasavvurlarning tabiat kul‘tlari negizida takomillashtirilishi davomida o‘zbek folklorida Ambar ona haqidagi afsonalar

kelib chiqqan. Ardvisuraning homiylik funksiyasi deyarli to'raligicha Ambar ona timsolida mujassamlashgan.

10. "Avesto"da Tishtar yulduzi osmon suvlarining egasi, yomg'ir yog'diruvchi va zaminga obi hayot baxsh etuvchi farahbaxsh ma'bud sifatida talqin qilingan. U o'n besh yoshli navqiron yigit, baraka ramzi bo'lgan sigir va oq tulpor ko'rinishida namoyon bo'lib, odamlarga qut-baraka bag'ishlaydi. Ajdodlarimiz oq ot qiyofasida ko'rinuvchi qurg'oqchilik devi Apaosha bilan olishgan Tishtar zarnishon oq tulpor bo'lib Farog' Kart nomli samoviy daryodan suv olib keladi deb o'ylaganlar.

11. "Avesto"da zamin, osmon, shamol, yomg'ir, tuproq, olov va suv bilan aloqador mifologik tasavvurlar bilan bir qatorda ot, buqa, sigir, it, qobon, qush, tog' qo'chqori kabi ayrim jonivorlar hamda o'simliklarni timsollashtirishga asoslangan asotirlar ham muhim o'rin tutgan. Ayniqsa, afsonaviy Varag'n qushi, Xaoma daraxti haqidagi miflarda tabiat kul'ti inonchlari yaqqol aks etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A O'zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent. O'zbekiston, 1999.
2. Abayev V. Скифский бытиреформы Зорастра // Arxivorientali. XXIV, 1. – Praha, 1956.
3. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshahiy. Buxoro tarixi. – Toshkent: Kamalak, 1991.
4. Avesto. Избранные гимны // Пер. савестийского И.М. Стеблин-Каменского. – Dushanbe: Adib, 1990.
5. Avesto I-II jildlik // Jalil Do'stqoh tahriri ostida. – Tehron: Marvarid, 1991.
6. "Avesto" va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni // "Avesto" ning 2700 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferentsiya materiallari. Toshkent-Urganch: Fan, 2001.

7. Avesto. Yasht kitobi // M.Is'hoqov tarjiması. – Toshkent: Sharq, 2001.
8. Avesto. A.Mahkam tarjiması. – Toshkent: qomuslar Bosh tahririyati, 2001.
9. “Avesto”ning 2700 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya tezislari. – Urganch, 2000.
10. Аверенцев С.С Вода // Мифы народов мира. Т.1. – М., 1992. – с.241
11. AbdukomilovR. Авестийские тексты о государственности и праве: Вопросы генезиса и эволюции структуры // O‘zbekistontarixi. – 2000.№3 – С.9-24.
12. Akramov M.G‘. Mifologiyaning ayrim epik janrlar bilan o‘zaro munosabati // o‘zbek folklorining epik janrlari. – 2001
13. Ashirov A. “Avesto”dan meros marosimlar. – Toshkent: Meros, 2001
14. Андреев М.С. Половцев А.А. Материалы по этнографии иранских племен Средней Азии.
15. Анисимов Л.Ф. Космологические представления народов севера. – М., – Л: Изд.АН СССР, 1959
16. Asotirlar va rivoyatlar. To‘plab, nashrga tayyorlovchi: M.Murodov va M.Shayxova. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1990.
17. Asqarov A.A O‘rta Osiyoning eniolit va bronza davri otashgohlari //“Avesto” kitobi – tariximiz va ma‘naviyatimizning ilk yozma manbai” Mavzuidagi ilmiy amaliy seminar materiallari. – 2000 yil, 6-dekabr. – Toshkent, 2000. B.27-33 .
18. Афанасьев А.Н Поэтические воззрения славян на природу. Т.1. – М: Академия,1865.
19. Басилов В.Н Культ святых в Исламе. – М: Мысль 1970
20. Бертельс Е.Э. Открывки из “Авесто “ // Восток. Кн.4. – Л.1924
21. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Т. 1. История персидкотаджиско
22. Бичурин М.Е Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена. Т.1. – М: Изд. АН СССР, 1958
23. BuniyatovZ.M. Сведение об истории Хорезмшахов. – М: Наук, 1987
24. Bobolardanqolgannaqlar: Afsona, rivoyat, irim-sirimvaxalqtaqvimi // Yoziboluvchi: RahmatullaYusufo‘g‘li. To‘plab, nashrga tayyor. M.Jo‘rayev, U. Sattorov. – Toshkent: Fan, 1998.
25. Бойс М. Зорастрицы. Верования и обычаи. –М: Наук, 1987.

26. Боголомовка К. Следы древнего культа воды у таджиков // Изв. отд. обществ. наук АН Тадж. – 1952. – Вып. 2, 1952.
27. Брагинский И.С. Из истории таджикской народной поэзии. Элементы народного поэтического творчества в памятниках древней и средневековой письменности. –М: Изд. АН СССР, 1956
28. Брагинский И.С. Апам-Напат // Мифы народов мира. Т.1.М.1992
29. Брагинский И.С. Из истории персидской и таджикской литературы. – М: Наука, 1972
30. Валиханов Ч.Ч. Собрание сочинений. В 5-ти томах. Г.1.- Алмата: Изд. АНКазССР, 1961.
31. Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма. –М: Наука, 1968.
32. Геродот. История: в девяти книгах // пер. Ф.Т.Мищенко. М: Изд. А.Г. Кузнецова, 1988. – Т.2.
33. Gulikahkah pari. O'zbek xalq fantastikasi. – Toshkent. Yosh gvardiya, 1988.
34. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времён до наших дней. – Тошкент: Фан, 1957.
35. Дорошенько Е.А. Зороастрийцы в Иране. – М. Наука, 1982.
36. Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М: Наука, 1976.
37. Древние авторы о Средней Азии. – М: Наука, 1940.
38. Дьяканов И.М. Истории Мидии от древнейших времен до конца IV века до н.э. – М. – Л: Изд. АН СССР, 1956.
39. Дьяканов И.М. Очерк истории древнего Ирана. – М: Изд. Вост. Лит, 1961.
40. Javliyev T. Tabiat, inson va din. – Toshkent: Fan, 1986.
41. Жирмунский В.М. Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – М: Гос. Изд. Худ. Лит, 1947.
42. Jo'rayev M. O'zbek xalq qertaklaridasehrliraqamlar. – Toshkent: Fan, 1991.
43. Jo'rayev M. O'zbek xalq samoviy afsonalarining tarixiy asoslari. Filol.fanlari dok. diss. Avtoref. – Toshkent, 1996.
44. Jo'rayev M. O'zbek xalq samoviy afsonalari. – Toshkent: Fan, 1995.
45. Jo'rayev M. O'zbek xalq taqvimi va mifologik afsonalar. – Buxoro: “Buxoro”, 1994.

46. Jumanazarov U. Yomg'ir va suv kul'ti // Tarix, afsona va din. – Toshkent. 1990.
47. Zarifov X. O'zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari bo'yicha tekshirishlar. Jangovor ot obrazining qadimiy asoslariga doir // Pulkan shoir. – T.1976.
48. ИвановаЮ.В. Следысолярногокульта // КалендарныеобычаииобрядывстранахзарубежнойЕвроп ы. – М. 1983.
49. Иванов В.В Асральные мифы // Мифы народов мира. Т.1. – М. 1992.
51. Инастранцев К.А О домусульманской культуре Хивинского оазиса. – Спб, 1911.
52. Инастранцев К.А К истории домусульманской культуры Средней Оазиса. – Спб, 1917.
53. Irisov A. "Avesto" kitobi // San'at. – 1991.№3. –В. 6-7.
54. Искусство стран Востока.–М: Просвещение,1986.-301 с.
55. Истории народов Узбекистана. Т.Н. – Тошкент: Изд. АНУзССР, 1947.
56. История Табари. – Тошкент. Фан. 1988.
57. Is'hoqovM. SulaymonovR. Zarashtushtraningvatanivauningyashagandavrigaoidmulohazalar // O'zbekistontarixi. -1999. -№1.-В. 45-54.
58. Is'hoqov M. "Avesto"ning turkiy o'zbekcha o'girmasidan // Fan va turmush. – 1993. №3.-В. 22-23.
59. Is'hoqov M. Ezgulikka yo'llovchi kitob // Sog'lom avlod uchun. – 1996. №5-6. – В. 42-43.
60. Is'hoqov M. Xozarasp "Ming ot" mi yoki...? // O'zbek tili va adabiyoti. – 1997. №1. – В. 74-75.
61. Iprak yo'li afsonalari. To'plab, nashrga tayyorlovchi M. Jo'rayev. – Toshkent: Fan, 74-75.
62. Каруновская Л.Э. Преставления алтайцев о вселенной // Сов.энцкл. – М. 1935.-Т 4-5.
63. Каскабасов С.А Казакская нескazочная проза. – Алмата: Наука, 1990
64. Короглы Х.Т Взаимосвязи эпоса народов Средней Азии, Ирана и Азербайджана. – М: Наука, 1983.
65. Кернович Е.А. Очерки космогонических преставлений гиялков о Сахалине // Этнография. – №1.
66. Кустанаев Х. Этнографические очерки киргиз Перовокого и Казалинского уездов. – Т. 1894
67. Mallayev N. XII asrlar adabiyoti. Toshkent: o'quv.ped.dav.nashr, 1958

68. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: o'qituvchi, 1965.
69. Makovelskiy A.O. Avesta – Baku: Изд. АНАЗССР, 1960.
70. Maxmudov T. “Avesto” haqida. – Toshkent: Sharq, 2000.
71. Maxmudov T. “Avesto” haqida // Guliston. -1994. -№4. – B.24-32.
72. Maxmudov T. “Avesto” haqidagi // Guliston. -1994-№5. – B. 40-47
73. Maxmudov T. Iski va saklar turkiy ajdodlarimiz // Fan va turmush. – 1994. №2. – B. 10-11.
74. Материалы по истории киргизов и Киргизии. – М: Наука, 1973.
75. Мухитдинов И, Обряды и обычаи припомирских народностей, связанные с циклом сельскохозяйственных работ // Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии. – М, 1986.
76. Musaqulov A. o'zbekxalqlirikasi: Filol.fanlaridok. diss. avtoref. – Toshkent, 1995.
77. Мифология народов мира. – М: наука, 1992.
78. Мифология древнего мира. – М: наука, 1977.
79. Огибенин Б.Л Структуры мифологических текстов “Ригведы” – М: Наука, 1968.
80. Oymomodaajdah. O'zbekxalqfantastikasi. – Toshkent: Yoshvardiya, 1983.
81. Оськин В.А. К вопросу о семантике одного сюжета в петроглифах Букантау / / Этнография и археология Средней Азии. – М., 1979.
82. Потанин Г.Н. Восточные мотивы в средневековом европейском эпосе. – М: Изд. географ. отд. имп. о-ва. , 1899.
83. Рак И.В. Мифы древнего и раннесредневекового Ирана. – СПб: Нева, 1998.
84. Ремпель Л.И. Цепь времен. Вековые образы и бродячие сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии. – Тошкент: лит. и искусство, 1987.
85. Рыбаков Б.А. Космогония и мифология земледельцев энеолита / / СА. – 1965. -N21-2.
86. Ro'zimbayev S. Sabirova N. “Avesto” mifologiyasi va Xorazm folklori. – Urganch. 2001.
87. Sarimsaqov B. O'zbek marosim folklori. Tosh. Fan, 1986.
88. Sarimsaqov B. Epik janrlar diffuziyasi // o'zbek folklorining epik janrlari. – Toshkent, 1981.
89. Снесарев Г.П. Традиция мужских союзов в ее позднейшем вариантах у народов Средней Азии / / Полевые

- исследования Хорезмской экспедиции в 1953 –1961 г. – М., 1963.
90. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М: Наука, 1969.
 91. Снесарев Г.П. Под небом Хорезма. М. «Мысль». 1970.
 92. Снесарев Г.П. Хорезмские легенды, как источник по истории религиозных культов Средней Азии. – М: Наука, 1987.
 93. Стеблин-Каменский М. Миф. – М: Наука, 1976.
 94. Струве В.В. Родина зороастризма // Материалы по истории таджиков и Таджикистана. –Т. 1. – М., 1945.
 95. Струве В.В. Этюды по истории Северного Причерноморья, Кавказа и Средней Азии. – Л: Наука, 1968.
 96. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. –Toshkent: Fan, 1991.
 97. Тайлор Э.Б. Первобытная культура. – М: Политиздат, 1989.
 98. Tilavov A.
O'zbek xalq dostonlaridagi otobrazining tarixiy asoslarivabadiiy talqini:
Filol. fanlarin omzodi. diss –Toshkent. 2000.
 99. Тревер К.В. Гопатшах – пастух-царь // Труды отдела востока Государственного Эрмитажа. Т. 11. – Л., 1940.
 100. Токарев С.А. Огонь // Мифы народов мира. Т.2 – М. 1992.
 101. Токарев С.А. Ранние формы религии. – М: Политиздат, 1990.
 102. Tolstov S. Pqadimgi Xorazm madaniyatini izlab. –Toshkent: Fan, 1965
 103. Толстов С.П. Пережитки тотемизма и дуальной организации у туркмен. – М: Вост. лит. 1956.
 104. Толстов С.П. Общественный строй древней Средней Азии по Авесте. – М: Политграфкнига, 1939.
 105. Turdimov Sh. Quyosh yo'li manzillari. Esse // Sog'lom avlod uchun. №7-8-B. 26-35: №9. – В. 42-117: №10-11. – В. 40-45.
 106. Umarzoda M. "Avesto" sirlari // Jahon adabiyoti, 1997 yil, 4-son.
 107. Firdavsiy. Shohnoma. Т.1.-Toshkent: Adabiyot va san'at, 1975.
 108. Франк-каминский. Водаиогоньвбиблейской поэзии // Яфетический сбор. – М.-Л., 1925. – Вып. 3.
 109. Филиминова Т.Д. Вода в календарных обрядах // Календарные обычаи и обряды в странах Зарубежной Европы. – М.1983.
 110. Фрезер Д.Ж. Золотая ветвь. – М: Политиздат, 1990.
 111. Хайтун Д.Е. Пережитки тотемизма у народов Средней Азии и Казахстана. Т. XIV. – Душанбе, 1956.

112. Хук. С.Г. Мифология ближнего Востока. – М. Наука. 1991.
113. Чичерев В.И. Зимний период русского земледельческого календаря. – М: Наука, 1957.
114. Eshonqulov J. Ajdodlarkul'ti. Xalqaro ilmiy konferentsiya materiallari. – Anqara, 1998.
115. Eshonqul J. Folklor: obraz va talqin. – Qarshi: Nasaf, 1999.
116. Яншина Э.М. Формирование и развитие древнекитайской мифологии, – М: Наука, 1984.
117. O'zbekadabiyotitarixi, 5 tomlik O'zSSSRFA A A.S.Pushkin nomidagi Tilva adabiyot instituti. Toshkent: FAN, 19
118. Qayumov A. Pqadimgi yozmay odgorliklar. – Toshkent, 2000 3
119. Qayumov A. P Beruniy "Avesto" haqida // Beruniy vijtimoiy Toshkent: FAN, 1978.
120. Qayumov O. O'zbek folklorida pari obrazining genezisi v talqini: Filol. fanlar nomzodlik diss. – Toshkent, 1999.
121. Qodirov M. Tomosha san'ati o'tmishidan lavhalar. – Toshk 1993.
122. Qodirov M. Zardushtiylik va tomosha san'ati // Guliston. – 2 8 – B. 36-37.
123. Qodirov R. Nurga yo'g'rilgan shahar // Maktabgacha tarbiya 41 №3-4. – B.47.
124. Qora dev. O'zbek xalq fantastikasi. – Toshkent: Fan, 1959. 58
125. Qur'oni Karim. – Toshkent : Cho'lpon, 1992.
126. G'ulomov Y. Xorazmning sug'orilish tarixi. – Toshkent: Fan, 19 82
127. Homidov. H. "Avesto" fayzlari. – Toshkent: Meros, 2001.
128. Homidov H. "Avesto"ning ilmiy va adabiy qimmatini // O'zb adabiyoti, – 2000. – №3. – B. 7-15.
129. Homidov H. "Avesto"da tabobat // Sog'lom avlod uchun. – 2(10. – B. 34-36.

108

129

143

156

MUNDARIJA

164

172

169

KIRISH.....

“Avesto” mifologiyasi tizimida tabiat

kul’tlarining o’rni.

Quyosh kul’ti.....

Yulduz kul’ti.....

Olov kul’ti.....

Suv kul’ti.....

“Avesto”da tabiat kul’ti bilan bog‘liq

mifologik obrazlar tizimi

Ardvisura Anaxita obrazining mifo-epik talqini.....

Tishtriya obrazining mifo-epik asotiriy tabiati.....

Baraxran obrazining timsoliy ko‘rinishlari.....

Boshqa asotiriy obrazlar.....

XOTIMA.....

Foydalanilgan adabiyotlar.....

Ilmiy –ommabop nashr

Madamin Eshmurodov

“AVESTO” DA TABIAT KUL’TLARI

TALQINI

Mas'ul muharrir:
Texnik muharrir:
Musahhih: J. Yusupov

Mirsodiq Ishoqov
K. Nazarov



Nashriyot
TASDIQNOMA
raqami:
№152441

Bosishga 2024 yil 23 fevraldaberildi.
Bichimi 60x84¹/₁₆.. «Cambria» garniturasida.
Hajmi – 11,0 bosma taboq. Adadi - 100 dona.
Buyurtma № 15. Bahosi kelishilgan narxda.

Ogahiy nashriyotida tayyorlandi.
Manzil: Urganch shahri Al-Xorazmiy ko‘chasi. 23-uy
“Shams nashr” matbaa korxonasi chop etildi.
Manzil: Yangiariq t., “Gulshan diyor” k., 56-uy.